

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**MANZAR ABDULXAYROV**

**ALISHER NAVOIY ADABIY  
MEROSI MANBALARI VA  
MATNIY TADQIQI**

*Monografiya*

ISBN 978-9943-1035-0-1



9 789943 103501

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**MANZAR ABDULXAYROV**

**ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSI MANBALARI  
VA MATNIY TADQIQI**

*Monografiya*

**TOSHKENT – 2025**

**UO‘K: 821.512.133.09-1**

**KBK: 83.3(5 O‘)**

**A-15**

### **Abdulxayrov, Manzar**

Alisher Navoiy adabiy merosi manbalari va matniy tadqiqi [Matn]: monografiya/  
M.Abdulxayrov. – T.: “Yashil yaproq nashriyoti”, 2025. – 113 b.

Mazkur monografiya Alisher Navoiy adabiy merosi manbalari va matniy tadqiqiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda Alisher Navoiyning asarlari matnshunoslikning badiiy asar semiotikasi, sinergetik tahlil, germeneytik tahlil hamda matni tiklashning “konyektura”, “gloss”, “interpolyatsiya” va “statistik” usullari singari nazariy masalalari kesimida o‘rganilgan. Ulug‘ shoirning boy adabiy merosi sho‘rolar davrida g‘oyaviy-badiiy tahrirdan o‘tkazilib, asliyatdan yiroqlashtirilganligi aniqlanib, qo‘lyozma manbalar asosida nashrlaridagi nuqson va kamchiliklar tuzatilgan, yangicha tamoyillar asosida tahlil va tadqiq etilgan.

Monografiya filolog mutaxassislar, til va adabiyot o‘qituvchilari, matnshunoslik va adabiy manbashunoslik, tilshunoslik va adabiyotshunoslik ixtisosligi bo‘yicha ta‘lim olayotgan doktorant tadqiqotchi-izlanuvchilar, magistr, bakalavr talabalari hamda Navoiy ijodi bilan qiziquvchi barcha kitobxonlarga mo‘ljallangan.

**UO‘K: 821.512.133.09-1**

**KBK: 83.3(5 O‘)**

#### **Mas‘ul muharrir:**

Shuhrat Sirojiddinov,  
*filologiya fanlari doktori, akademik*

#### **Taqrizchilar:**

R. Zohidov,  
*filologiya fanlari doktori, professor*  
Q. Sodiqov,  
*filologiya fanlari doktori, professor*

Monografiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 30-oktabrdagi 4-sonli majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-1035-0-1

© Manzar Abdulxayrov, 2025-yil.  
© “Yashil yaproq nashriyoti”, 2025.

## MUQADDIMA

Dunyo matnshunosligida qo‘lyozma manbalarni qiyosiy tahlil etish, ijodkor ilmiy biografiyasini yaratish, badiiy asar matni tarixini o‘rganish kabi ilmiy muammolar ustida izlanishlar olib borilmoqda. Ular sirasidan dunyo kutubxonalari bo‘ylab tarqalgan Sharq qo‘lyozmalari, jumladan, turkiy adabiyotning buyuk namoyandalari asarlari manbalarini o‘rganish doirasida katta tajriba, bilim hamda material to‘plandi. Olib borilgan keng ko‘lamli tadqiqotlar matnshunoslikning nazariy asoslari yaratilishiga zamin bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mustaqillik yillarida xalqimizning o‘tmish madaniy merosini yuzaga chiqarish, buyuk iste’dod sohiblari qoldirgan ulkan ilmiy-ma’naviy, adabiy merosni xalq mulkiga aylantirish sohasida jiddiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Ayniqsa, oxirgi yillarda xalqimizning ko‘p asrlik madaniyati, milliy qadriyatlari bilan bog‘liq manbalarni nashr etish, ulug‘ mutafakkirlarimiz va shoirlarimizning asarlarini bugungi kun o‘quvchisining ehtiyojlarini hisobga olib nashrini amalga oshirish matnshunoslik sohasining diqqat markaziga chiqdi.

O‘zbekistonda adabiyotga bo‘lgan e’tibor o‘laroq, “...matnshunoslik, adabiy manbashunoslik, tilshunoslik, falsafa, madaniyat tarixi sohalarida milliy madaniy merosimizni hali o‘rganilmagan ko‘pgina qatlamlarini ochib berishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor bilan qarash”<sup>1</sup> davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Shu jihatdan, matnshunoslik sohasiga kirib kelgan lingvistik, falsafiy, badiiy talqin mezonlari, ayni chog‘da, germenevtika, sinergetika, semiotika kabi bir qancha yangi tadqiq metodlarining badiiy matn tadqiqida hal qiluvchi o‘rinni egallashiga olib keldi. Shu bois xalqimizning ko‘p asrlik madaniyati, milliy qadriyatlari bilan bog‘liq manbalarini matniy tadqiq etish, ulug‘ mutafakkirlarimiz va shoirlarimizning asarlarini bugungi kun o‘quvchisining ehtiyojlarini hisobga olib nashrini amalga oshirish, manbani matniy tadqiq qilish usullarining nazariy asoslari kabi masalalar va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilash muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu jihatdan o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalarini eski o‘zbek yozuvidan hozirgi alifboga o‘girish ishlarida zamonaviy matnshunoslikning ilmiy-nazariy muammolaridan sanalgan badiiy asar semiotikasi, sinergetik tahlil, germenevtik tahlil, matnni tiklashning “konyektura”, “gloss” va “interpolyatsiya”, statistik usullaridan foydalanish o‘zbek matnshunosligi oldidagi dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Shunga ko‘ra, Navoiy asarlari asosida matnni tadqiq etish usuli, tahlili va talqini masalasini o‘rganishga katta ehtiyoj bor.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2995-sonli qarori. “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”/ Xalq so‘zi. – 2017, 25-may.

Dunyo navoiyshunosligida Alisher Navoiy asarlari matnini o'rganishning usullari, tamoyillari va amaliy masalalari bo'yicha quyidagi natijalarga erishilgan: Alisher Navoiy asarlari misolida matnshunoslik va adabiy manbashunoslikning ilmiy-nazariy muammolari tahlilini berish (University of Leipzig, Humboldt University (Germaniya), Oxford University, Kembridj universiteti (Buyuk Britaniya), Tokiyo xorijiy tillar universiteti (Yaponiya); Moskva davlat universiteti, Osiyo va Afrika mamlakatlari instituti, Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya); Ozarbayjon Ilmlar akademiyasi Nizomiy nomidagi Til va adabiyot instituti, خاورشناس (Pokiston), shoir asarlari matnini joriy yozuvga o'girish tamoyillarini belgilash, shu asosda Navoiy asarlarining lotin yozuvidagi transliteratsiyasini amalga oshirishdagi amaliy yechimlarni ilmiy iste'molga olib kirishga doir ilmiy-nazariy xulosalar chiqarish (Ozarbayjon Ilmlar akademiyasi Nizomiy nomidagi Til va adabiyot instituti, Boku davlat universiteti (Ozarbayjon); Istanbul universiteti (Turkiya), Anqara universiteti (Turkiya), Afyon universiteti (Turkiya); Academy of Sciences of Afganistan Institute of Languages and Literature, Kobul universiteti, Balx universiteti (Afg'oniston)), Navoiy asarlari matnini tadqiq etish bo'yicha olib borilgan izlanishlar natijasida, qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: Navoiy asarlarining ayrimlari, xususan, "Hayrat ul-abror" asaridagi so'z va iboralarning qisman ma'no ko'lami, chastotalari aniqlangan (Istanbul universiteti, Turkiya)<sup>2</sup>; shoir asarlari matnining qiyosiy-tipologik tahliliga doir, xususan, "Munojot", "Chihil hadis" ("Arba'in"), "Nazm ul-javohir", "Siroj ul-muslimin" asarlari tadqiqot obyekti doirasiga kiritilgan (Anqara universiteti, Turkiya)<sup>3</sup>; Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" asaridagi "Favoyid ul-kibar" matni qayta nashr etilgan va unga qisman glossariylar berilib, asar g'azallarining vazn o'lchov birliklari aniqlangan (Anqara Universiteti, Turkiya)<sup>4</sup>; 2015-yilda Turkiyaning Anqara shahrida "Hayrat ul-abror" asari nashrlari matnshunoslik va adabiy manbashunoslik nuqtai nazaridan qiyosiy o'rganilib, uning 3987 baytdan iborat to'la matni chop etilgan<sup>5</sup>; Navoiy asarlari matnining badiiy tahliliga asoslangan (Boku davlat universiteti, Ozarbayjon)<sup>6</sup>; Alisher Navoiyning "Xamsa", "Xazoyin ul-maoniy", "Mahbub ul-qulub", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Majolis un-nafois", "Nasoyim ul-muhabbat" kabi

---

<sup>2</sup>Ali Şir Nevâyî. Hayretü'l-ebrar/ Hazırlayan: Prof. Dr. Tanju Oral Seyhan. – İstanbul, 2016. – S.725.

<sup>3</sup> Ali Şir Nevâyî. Münacât, Çihil hadis, (kırk hadis), Nazmü'l-Cevâhir, Kitâb-ı Sırâcü'l-Müslimîn/ Vahit Türk. – Ankara, 2017. – S.316.

<sup>4</sup> Ali Şir Nevâyî. Fevayidü'l-Kiber/ Hazırlayan: Önal Kaya. – Ankara, 1996. – S.743.

<sup>5</sup>Ali Şir Nevâyî. Hayretü'l-Ebrar/ Vahit Türk, Şaban Doğan. – Ankara, 2015. – S.328.

<sup>6</sup>Almaz Ülvi. Ədəbi duyğularım (portretlər, düşüncələr, qeydlər, söhbətlər) II kitab. – Bakı, "Nurlan", 2008. – S.426; Almaz Qasım qızı Binnətova (Almaz Ülvi). Azərbaycan – özbək (cığatay) ədəbi əlaqələri (dövrələr, simalar, janrlar, təmayüllər) – Bakı, "Qartal" nəşriyyatı, 2008. – S.326.

asarlarining badiiy va matniy xususiyatlari yoritilgan (Boku davlat universiteti, Ozarbayjon)<sup>7</sup>.

Navoiy asarlarini matnshunoslikning nazariy va amaliy muammolari kesimida o'rganish borasida salmoqli yutuqlarga erishilgan<sup>8</sup>. P.Shamsiyevning Alisher Navoiy "Xamsa"si, H.Sulaymonovning "Xazoyin ul-maoniy", S.G'aniyevaning "Majolis un-nafois", G'.Karimovning "Layli va Majnun", M.Hamidovanning "Saddi Iskandariy", Sh.Sharipovning "Lison ut-tayr", M.Rashidovanning "Nazm ul-javohir", Yu.Tursunovning "Munshaot", H.Islomiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarlari ustida olib borilgan tadqiqotlari buning dalilidir. Q.Munirov, M.Hakimov singari manbashunoslar Alisher Navoiy asarlarining mamlakatimiz fondlarida saqlanayotgan qo'lyozma va toshbosma manbalarini tavsiflash yuzasidan e'tiborga molik ishlarni amalga oshirdilar. Oxirgi yillarda bu yo'nalishda samarali tadqiqotlar yuzaga keldi. Masalan, keyingi yillarda o'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandalari asarlari matnining o'ziga xos tarzda o'rganilishi matniy tadqiq etish usullarining takomillashayotganidan dalolat beradi<sup>9</sup>. Ushbu tadqiqotlarda

<sup>7</sup>Əlişir Nəvai Azərbaycan ədəbiyyatşünaslığında (məqalələr, toplusu)/Топlayани, тәртіб едәни və nəşрә hazırlayanı: Almaz Ülvi. – Bakı, "Qartal", 2009. – S.360.

<sup>8</sup> Сулаймонов Х. Текстологическое исследование лирики Алишера Навои: дисс...докт. филол. наук. – Т.: ИЯЛАН РУз, 1961; Шамсиев П. Алишер Навоий "Сабаъи сайёр" достонининг илмий танкидий матни ва уни тузиш принциплари: филол. фан. номз. ... дисс. – Т.: ЎзР ФАТАИ, 1952; Семёнов А.А. Описание рукописей произведений Навои, хранящихся в Государственной публичной библиотеке УзССР. – Т., 1940; Алишер Навои. Возлюбленный сердце. Сводный текст подготовил Кононов А.Н. – М.–Л., 1948; Шамсиев П. Навоий асарлари матнларини ўрганишнинг баъзи масалалари: филол. фан. докт. ... дисс. – Т.: ЎзР ФА ТАИ, 1970; Шамсиев П. Ўзбек матншунослиги оид тадқиқотлар. – Т.: Фан, 1986; Алишер Навоий. "Мажолис ун-нафоис". Илмий-танкидий текст. Тузувчи: Ғаниева С. – Т., 1961; Алишер Навоий. "Лисон ут-тайр". Илмий-танкидий текст. Тузувчи: Эшонхўжаев Ш.– Т., 1964; Алишер Навоий. "Мезон ул-авзон". Илмий танкидий текст. Тузувчи: Султонов И. – Т., 1949; Ҳакимов М. Навоий асарлари қўлёмаларининг тавсифи. – Т.: Фан, 1983; Валихўжаев Б. Ўзбек эпик поэзияси тарихидан. – Т.: Фан, 1974; Ҳамидова М. Алишер Навоий. "Садди Искандарий" достонининг илмий-танкидий матни ва матний тадқиқи: филол. фан. докт. ... дис. – Т.: ЎзФАҚИ, 1994.

<sup>9</sup> Эркинов А. Навоий "Хамса"си талқини манбалари (XV–XX аср боши). – Т.: Тамаддун, 2018; Эркинов А. Матншунослик ва манбашунослик асослари. – Т.: ХИА, 2019; Сирожиддинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг қиёсий-типологик, текстологик таҳлили. –Тошкент, Академнашр, 2011; Сирожиддинов Ш. Матншунослик сабоқлари. – Т.: ТошДЎТАУ, 2019; Сирожиддинов Ш., Умарова С. Ўзбек матншунослиги кирралари. – Т.: Академнашр, 2015; Турсунов. Ю. "Муншаот" асарининг матний тадрижи. – Т.: Мумтоз сўз, 2016; Жабборов Н. Фурқат асарларининг қўлёмма манбалари: филол. фан. номз. ... дисс. – Т., 1994; Жўрақулов У. Алишер Навоий "Хамса"сида хронотоп поэтикаси: филол. фан. д-ри.... дисс. –Т.: ТошДЎТАУ, 2017; Зоҳидов Р. "Сабот ул-ожизин" асарининг манбалари, шарҳлари ва илмий-танкидий матнини комплекс ўрганиш муаммолари: филол.фан.д-ри...дисс.– Т.: ТошДЎТАУ, 2018; Пардаев Қ. Муқимий шеърятини: матн тарихи, таҳрири ва талқини. – Т.: Муҳаррир, 2019; Муллахўжаева К. Алишер Навоий ғазалиётида тасаввуфий тимсол ва бадий санъатлар уйғунлиги. – Т.: Академнашр, 2019; Шодмонов Н. "Шоҳиду-ликбол"нинг ўзбек бадий-тарихий насри таракқиётидаги ўрни, манбалари ва матний тадқиқи: филол. фан. докт. ... дисс. – Т.: ЎзМУ, 2009; Ўразбоев А. Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси: филол.фан.д-ри...дисс. – Т.: ТошДЎТАУ, 2018; Омонов Қ. Туркий расмий услубнинг юзага келиши ва такомилли (илк ва ўрта асрлар): филол.фан. д-ри...дисс. – Т.: ТДШИ,2016. Юсупова Д. Темурийлар давридаги арузга доир рисоаларнинг қиёсий таҳлили: филол.фан. д-ри.... дисс. – Т.: ТошДЎТАУ, 2019; Юсупова Д. Алишер Навоий "Хамса"сида мазмун ва ритмнинг бадий уйғунлиги. – Т.: Мумтоз сўз, 2011; Қуронбеков А. Алишер Навоийнинг "Хамса" достонларида рамз ва тимсоллар. –Т.: ТДШИ, 2015; Салоҳий Д. Алишер Навоий поэтик услубининг тадрижий такомилли (ғазаллар матнларининг қиёсий таҳлили асосида): филол. фан. докт. ... дисс. – Т.: ЎзРФА ТАИ, 2001; Жўраев Ҳ. Алишер Навоий лирикасида воқелик ва унинг поэтик талқинлари: филол. фан. докт. ... дисс. – Т.: ЎзРФА ТАИ, 2008; Исҳоқов Ё. Сўз санъати сирлари. – Т.:

ulug' shoir asarlari matnini tadqiq qilish usullari, tamoyillari va ularning amaliy masalalari qisman o'rganilgan.

Buyuk mutafakkir asarlarini nashr etish, ommalashtirish yo'nalishida ko'p xayrli ishlar qilindi. Avval 15 jildli, keyin 20 jildli nashrlari va nihoyat 10 jildli asarlari kirill va lotin yozuvida dunyo yuzini ko'rdi<sup>10</sup>. Biroq shu paytgacha o'sha nashrlardagi xato va kamchiliklar kompleks tahlil qilinmadi. Shuningdek, keyingi matniy tadqiq etish ishlari sifatini ko'tarishga ko'maklashuvchi yangicha mezonlar, tamoyil va usullar belgilanmadi.

Navoiy asarlarining joriy imlodagi o'g'irishda uchraydigan ko'plab arabiy, forsiy so'z va iboralar hamda kiritmalar nafaqat matnshunoslik, balki tilshunoslik nuqtai nazaridan ham tanqidiy o'rganilmagan. Oqibatda shoir asarlari matnidagi nuqsonlar, yo'l-yo'lakay e'lon qilingan maqolalar, davra suhbatlarini hisobga olmaganda, sobiq Ittifoq davrida ham, mustaqillik davrida ham bartaraf etilmay qoldi. Monografiyada Navoiy asarlari matnidagi so'zlar statistik usul vositasida mikrotahlil qilinib, ulug' shoir asarlari matnidagi nuqson va kamchiliklar ko'rsatilgan; glossning asosiy vazifalaridan biri matndagi tushunilishi qiyin, avval sharhlanmagan, shuningdek, hatto asar nashri bo'yicha tuzilgan keyingi lug'atlarda ham qayd etilmagan so'z va iboralarning matndagi o'rnini aniqlash va sharhlash hamda ularni matnga ilova qilishdan iboratdir. Ishda Navoiyning barcha asarlari matnidagi ana shunday tushunilishi qiyin, izohli lug'at va asarning keyingi mukammal nashriga to'liq ilova qilinmagan glosslar tahlil etilgan. Gloss yordamida aniqlangan so'z va iboralarning matniy ma'nolari belgilangan va izohlangan; asliyatning xattiy va ma'noviy xususiyatlarini to'liq anglagan, tasavvur qilgan holda adabiy manbani matniy tadqiq etish, uning nashrlaridagi nuqsonlarni to'g'ri tuzatish konyektura usuli vositasida amalga oshiriladi.

Monografiyada Alisher Navoiy adabiy merosi manbalari va matniy tadqiqi: matn tarixini o'rganish, matn tahriri, asar nashri varianti tahlilini tekshirish kabi masalalar o'rganilgan. Ularning nazariy-metodik tamoyillari matniy-qiyosiy jihatdan tadqiq etilgan.

---

Ўзбекистон, 2014; Содиков Қ. Матншunoslik ва манбашunoslik асослари. – Т.: ТДШИ, 2017; Жўрабоев О. Матннинг матности сирлари. – Т.: Тамаддун, 2017.

<sup>10</sup> Алишер Навоий. Асарлар. Ўн беш томлик. – Т.: 1963–1968; Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма жилдлик. – Т.: ФАН, 1987–2003; Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. Ўн жилдлик. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2013.

## ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSI MANBALARI VA MATNIY TADQIQI MUAMMOLARI

### Navoiy qo'lyozma manbalari va tabdili tahlili

O'zbek matnchiligida XV asr oxiri yoki XVI asr boshlarida kitobat qilingan adabiy manbalarni o'rganish, joriy imloga tabdil (transliteratsiya) qilish va ularni nashr qilish bilan bog'liq katta salmoqqa ega ilmiy hamda amaliy tajriba to'plangan. Xususan, Mir Alisher Navoiyning ulkan merosini tabdil qilish ustida olib borilgan amaliy harakatlar bir necha matnshunos olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Istiqlol sharofati bilan mumtoz yozuvimizda bitilgan shoir asarlari nafaqat kirill alifbosida, balki lotin yozuvida ham o'z ifodasini topayotir. Biroq bu nashrlarda, o'z navbatida, shu imkoniyatlarga muvofiq, professional bilim va ko'nikma yetishmasligi namoyon bo'layotganligi ham sir emas.

Avvalo, shu o'rinda, tabdil istilohiga sharh berib o'tish o'rinli. Tabdil «almashtirish», «o'girish» ma'nolarini anglatadi. Jahon matnshunosligida «transliteratsiya» deb ataluvchi bu termin tor ma'noda bir yozuvning ikkinchi bir yozuvga aynan o'zgartirilishiga aytiladi. Alibek Rustamov transliteratsiya va transkripsiya haqida gapirar ekan, shunday yozgan edi: «Bir yozuvdagi matnni ikkinchi bir amaldagi yozuvda ko'chirishni shartli ravishda hozirgi ilmda «transliteratsiya» (harf ko'chirish) deyiladi. Ammo bu terminning asosiy ilmiy ma'nosi bir yozuvdagi harflarni ikkinchi yozuvda aynan aks ettirishdir...»<sup>11</sup>. Tabdil (transliteratsiya) keng ma'noda eski alifboda bitilgan o'tmish bitiklarini joriy alifboda kitobxonlarga yetkazish usulidir. Bu sohaning nazariy masalalari bilan matnshunoslik shug'ullansa, uning amaliyoti bilan Alibek Rustamov ta'biri bilan aytganda «matnchilik» shug'ullanadi.

O'tmishda yaratilgan mumtoz asarlarni tabdil qilishda, eng avvalo, matnshunoslikning bosh mezonini bo'lgan ikki tamoyilga asoslaniladi: 1) ommaviy ehtiyojlar; 2) ilmiy manfaatlarga qaratilgan ijtimoiy talab. Ayni shu ma'noda, bu – tadqiqotchi yoki noshirdan mumtoz asarlarni ham shaklan ham mazmunan bugungi yosh avlod ruhoniyligi, talab-istaklari, saviyasiga mos ravishda hamda fan va texnika taraqqiyotining asosiy tamoyillari talablariga javob bera oladigan nashrlar tayyorlashni taqozo etadi.

Matnni tabdilga tayyorlash, birinchi navbatda, asarning qo'lyozma nusxalari ustida ishlash, uni to'g'ri o'qish, ayniqsa, badiiy matn salohiyatini anglash tadqiqotchidan keng qamrovli bilim talab qiladi. Xususan, matnshunos tadqiqotchi badiiy metod yoki ijodiy metod tamoyillarini to'laqonli anglamda matniy tadqiq etishi lozim<sup>12</sup>.

<sup>11</sup> Рустамов А. Матнчилигимиздаги нуқсонлар. ЎзАС, 1982 йил, 3 сентябр, № 36 (2672).

<sup>12</sup> Хайитметов А. Алишер Навоийнинг ижодий методи// Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1968. № 3. – Б.10.

Alisher Navoiy asarlari matnini mufassal o‘rganish usullari bundan ancha burun boshlangan. Shu paytgacha Navoiy asarlari matnini o‘rganishda o‘ziga xos matniy tadqiq etish usullaridan keng foydalanib kelinganligi tahsinga loyiq. Zero, ulug‘ shoir asarlarini matniy tadqiq etish usullari, eng avvalo, matnshunoslikning tadrijiy taraqqiyoti uchun ikki yo‘nalishda xizmat qiladi: 1) Navoiy asarlarining mukammal ilmiy-tanqidiy matnini tuzish va shu asosda to‘liq sharhlar bilan ta‘minlangan shoir asarlari ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlarini amalga oshirish uchun; 2) bu boradagi ilmiy tekshiruvlar shoir asarlari matnini o‘rganish yuzasidan olib boriladigan nazariy xarakterdagi ilmiy tadqiqotlar uchun ham asosiy omil vazifasini o‘taydi.

O‘zbek matnshunosligida adabiy manbalarni o‘rganish, joriy imloga tabdil (transliteratsiya) qilish va ularni nashr etish bilan bog‘liq katta salmoqqa ega ilmiy hamda amaliy tajriba to‘plangan. Xususan, Mir Alisher Navoiyning ulkan merosini tabdil qilish ustida olib borilgan amaliy harakatlar bir necha matnshunos olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Navoiy asarlari matnini ilmiy o‘rganishda amalga oshirilgan dastlabki tadqiqot ishlari, asosan, 1938-yildan boshlangan edi<sup>13</sup>. Ungacha faqat 1928-yili nashr etilgan «O‘zbek adabiyoti namunalari» to‘plamidan boshqa ko‘zga ko‘rinarli biror-bir tadqiqot ishi mavjud emas edi<sup>14</sup>. Dastlab Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligini keng nishonlash munosabati bilan «Xamsa»ning qisqartirilgan varianti tabdili, «Chor devon», «Muhokamat ul-lug‘atayn», «Mahbub ul-qulub» asarlari matni tabdili chop etildi.<sup>15</sup>

1938-yili Navoiy anjumanini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish munosabati bilan shoir asarlari matnini nashr etish, ya‘ni «Xamsa»ni nasriy ifoda, izoh va lug‘atlari bilan nashrga tayyorlash ishlari boshlandi. Navoiy yubileyini o‘tkazuvchi maxsus komissiyaning a‘zosi bo‘lgan akademik G‘afur G‘ulom tayyorgarlik ishlarida faol ishtirok etadi. U (1940-yil) «Farhod va Shirin» dostonini nasriy bayonlash usuli bilan lotin alifbosi asosidagi o‘zbek yozuvida nashrga tayyorlaydi. Bu haqda taniqli matnshunos olim Porso Shamsiyev shunday yozadi: «Bu tekstologik usul o‘sha davrda yangilik bo‘lib, u qabul qilgan prinsip asosida shoirning boshqa asarlari ham nasriy bayoni ilova qilingan holda nashrga tayyorlana boshlandi»<sup>16</sup>. Darhaqiqat, mumtoz matnni bunday o‘rganish usuli, ya‘ni dostonning zamonaviy nasrga o‘girilishi 20–30-yillar o‘zbek navoiyshunosligining o‘ziga xos yangi bir yo‘siniga aylandi<sup>17</sup>. Shoirning bu faoliyatini ayrim adabiyotshunos tadqiqotchilar shunday baholaydi: «G‘afur

<sup>13</sup> Шамсиев П. Навоий асарлари матнларини ўрганишнинг баъзи масалалари: филол. фан. докт. ... дисс. – Т.: ЎзРФА, 1969. – Б.1.

<sup>14</sup> O‘sha asar. – Б.2.

<sup>15</sup> Алишер Навоий: Адабиётлар кўрсаткичи. – Т., 1991.

<sup>16</sup> Shamsiyev P. O‘sha asar. – Б.5.

<sup>17</sup> Хайитметов А. Адабий меросимиз уфқлари. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – Б.53.

G‘ulomning «Farhod va Shirin» dostonini nashrga tayyorlaganligi, shubhasiz, o‘zbek tekstologiyasi faniga qo‘shilgan munosib hissa bo‘lib, bu fakt G‘afur G‘ulomni birinchi o‘zbek tekstolog olimlari qatoriga qo‘yadi»<sup>18</sup>.

Shoir asarlari tanqidiy matnini tayyorlashga kirishish 50-yillardan boshlandi. Masalan, Navoiyning «Holoti Sayyid Hasan Ardasher», «Holoti Pahlavon Muhammad» kabi asarlarining ilmiy-tanqidiy matni matnshunos M.Sale tomonidan tuzilib, nomzodlik dissertatsiyasi sifatida yoqlangan. Keyinchalik negadir bu tanqidiy matnlar yo‘qolgan<sup>19</sup>. Ya’ni, ular nashr etilmay qolgan edi. Ammo, o‘sha yillarda turkiyshunos olim A.N. Kononov «Mahbub ul-qulub»ning yig‘ma matnini tuzib, nashr ettirgan edi. Biroq bu tekstologik tadqiqot ham kamchiliklardan xoli emas edi<sup>20</sup>.

Shu tariqa sobiq Ittifoq davrida shoir qo‘lyozmalari ustida o‘tkazilgan paleografik va orxeografik tekshiruvlar natijasida matnlarni tabdil qilish ilk bora ilmiy asoslarga qurila boshladi.

Sharq qo‘lyozma matnlarini o‘rganish usulidagi originallik, ayniqsa, Navoiy asarlari matni bo‘yicha G‘.G‘ulom olib borgan tadqiqot ishlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Shoir erishgan bu yutuqlar nafaqat uning she’riy salohiyati bilan, balki o‘z davrida hamnafas bo‘lgan E.E.Bertel’s, V.V. Bartol’d, A.K.Borovkov, S.E.Malov, A.A.Semyonov, S.L.Volin, N.Yu.Yakubovskiy, H.Orasli, Sh.Abilov, A.Mirzayev kabi rus, ozarbayjon, turkman, tatar, tojik olimlarining navoiyshunoslikka bag‘ishlangan tadqiqot ishlaridan boxabar bo‘lganligi bilan ham xarakterlidir. Zero u, M. Nikitskiy, Oybek, Sadridin Ayniy, Izzat Sulton, Vohid Zohidov, Maqsud Shayxzoda, Vohid Abdullayev, Hodi Zaripov, Porso Shamsiyev, Hamid Sulaymonov, Aziz Qayumov, G‘ulom Karimov, Abduqodir Hayitmetov singari navoiyshunos olimlar bilan ishladi. Shuningdek, shoirga Navoiy asarlari matnini teran anglash va chuqur sharhlashda turkiy hamda eski o‘zbek yozuvining imloviy, xattiy xususiyatlarini bilish barobarida arab, fors tillarini talab darajasida puxta bilganligi ham qo‘l keldi. Zotan, mashhur adabiyotshunos olim Ozod Sharafiddinov G‘.G‘ulomning sharq adabiyoti va tillarini zukko bilimdoni ekanini quyidagicha ta’riflaydi:

- u 20-yillardayoq o‘zbek, ozarbayjon, tatar, fors adabiyotlarini puxta o‘zlashtirgan va bu adabiyot namoyandalarining asarlarini mukammal bilgan;

- arab, fors va turkiy tillardan ko‘pchiligini mukammal bilgan G‘.G‘ulom Sharq klassik asarlarini originalda o‘qib, ulardagi g‘oyaviy-badiiy boyliklardan

<sup>18</sup> Равшанов А. Гафур Гуломнинг адабиётшунослик фаолияти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1973, -№4. Б.28.

<sup>19</sup> Ҳайитметов А. Алишер Навоий асарларининг академик нашрини тайёрлаш ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1976. -№ 1. – Б.33.

<sup>20</sup> О‘sha joyda. – Б.33.

to‘la bahramand bo‘lgan<sup>21</sup>. Binobarin, Navoiy asarlarini matniy tadqiq etishning original usuli inkishofi G‘.G‘ulom shoirlik taxayyulotining kuchi hamda Sharq tillari va adabiyotining chuqur bilimdoni ekanligi bilan belgilanadi.

«Farhod va Shirin» dostoni Navoiyning mashhur dostonlaridan biri-dir. Ulug‘ mutafakkir ilgari surgan ilg‘or g‘oyalar bizning davrimizda yanada o‘z qadr-qimmatini topmoqda. Biroq uyg‘onish davri adabiyotining yirik namoyandasi bo‘lgan Shekspir asarlari matnini hozirgi ingliz kitobxonni to‘laqonli tushuna olmagan singari hozirda Navoiy asarlari matnini ham maxsus tayyorgarlikka ega bo‘lmagan oddiy kitobxonning o‘qib anglashi ba‘zi bir qiyinchiliklar tug‘dirishi tabiiy. Bunga sabab, birinchidan, oradagi qariyb olti asrlik davr bo‘lsa, ikkinchidan, Navoiy asarlari matnida hanuz tushunilishi qiyin, sharhlanmagan so‘z va iboralarning mavjudligidir<sup>22</sup>. Shu sababli, sohir so‘z san‘atkorining asarlarini hozirgi kitobxoniga tushunarli uslubda yetkazishga ehtiyoj seziladi.

Dostonni nasriy bayonlash usuli bilan o‘z davri adabiy tili va yozuviga tabdil qilgan birinchi kishi, aslida, XIX asrda yashab ijod qilgan adib Umar Boqiy sanaladi. Undan so‘ng yuqorida zikr etilganidek, 1940-yilda Navoiy tavalludiga besh yuz yil to‘lishi munosabati bilan akademik shoir bu dostonni nasrga o‘girib, asliyat matni bilan yonma-yon holda nashr ettiradi<sup>23</sup>. Albatta, asliyat o‘z zamonasining adabiy tilida aks etgan bo‘ladi<sup>24</sup>. Tabdil yoki nasriy bayon esa, bugungi kunning til xususiyati holatini aks ettiradi. Asliyat bugungi kun kitobxoniga to‘la tushunarli emas. Shu bois har qanday mumtoz nazmning nasriy bayoni juda katta tahsinga loyiq, biroq u hech qachon asliyat bilan tenglasha olmaydi. Shuning uchun ham, keyinchalik to‘la amalga oshirilgan «Xamsa» dostonining nasriy bayonlari, garchi asliyat o‘rnini bosa olmasada, uni hozirgi kun kitobxoniga yaqinlashtiradi, ma’naviy mulkimizga aylantiradi. «Navoiy dostonlari, shu jumladan, «Farhod va Shirin» ham shunday murakkab uslub bilan yozilgan bo‘lib, bunday misralarni, bu erdagi «marz», «kisvat», «xoro», «gurz», «falakvor», «davvor» kabi so‘zlarni hozirgi zamon o‘quvchilari tushunib olishi nihoyatda qiyin. «G‘afur G‘ulom bu dostonning matnini hozirgi o‘zbek tilida nasrda bayon qilib berishga ahd qildi... «Farhod va Shirin» dostonining G‘.G‘ulom tomonidan zamonaviy nasrga o‘girilishi 30-yillar o‘zbek adabiy hayotidagi katta hodisalardan biri bo‘ldi. O‘sha yillari bu tajriba asosida Navoiyning «Xamsa»sidagi boshqa dostonlari ham nasrga aylantirildi va ulug‘ shoir asarlari go‘yo yangidan kashf

<sup>21</sup> Шарафиддинов О. Биринчи мўъжиза. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. – Б.207.

<sup>22</sup> Навоий асарларида сўз ва иборалар. – Т.: Тафаккур бўстони, 2009. – Б.240.

<sup>23</sup> Жалилов Т. «Хамса» талқинлари. – Т.: ЎзССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти, 1960. – Б.31–32.

<sup>24</sup> Қаюмов А. Академик Фафур Фулом. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002. – Б.17.

etilganday, yangidan tavallud topganday bo‘ldi. Nasriy bayonchilik esa o‘zbek navoiyshunosligining yangi bir sohasi bo‘lib qoldi»<sup>25</sup>.

Professor A.Hayitmetovning mazkur fikrlarini rivojlantirib aytish mumkinki, bunda «G‘afur G‘ulom matn ma‘nosini bosh o‘ringa qo‘yadi: uning o‘quvchiga etib borishini ta‘minlamoq maqsadida qalam yurgizadi. Nasriy bayon shakl jihatidan latif, mazmun jihatidan aniq chiqqan»<sup>26</sup>.

Xamsachilik an‘anasiga binoan, dostonlardagi har bir bobning muqaddimasida shu bobga nasriy izoh beriladi. Shoir bunday izohlarni qisqa bayon qilib o‘tgan. A.Hayitmetov esa ko‘pgina boblarni asliyatdan qayta o‘giradi. Qiyoslang: «Bu iqbol varaqlarining muqobalasi va bu saodat tarh-larining mutorahasi va xayol bahrida maoniy tuhafi savdosi uchun masohat qilmoq va har fasona safinasin varaq-varaq, balki har tarix jungin safha-safha axtarib daryozada ajnosqa rad iligin urmoq va maoniy aqmishasi nafoyisin bu latofat hujlasi aroyisi uchun g‘ayb tujjoridin hayot naqdin berib savdo qilmoq va jon rishtasi va kiprik ignasi bila libosi namoyish va xil‘ati oroyish tikib bu abkor qadlarig‘a solib jilva bermak»<sup>27</sup>.

G‘.G‘ulom buni: «Bu dostonni yozishda qancha-qancha kitoblar o‘qilganin, qancha ta‘riflar ko‘rilganin aytib, shulardan to‘plangan injularni o‘quchi oldida jilva ko‘rguzmak», – deb ifoda etgan. A.Hayitmetov esa quyidagicha tabdil qilgan: «Bu iqbol varaqlarini taqqoslamoq, bu saodat tarhlari rejasini tuzmoq, xayol dengizida ma‘nolar tuhfasini xarid qilmoq uchun yo‘l bosib, har bir afsona majmuasini va tarix to‘plamini varaqma-varaq axtarib, xatoliklarini rad qilmoq, ma‘no nafosatlari mato‘ini g‘aybdan savdogarlardan hayotim naqdini berib, latofat uyining kelinchaklari uchun sotib olmoq va jon ipi va kiprik ignasi bilan namoyish va oro libosini tikib, bu bokiralar qadlariga solib jilvalantirmoq»<sup>28</sup>. Chunonchi, matnshunoslik nuqtai nazaridan olib qaraganda ham, mumtoz adabiyot matnlari aynan o‘zicha berilgani durust. Ammo bundan shoirning o‘z davri o‘quvchisiga aniq va tushunarli bo‘lishi uchun shunday yo‘l tutgan, degan xulosa chiqarish mumkin. Demak, shoir nigohidagi kuzatishlar, matniy tadqiq etish usullari o‘ziga xos qiziqarlidir. Bu masalada Navoiy shunday yozadi:

*Taxayyul aro barcha bir nav emas,*

*Hadisin ikki kishi birdek demas.*

Ya‘ni tasavvur qilishda hamma bir xil emas. Xuddi biror holatni bayonlashda ikki kishi birday fikr yurita olmagan singari.

Ayni shu ma‘noda G‘afur G‘ulom bunday o‘rinlarda so‘z kamu fikr keng bo‘lish usuliga asoslangan, deyish mumkin.

<sup>25</sup> Хайитметов А. Адабий меросимиз уфқлари. – Т.: Ўқитувчи, 1997. – Б.52–53.

<sup>26</sup> Қаюмов А. Академик Ғафур Ғулом. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002. – Б.17.

<sup>27</sup> Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин/Мукаммал асарлар тўплами. VIII жилд. – Т.: Фан, 1991. – Б. 41–42.

<sup>28</sup> Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин, насрий баён. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1989. – Б.369.

Atoqli shoir Gʻafur Gʻulomning mumtoz matnni oʻrganish usuli, yaʼni nazmni nasriy bayonlash usuli – mezonini hisobga olmaganda, oʻsha davrlarda bunda boshqa original, yuqori salohiyatli matnni oʻrganish usullari koʻzga tashlanmaydi. Pirovard natijada, sheʼriy matnni nasriy bayon etish usuli matnshunoslik sohasidagi uslubiy asoslardan biriga aylandi va, albatta, keyinchalik navoiyshunos olimlarimiz tomonidan nasriy bayonni qaytadan toʻldirib, nashrga tayyorlash ishlari keng yoʻlga qoʻyildi. Oʻsha davrlarda shoir asarlari qoʻlyozma matnlarini chuqur oʻrganish va ilmiy nashrlarini tayyorlash, masalasi ham koʻtarilgan<sup>29</sup>. Bu haqida yetuk navoiyshunos, matnshunos olim Porso Shamsiyev shunday yozadi: «Oʻzbekistonda ilmiy tekstologiya (matnshunoslik)ning rivojlanish tarixi oʻzbek xalqining ulugʻ shoiri Alisher Navoiy asarlarini nashr etishga kirishish ishlari bilan bogʻliq holda boshlanadi. Navoiy asarlarini bosmaga tayyorlash va nashr etish masalalarining jiddiy va qizgʻin tus olishi esa, 1938-yildan, yaʼni ulugʻ shoirning tugʻilganiga besh yuz yil toʻlish kunini nishonlashga hozirlik koʻrishdan boshlangan edi»<sup>30</sup>. Albatta, oʻsha davrlardan boshlab shoir asarlarining maqbul matnini yaratish bilan bir qatorda, matnni oʻquvchilarga yetkazish, matn tahriri, variantlilik, matnni oʻqish, konyektura kabi oʻzbek matnshunosligining nazariy va amaliy masalalariga ham keng oʻrin berila boshlagan. Bu hol Navoiyning eng muhim asarlari ilmiy-tanqidiy matnlarini yaratish uchun katta imkoniyat yaratadi<sup>31</sup>. Afsuski, bu ilmiy-tanqidiy matnlarning ayrimlari (masalan, 1944-yilda S.M.Mutallibov tomonidan tayyorlangan «Hayrat ul-abror»ning Gʻ.K.Karimov tomonidan tayyorlangan «Layli va Majnun»ning ilmiy-tanqidiy matnlari) qandaydir sabablarga koʻra nashr qilinmagan. Holbuki, matnshunos Porso Shamsiyevning fikricha, «bu matnlar Navoiy asarlarini tekstologik jihatdan oʻrganishda dastlabki qadam sifatida qaralishi mumkin»<sup>32</sup>. Shunday qilib, Navoiy asarlari ilmiy-tanqidiy matni ustida qilingan dastlabki tadqiqot ishlari natijasi oʻlaroq, 60–70-yillarga kelib, ularning tekstologik matn sifati yaxshilana borgan.

XX asrning 60-yillaridan boshlab navoiyshunoslik yanada sermahsul ishlarni amalga oshirdi. «Xamsa»ning mukammal matni tabdili (Porso Shamsiyev, 1960), «Xazoyin ul-maoniy»ning akademik tabdili nashri (Hamid Sulaymonov, 1959– 60) va Alisher Navoiy «Asarlar»i 15 jildligining eʼlon qilinishi navoiyshunoslikdagi

<sup>29</sup> Шамсиев П. Ўзбек матншунослигига оид тадқиқотлар. – Т.: Фан, 1986. – Б.9–43.

<sup>30</sup> Шамсиев П. Навоий асарлари матнларини ўрганишнинг баъзи масалалари: филол.фан.доктори...дис-я. – Т.: ЎзРФАТАИ, 1969. – Б. 3.

<sup>31</sup> Алишер Навоий. Возлюбленный сердце. Сводный текст подготовке А.Н. Кононов. –М – Л., 1948; Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. I ж. «Ғаройиб ус-сиғар»; II ж. «Наводир уш-шабоб»; III ж. «Бадоеъ ул-васат»; IV ж. «Фавойид ул-кибар». – Т.: 1959–1960: Алишер Навоий. «Сабъаи сайёр». Илмий-танқидий текст. Тузувчи. П. Шамсиев. – Т.: 1956 ва бошқ.

<sup>32</sup> Шамсиев П. Ўзбек матншунослигига оид тадқиқотлар. – Т.: Фан, 1986. – Б.22.

muhim voqealardan bo‘ldi. O‘tgan asrning 90-yillarigacha Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan tadqiqotlar ro‘yxatining o‘zi alohida bir kitobni tashkil qiladi. 1987–2003-yillar davomida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti hamda H.S.Sulaymonov nomidagi Qo‘lyozmalar instituti tomonidan Alisher Navoiyning kirill yozuviga qilingan tabdili 20 jildlik «Mukammal asarlar to‘plami» nomi ostida e‘lon qilindi<sup>33</sup>. Unga zamin bo‘lgan tadqiqotlar P.Shamsiyev, N.Mallayev, V.Zohidov, I.Sulton, H.Sulaymonov, A.Qayumov, S.G‘aniyeva, A.Rustamov, A.Hayitmetov, A.Abdug‘afurov, S.Erkinov, B.Valixo‘jayev, Yo.Ishoqov, N.Komilov, R.Vohidov, M.Hakimov, L.Zohidov kabi navoiyshunos olimlarning muayyan matnshunoslik ishlari bo‘lganini alohida ta’kidlash lozim. Shu bilan birga, kamtarin olim Porso Shamsiyev shoirning ulkan merosi kelajakda matnshunoslik nuqtai nazaridan, to‘liq, yanada chuqur o‘rganilishi zarurligi haqida o‘z doktorlik ishida shunday e’tirof etadi: «Biz umrimizning juda ko‘pgina qismini Navoiy asarlari matnlarini o‘rganish va ularni tiklashga sarf qildik. Ammo biz bu sohada oxirgi nuqta qo‘yildi, degan da’vodan yiroqdamiz. Navoiy asarlari matnlarini o‘rganish bu keyin ham yosh tekstolog olimlarimiz tomonidan katta g‘ayrat va zo‘r jiddiyat bilan olib borilishi kerak. Navoiy asarlarining mo‘‘tabar qo‘lyozmalari yana topilishi mumkin. Navoiyshunoslik fani yana yangi-yangi g‘alabalarni qo‘lga kiritishi mumkin. Biz mana shu kashfiyotlarni vujudga keltiruvchi yosh navoiyshunos avlodga katta g‘ayrat va matonat istaymiz va aminmizki kelajakda navoiyshunoslik fani, shu jumladan, Navoiy asarlarining matnshunoslik sohasi, sovet fanining boshqa tarmoqlari qatori, eng yuksak bosqichlarga ko‘tarilajak, bizlar boshlagan va yaratgan ilmiy-tanqidiy matnlardan ham yuksak darajadagi matnlar barpo etilajak»<sup>34</sup>.

XX asrning 50–60-yillarida «Hayrat ul-abror», «Navodir ush-shabob», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab‘ai sayyor», «Saddi Iskandariy», «Lison ut-tayr», «Mezon ul-avzon», «Majolis un-nafois» kabi asarlarning ilmiy-tanqidiy matnlari yaratildi<sup>35</sup>. Ayniqsa, «Xamsa»ning Porso Shamsiyev tomonidan yaratilgan ilmiy-tanqidiy matnlari Alisher Navoiy kuzatuvlari ostida mohir xattot Abduljamil va Sulton Ali Mashhadiy kabi kotiblar tomonidan yuqori saviyada

<sup>33</sup> Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. –Т.: Фан, 1987–2003.

<sup>34</sup> О‘sha asar. – Б.33.. – Б.89.

<sup>35</sup> Алишер Навоий. «Наводир уш-шабоб». Илмий-танқидий матн / Нашрга тайёрловчи: Ҳамид Сулаймонов. – Т., 1959, – Б. 781; Алишер Навоий». Хамса. Илмий-танқидий матн / Тузувчи: Порсо Шамсиев. – Т., 1959–1970; Алишер Навоий. «Лисон ут-тайр. Илмий-танқидий матн / Тузувчи: Ш.Эшонхўжаев. –Т., 1964; Алишер Навоий. «Мажолис ун-нафоис». Илмий-танқидий матн / Тузувчи: С.Ғаниева. –Т., 1961; Алишер Навоий. «Мезон ул-авзон». Илмий-танқидий матн / Тузувчи: Иззат Султонов. Масъул муҳаррир: М.Т. Ойбек. –Т., 1949. – Б.95.

ko'chirilgan nusxalari asosida tayyorlandi<sup>36</sup>. Shuningdek, Sh.Eshonxo'jayevning «Lison ut-tayr», L.Xalilovning «Tarixi muluki Ajam», S.G'aniyevaning «Majolis un-nafois» asari matni ustida olib borgan matnshunoslikka doir tadqiqot ishlari ham ana shunday ishlar sirasiga kirar edi. Bulardan tashqari, shoirning «Mezon ul-avzon» asari ilmiy-tanqidiy matni Muso Toshmuhammad Oybek tahriri ostida adabiyotshunos olim Izzat Sulton tomonidan tayyorlangan edi<sup>37</sup>. Ta'kidlanganidek, 50–60 yillarda bu jihatdan nihoyatda samarali ishlar amalga oshirilgan. Lekin bu ilmiy-tanqidiy matnlarning barchasi ham birdek mukammal emas edi. Masalan, «Saddi Iskandariy» dostonining ilmiy-tanqidiy matnini yaratgan yetuk matnshunos olim Porso Shamsiyevning yozishicha, tanqidiy matn olti qo'lyozmaning qiyosi asosida tuzilgan. Biroq matn uchun foydalanilgan Leningrad № 559-inventar raqamli qo'lyozmada «Saddi Iskandariy» dostoni matni mavjud bo'lmagan<sup>38</sup>. Keyinchalik manbashunos olim, filologiya fanlari nomzodi Mavjuda Hamidova Alisher Navoiy «Saddi Iskandariy» dostonining ilmiy-tanqidiy matni va matniy tahlili mavzusi bo'yicha filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya yoqlagan<sup>39</sup>. Shu yillarda Navoiy tilining izohli lug'ati yaratildi<sup>40</sup>. Albatta, bu – kishidan juda katta bilim, mas'uliyat va shijoat talab etadi. Zero, mumtoz adabiyot namunalari nashrlarini o'qib va uqib tushunish uchun to'liq izohli lug'atlarini yaratishga jiddiy ehtiyoj tug'ilgandi. Busiz nashrlar nafaqat ilmiy jamoatchilikning, balki oddiy kitobxonning ham ehtiyojlarini qondira olmaydi.

Bulardan tashqari, bu davrlarda shoir asarlarining ommaviy nashrlari ham amalga oshirila boshladi. Bunda E.E.Bertels, A.N.Kononov, A.K. Borovkov, M.A.Sale, H.Sulaymonov, P.Shamsiyev, S.Ibrohimov, I.Sultonov, Sh.Eshonxo'jayev, S.Tosheva, L.Xalilov singari matnshunos, adabiyotshunos olimlarning tayyorlagan ilmiy matnlari asos bo'ldi. Pirovard natijada, 1963-yili O'zR FA A.S.Pushkin nomidagi Til va adabiyot instituti navoiyshunoslikda erishgan ana shu matnshunoslik yutuqlari bazasida Mir Alisher Navoiyning «Asarlar»ini o'n besh jildlik nashrini tayyorlash ishlari boshlandi. Bu navoiyshunoslik tarixida Navoiy asarlarining qadim kulliyotlariga nisbatan ham eng to'liq majmuasi bo'lib, unda shoirning qariyb 30 asaridan 25 tasi ayrim o'rinlarda ba'zi qisqartirishlar bilan berilgan edi. Bu majmua 1965–1968-yillar bosmadan chiqdi<sup>41</sup>. Ushbu nashrlar Oybek, G'afur G'ulom, Vohid Zohidov, Aziz

<sup>36</sup> Шамсиев П. Ўзбек матншунослигига оид тадқиқотлар. – Т.: Фан, 1986. – Б.6–15.

<sup>37</sup> Алишер Навоий. «Мезон ул-авзон». Илмий-танқидий матн/Тузувчи: Иззат Султонов. Масъул муҳаррир: М.Т.Ойбек. –Т., 1949. – Б.93.

<sup>38</sup> Ҳамидова М. Алишер Навоий «Садди Искандарий» дostonининг илмий-танқидий матни ва матний тадқиқи: автореф. дисс... докт.филол.наук.–Т., 1994. – Б.8.

<sup>39</sup> О'sha joyda. – Б.48.

<sup>40</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изохли луғати. 4 жилдлик. –Т., 1983–1985.

<sup>41</sup> Алишер Навоий. Асарлар. 15 томлик. –Т., 1965–1968.

Qayumov, Hamid Sulaymon, Porso Shamsiyev, Hodi Zarif, Ramz Bobojon kabi taniqli olimlar va adiblarning tahrir hay'ati safida o'zaro hamkorliklari natijasida amalga oshirilgan bo'lib, keyinchalik shu asosda shoir asarlarining o'n tomligi rus tilida chop etiladi. Bu ishlar, birinchi navbatda, Navoiy adabiy merosini o'rganish va targ'ib etishda oldinga qo'yilgan katta qadamlar bo'ldi<sup>42</sup>. Navoiy «Xamsa»si tarkibiga kiruvchi besh doston 2006-yilda asl matni va mukammal nasriy bayoni bilan G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi tomonidan lotin yozuvida nashr etildi<sup>43</sup>.

Alisher Navoiy tavalludining 570 yilligi munosabati bilan shoir asarlarining 10 jildligi e'lon qilindi<sup>44</sup>. Shuningdek, «Xazoyin ul-maoniy» kulliyoti tarkibiga kiruvchi 4 devon ham nashrdan chiqdi<sup>45</sup>.

Taqdim qilinayotgan matn qanday maqsad bilan yoki qaysi toifaga mo'ljallanishidan qat'iy nazar, har bir qism nashri ilmiy asosga ega bo'lishi lozim. Shundagina uning mukammalligi ta'minlanadi. Afsuski, Navoiy asarlarining hozirgacha amalga oshirilgan nashrlariga qanchalik ko'p mehnat va ilmiy salohiyat bilan yondashilgan bo'lmasin, kamchilik va nuqsonlardan xoli emas.

Buning asosiy sabablaridan biri – shoir asarlari tabdilining puxta tayyorlanmaganligi va matnning izohli lug'ati to'liq emasligidadir. Binobarin, ularning badiiy qimmatini haqida qanchalik ko'p gapirilmasin, bu hol ularning mukammalligiga to'hanuz soya solib turibdi. Shuning uchun ham, ushbu o'rinda shoir qo'lyozmalarining o'rganilishi, tabdili, nashrlarining holati, sharh va izohlar bilan ta'minlanganlik darajasi, ularning saviyasi haqida to'xtalishi maqsadga muvofiq.

Har bir davrda adabiy jarayondagi katta evrilishlar shu soha bo'yicha dong taratgan tarixiy siymolar asarlarining keng jamoatchilikka ommalashishidan boshlanadi. Binobarin, sobiq Ittifoq davrida ham adabiyotshunoslikning yangi bir qirrasini – navoiyshunoslik katta adabiy yangilanishlarga sabab bo'ldi. Unda ilk navoiyshunoslar V.V.Bartold, E.E. Bertels, A.Semenov, I.YU.Krachkovskiy, A.N.Kononov, A.K. Borovkov, Oybek, G'afur G'ulom, S.Ayniy, Hamid Olimjon, ustoz navoiyshunoslar V.Abdullayev, Vohid Zohidov, Porso Shamsiyev, I.Sulton, H.Sulaymonov, A.Qayumov, A.Hayitmetov, S.G'aniyeva, B.Valixojayev, M.Hakimov, M.Hamidovalar bilan bir qatorda navoiyshunoslikning kenja avlodi I.Haqqulov, N.Jumaxoja, Sh.Sirojiddinov, S.Olimov, A.Erkinov, U.Jo'raqulov,

---

<sup>42</sup> Хайитметов А. Алишер Навоий асарларининг академик нашрини тайёрлаш ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. –Т., 1976. -№ 1. – Б.32.

<sup>43</sup> Алишер Навоий «Хамса». С.Айний томонидан қисқартириб нашрга тайёрланган.– Т.: Фафур Ғулум нашриёти, 2006.

<sup>44</sup> Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 10 жилдлик. –Т.: Фафур Ғулум нашриёти, 1987–2003.

<sup>45</sup> Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. Нашрга тайёрловчи О.Давлатов. Тошкент, Тамаддун, 2011.

D.Yusupova, D.Salohiy, K.Mullaxo‘jayeveva kabi olimlarning xizmatlari katta bo‘ldi. Bu borada, ayniqsa, shoir asarlari yuzasidan olib borilgan tekstologik tekshirishlar, tabdillarga bag‘ishlanga ommaviy va nazariy xarakterdagi monografik ishlarni bu sohadagi eng katta ilmiy yutuqlar, deb hisoblash mumkin.

Shuni ta’kidlash joizki, sovet davrida shoir asarlarining kommunistik tuzum senzurasida yaratilgan ommaviy nashrlari g‘oyaviy tahrir va mafkuraviy qisqartirish bilan nashr etilgan edi. Sho‘ro mafkurasi diniy mazmundagi matnlarning berilishiga yo‘l qo‘ymas, Alloh yoki Muhammad nomi uchragan har bir satr matndan olib tashlanar edi. Darhaqiqat, rus matnshunosi D.S.Lixachev to‘g‘ri ta’kidlaganidek, «Matnning g‘oyaviy tahrir»dan o‘tishi asarning stilistik jihatlari bilan bog‘liq bo‘lishi yoki bo‘lmasligi mumkin. Tahrir ba‘zan butun matn tarkibiga, ayrim hollarda uning alohida qismiga aloqador bo‘ladi. Yozma yodgorlikka butunlay teskari ma‘no yuklanishi, matnda u yoki bu xil «g‘oyaviy tozalash» o‘tkazilgan bo‘lishi mumkin. To‘hatto asarga unda mutlaqo bo‘lmagan g‘oya qo‘shilishi yoki matnda mavjud bo‘lgan g‘oya qisqartirilish «hollari uchraydi»<sup>46</sup>. Ommaviy nashrlarda asliyatga nisbatan katta farq va g‘oyaviy qisqartirishlar mavjud ekanligi haqida mutaxassislar, hattoki, o‘sha davrlardayoq e’tirof etishgan: «Ayni shu jihatdan, bu «O‘n besh tomlik», umuman, ommaviy xarakterdagi nashr bo‘lib, unda, xususan, shoirning o‘zbekcha devonlaridagi she‘rlar juda qisqartirib berilgan («G‘aroyib us-sig‘ar»dagi g‘azallarning o‘zidagina 290 tasi, «Navodir ush-shabob» dan esa 291 tasi tushirib qoldirilgan!) bo‘lib, ayrim asarlardan ba‘zi narsalargina ««Nasoyim ul-muhabbat», «Tarixi anbiyo va hukamo») keltirilgan edi. Shu sababdan ham bu nashr ilmiy talablarga javob berishdan ancha uzoq edi»<sup>47</sup>. Bulardan tashqari, filologiya fanlari doktori H.Sulaymonov, «Xazoyin ul-maoniy», «Devoni Foniy» asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlarini tuzishga kirishgan va bu ishlar yuzasidan bir qancha muhim tadbirlarni bajargan<sup>48</sup>. Afsuski, bu nashrlar mafkuraviy tazyiq ostida chop etilgan bo‘lib, undagi hamd va na’tlardan tashqari, shoirning ayrim asarlari jiddiy qisqarishga uchragan edi. Aniqroq aytganda, bu ishlar Navoiy asarlariga bepisandlikdan boshqa narsa emas edi. Shoirning diniy qarashlari mavjud bo‘lgan tazkiralari ustida tadqiqot olib borish qo‘llab-quvvatlanmadi. Shoirning «Xamsat ul-mutahayyirin», «Nasoyim ul-muhabbat» asarining esa, umuman ilmiy-tanqidiy matnlari yaratilmagan edi<sup>49</sup>.

<sup>46</sup> Лихачев Д.С. Текстология. – М.-Л.: Изд. АН СССР, 1962. – С.83–84.

<sup>47</sup> Хайитметов А. Алишер Навоий асарларининг академик нашрини тайёрлаш ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. –Т., 1976. -№ 1. – Б.32.

<sup>48</sup> Алишер Навоий. «Наводир уш-шабоб». Илмий-танқидий матн/Нашрга тайёрловчи: Ҳамид Сулаймонов. –Т., 1959. – Б.781.

<sup>49</sup> Ҳакимов М. Алишер Навоийнинг тўпловчилик фаолияти//Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 1978. -№ 1. – Б.31–37.

Mamlakatimiz mustaqilikka erishgach, diniy qadriyatlarga, otabobolarimizning merosiga munosabat tubdan o'zgardi. Ilgari mumtoz asarlarda «xudo», «payg'ambar» va ular bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi hamd, na't, munojotlar tushirib qoldirilgan bo'lsa, mustaqillikdan so'ng, ularni yozish, o'qish imkoniyatiga ega bo'ldik.

Yigirma jilddan iborat Navoiy «Mukammal asarlar to'plami»ning nashr etilishi, birinchi navbatda, Navoiyning boy adabiy, ilmiy merosini to'liq xalqqa yetkazishga imkon yaratdi. Ana shu majmua asosida yangi-yangi ilmiy tadqiqotlar yaratila boshlandi. Natijada, mustaqillik yillarida adabiyotshunoslik sohasining muhim bir qirradi – navoiyshunoslik keng miqyosda rivojlana boshladi. Shoir asarlari kirill alifbosiga o'girilishi bilan bir qatorda lotin yozuviga ham tabdil qilina boshladi va ularning ayrimlari mazkur yozuvda nashr ham ettirildi. Ayni paytda, bu sohada qilinadigan vazifalardan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Shoir asarlarining joriy lotin yozuviga qilingan tabdillari kirill yozuvidagining o'zi. Har bir yangi nashr oldingilaridan mukammal bo'lishi lozim. «Matnning aniqlik darajasi, kitobxon tomonidan tushunilish darajasi ijtimoiy masaladir, – deydi mashhur matnshunos olim S. Reyser. – Shu jihatdan matnshunosning xalq oldida katta mas'uliyati bor. Matnshunoslik masalalari bugun ijtimoiy-siyosiy masalaga aylanib bo'ldi»<sup>50</sup>. Tayanch matnlarni yaratmasdan turib, ilmiy tekshirishlar olib borish qiyin. Shuningdek, shoir asarlari hanuz to'la ma'noda izohlar bilan to'liq ta'minlamagan.

Akademik nashrning keyingi nashrlarida ma'nosi izohlanmagan ko'plab, arabcha va forsha kiritmalar mazmun-mohiyatini ochish, ularni ilmiy muomalaga kiritish xalqqa Navoiy dahosini tushuntirish, uning ulkan so'z san'atkori ekanini ko'rsatishni taqozo etadi.

Ma'lumki, Alisher Navoiy o'z ijodida uch til unsur (arab, fors, turkiy) laridan juda keng miqyosda foydalangan. Ehtimol shuning uchun ham shoir merosidagi ko'plab so'zlar to hanuz sharh-izohlar bilan to'la ta'minlanmagandir. Bu holat, eng avvalo, endi ilmga kirib kelayotgan yosh matnshunos va manbashunoslar uchun qiyinchilik tug'dirishi hech kimga sir emas. Hozirgi davrda ko'plab o'zbek adabiyoti namoyandalari qo'lyozmalarining nashrlari yoki ular haqidagi tadqiqot ishlarida juda ko'p nuqson va kamchiliklarning uchrashi shuning oqibati bo'lsa kerak. Bunday holatlarning oldini olish uchun akademik nashr ustida ishlayotgan matnshunoslar oldiga germenevtik izohlash talabini ham qo'yish maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lardi. Ayni ma'noda, shoirning «Mukammal asarlar to'plami»da uning ochqichi bo'lgan ANATILda qayd etilmagan, ma'nosi tushunilishi qiyin, notanish forsiy, arabiy va ular bilan bog'liq diniy-falsafiy,

<sup>50</sup> Рейсер С.А. Основы текстологии. Изд.2-е. Л., Просвещение,1978. – С.7.

so‘fiyona tushunchalarni ifodalovchi kiritmalarni izohlab chiqish to‘g‘ri ish bo‘lgan bo‘lardi. Ularni mazmun-mohiyatiga ko‘ra, quyidagicha tasniflab, guruhlarga ajratish mumkin: 1) Qur‘oni Karim oyatlari; 2) payg‘ambarlarimiz hadislar; 3) hikmatlar; 4) an‘anaviy duolar; 5) an‘anaviy sharaflash iboralari; 6) diniy kitob nomlari; 7) tasavvufiy kitob nomlari; 8) muallif ijodi; 9) so‘fiyona kalimalar; 10) pandu nasihatlar; 11) hamdu sano va munojotlar.

Xulosa qilib aytganda, Navoiy asarlarining hozirgi o‘zbek yozuvidagi nashrlarning ko‘payotgani xalqimizni Navoiy dahosi bilan tanishtirish, ulug‘ shoir g‘oya va intilishlarini targ‘ib etish nuqtai nazaridan tahsinga sazovordir. Ammo Navoiy asarlarining tabdili saviyasi haqida ancha yillardan beri davom etib kelayotgan bahs-munozaralar kelajakda shoir asarlarining qo‘lyozmalar asosida qayta tabdil qilinishi va unda ilgari yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko‘rishni navoiyshunoslik oldiga bosh vazifa qilib qo‘yadi. Bu yo‘nalishda tadqiqotlarni davom ettirish dolzarb masaladir.

### **Badiiy talqin: germeneytik yondashuv**

Navoiyshunoslikda badiiy matn talqini usuli va u bilan bog‘liq masalalar ko‘p olimlarning ishlari predmeti bo‘lgan<sup>51</sup>. Ammo hanuz shoir asarlari matnining tagma‘no qatlamlarini teran mushohada qilish va ochishda bir talay muammolar mavjud. Buning asosiy sabablaridan biri sobiq Ittifoq davrida mumtoz asarlar bo‘yicha amalga oshirilgan badiiy ijodga sinfiylik va partiyaviylik nuqtai nazaridan yondashilganligidadir. Mustaqillik davri o‘zbek matnshunosligida ontologik, gnoseologik qarashlar asosidagi dialektik hurfikrlilik mumtoz asarlarni matniy tadqiq etishda keng qamrovlilikni ta‘minlayotgani, u orqali matnni anglashga intilish tamoyillarining ustuvor ahamiyat kasb etayotganligini adabiyotshunos va matnshunos olimlar Sh.Yusupov va A.Rasulovning tadqiqotlari misolida ko‘rish mumkin<sup>52</sup>. Bu borada, ayniqsa, adabiyotshunos olim A.Rasulovning fikrlari e‘tirofqa loyiq: “O‘zbek adabiyotshunosligi manbashunoslik, matnshunoslik sohasida boy tajribaga ega. Bu – yozuvchilar asarlari akademik nashrini tayyorlashda qo‘l keladi. Ikkinchidan, matnshunoslik, manbashunoslik

<sup>51</sup> Шайхзода М. Ғазал мулкининг султони. VI жилдлик. IV ж. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972; Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т.: Фан, 1983; Қанонов А. Алишер Навоий. – Т.: Камалак, 1991; Ҳайитметов А. Навоийнинг ижодий методи. – Т.: Фан, 1963; Ҳайитметов А. Шарқ адабиётининг ижодий методи тарихидан. – Т.: Фан, 1970; Рустамов А. Навоийнинг бадий маҳорати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979; Эркинов А. Алишер Навоий “Хамса”си талқинининг XV–XIX аср манбалари: филол. фан. докт. ... дисс. – Т.: ЎзРФА, 1998; Салоҳиддинова Д. “Бадоеъ ул-бидоъ” девони ва бадий санъаткорлик масалалари: филол. фан. ном. ... дисс. – Т., 1993; Салоҳий, Д. Алишер Навоий поэтик услубининг тадрижий тақомили (ғазаллар матнларининг қиёсий таҳлили асосида): филол. фан. докт. ... дисс. – Т.: ЎзРФА ТАИ, 2001; Жўраев Ҳ. Алишер Навоий лирикасида воқелик ва унинг поэтик талқинлари: филол. фан. докт. ... дисс. – Т.: ЎзРФА ТАИ, 2008; К.Муллаҳўжаева. Алишер Навоий ғазалиётида тасаввуфий тимсол ва бадий санъатлар уйғунлиги (“Бадоеъ ул-бидоъ” девони асосида): филол. фан. номз....дисс. – Т., 2005.

<sup>52</sup> Юсупов Ш. Тарих ва адаб бўстони. – Т.: Маънавият, 2003. – Б. 166; Расулов А. Бадийлик – безавол ангиллик. – Т.: Шарқ, 2007. – Б. 93–100.

badiiy matn strukturasi bilan uzviy bog‘liq. Hozir badiiy asar strukturasi, semiotikasi bo‘yicha ba’zi ishlar amalga oshirilmoqda. Ularda matnning tagma’nosini tadqiq etishga harakat qilinmoqda. Lekin struktural talqin bilan shug‘ullanuvchilar badiiy asar uslubi masalasiga jiddiy e’tibor bermayaptilar”<sup>53</sup>. Bu fikr, ya’ni matnni tadqiq etishning badiiy tahlil usuli Navoiy asarlari bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadqiqot ishlariga ham tegishli.

Badiiy matn tahlili matnni sinchiklab o‘qish va uqish demakdir. Unda matnning tagma’no qatlamlarini ochish, matn mohiyatini chuqur anglab yetish, hatto matndagi har bir so‘z, har bir ibora ma’nolarining jilosi, rangi va badiiy tafakkuri o‘z adabiy yechimini topishi shart. Aks holda, badiiy matn tahlili konsepsiyasidagi ayrim masalalar o‘z yechimini topmay qolishi muqarrar. Zotan, bu masalaga adabiyotshunos olim Abdug‘afur Rasulovning quyidagi mulohazalari yanada aniqlik kiritadi: “V.Izerning ta’kidlashicha, adabiy matnda yashirin (implitsit) kitobxon faoliyat ko‘rsatadi. U hamisha real kitobxon bilan ro‘baro‘ keladi: asarning estetik boyligi imkoniyatini real kitobxonga yuqtiradi. Adabiy matndagi badiiylik qutbi o‘zgarmagan holda, estetik qutb – implitsitiv kitobxon real kitobxon ta’sirida o‘sib, o‘zgarib boradi – zamonning estetikma’naviy ehtiyojlariga yuz buradi. Shunday asarlar borki, kitobxon (tanqidchi)dagi estetik ehtiyoj boyib, ortib boravergan sayin matndagi zaxira qavatlar, imkoniyatlar o‘zini namoyon eta boradi. Buni V.Izer ma’nolar zich, tig‘izligining kontinuumi (qat-qatligi), deydi. Adabiy matn hech qachon bir yo‘nalishdagi axborot yoxud hujjat sifatida qabul qilinmaydi. U hamisha, har qachon ma’nolar ko‘p qavatligi, zichligi manbaidir. Badiiy matn talqin qilingan reallik ortida yuz ko‘rsatgan yana allaqanday tushunchalar, holatlardan xabardor qilishi joiz”<sup>54</sup>. Demak, matn ustida ish olib borayotgan tadqiqotchi matnni nafaqat aqliy bilimlari vositasida, balki bilvosita qalb bilan chuqur anglashi va uni o‘zida shakllantirishi maqsadga muvofiqdir.

Badiiy matnni o‘qish va uqish – badiiy asarni talqin qilish asosida shakllana boradi. Chunonchi, “talqin” “tahlil”dan ko‘ra keng qamrovli tushunchalarni aks ettiradi. Demak, badiiy matn tahlili badiiy asar talqini asosiga quriladi. Negaki, talqin umumiy xarakteri va falsafiy jihatlari bilan tahlil usulidan farqlanib turadi.

Badiiy matnni o‘qish holati oddiy kitobxon bilan matnshunos o‘rtasida kechadi: “V.Izerning “O‘qish holati” asarida badiiy matnning mutaxassis kitobxon (tanqidchi) va oddiy qabul qiluvchi tomonidan o‘zlashtirilishi masalasiga alohida e’tibor beriladi. Oddiy kitobxon asarni o‘zicha qabul qiladi, uning qarashi, tushunchasi o‘ziga xos bo‘ladi. Mutaxassis kitobxon – tanqidchi asarni o‘qir ekan,

<sup>53</sup> Расулов А. Концепция зарурати//Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Т., 2010. №49.

<sup>54</sup> Расулов А. Адабий танқиднинг таҳлил йўллари. – Т., 2003. – Б.4.

beixtiyor jamiyatning estetik qarashlarini singdirib yuboradi”<sup>55</sup>. Binobarin, Navoiy asarlarini matniy tadqiq etishda ham yangilanish holati kuzatilmoqda. Zero, shoir asarlari matni mustaqillikning estetik qarashlari zahirida o‘rganilmoqda. Negaki, Navoiyning ham ulug‘ maqsadi turkiy tilning kelajakdagi istiqboli, u tilda so‘zlashuvchi xalqlarning mustaqilligi edi: “...so‘z durredukim, aning daryosi ko‘nguldur va ko‘ngul mazharedurkim, jomi maoniyi juzv va kulldur. Andoqki, daryodin gavhar g‘avvos vositasi bila jilva namoyish qilur va aning qiymati javohirig‘a ko‘ra zohir bo‘lur. Ko‘ngulda dog‘i so‘z durri nutq sharafig‘a sohibi ixtisos (xos bo‘lish) vasila (yo‘l; sabab)si bila guzorish (bayon) va oroyish ko‘rguzur va aning qiymati fahm martabasi nisbatig‘a boqa intishor (yoyilish, tarqalish) va ishtihor (shuhrat) topar. Gavhar qiymatig‘a nechukki, marotib asru ko‘pdur, hattoki, bir diramdin yuz tumangacha desa bo‘lur”.

Yuqorida e‘tirof etilganidek, badiiy matn tahlil usullarining asosi – mikroanaliz imkoniyatlariga asoslanishdir. Mikroanaliz nafaqat matnni asliyat asosida qayta tiklash balki asar muallifi uslubini o‘rganish bilan ham xarakterlidir. Illo, “Uslub ijodiy metodning konkret va xilma-xil ko‘rinishi bo‘lib, davr va hayot xarakteri bilan yaqindan bog‘lanadi, uning xususiyatlarini yozuvchining shaxsiy temperamenti hayot tajribasi, milliy xususiyatlari, biror adabiy yo‘nalishga tamoyili va hokazolar orqali aks ettiradi”<sup>56</sup>.

Ko‘rinib turganidek, adabiyotshunos olim A.Hayitmetovning bu boradagi qarashlari ham bu holat izohiga mos keladi. Darhaqiqat, ulug‘ shoirning har bir bayti zahiridagi ma‘nolarni ochishda bir emas, bir necha navoiyshunos olimlarimiz zahmat chekishgan: “Qaro ko‘zum...” Navoiyning olimlar, shoirlar tomonidan eng ko‘p va xo‘b o‘rganilgan g‘azallaridan biridir. Ushbu g‘azal tahliliga oid Erkin Vohidov, Matyoqub Qo‘shjonov, Alibek Rustamov, Ismatulla Abdullayev, Najmiddin Komilov, Abdulla A‘zamov, Boybo‘ta Do‘stqorayev, Ismoil Bekjonov va kaminaning maqolalari e‘lon qilingan. G‘azalning o‘quv adabiyotlaridagi tahlillari ham mavjud bo‘lib, unda asarning to‘liq matni qamrab olingan. G‘azalning ayrim baytlari yoki ba‘zi xususiyatlarini tahlilga tortgan maqolalar ham bor<sup>57</sup>.

Shu o‘rinda shuni aytish joizki, har bir millat qadriyatlarining badiiy matnda ifoda topish yo‘sini, xalqaro nufuzi – xalqning muayyan axloqiy an‘anaviylik tamoyillariga rioya qilishi, bardavom axloqiy an‘anaviylik negizida timsollar yaratishi bilan belgilanadi. Zotan, u yoki bu millat shoirlarining badiiy uslubi, she‘riyatidagi poetik obraz, ramz va timsollarning jilosi diniy-axloqiy an‘anaviylik

<sup>55</sup> O‘sha kitob. – B.5.

<sup>56</sup> Хайитметов А. Табаррук излар изидан/Мақолалар тўплами. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – Б. 151.

<sup>57</sup> Нусратулло Жумахўжа. Машхур ғазал таҳлиллари тадқиқи //Шарқ юлдузи. – Т., 2016.-№ 3. –Б.130 –134.

zaminidan bahra olib, rivojlanadi. Diniy-axloqiy qarashlar zimnidagi an'anaviylik, bu – muayyan bir sohaning an'anaviy-axloqiy negiz aurasida kelajakda tadrijiy rivojlantirilishi, muvaffaqiyatli bardavomligi, yangi-yangi jihatlari inkishof etilishi zarur bo'lgan ruhoni-axloqiy hodisadir. Xususan, Navoiy nazmiyoti haqida so'z yuritganda bardavom an'anaviylikning mohiyatiga alohida e'tibor qaratmoq joiz.

Badiiy matnni tahlil qilishda *germenevtik talqin usullari* haqida so'z boshlar ekanmiz, adabiy germenevtikaning yirik namoyandalari sifatida D.B. Medison, G. Silverman, Y. Grondin va E. Tiseltonlar o'z ishlarida Gadamer g'oyalarini taraqqiy toptirib, asosan postmodernizm namunalarning matn xususiyatlarini o'rganganlarini qayd etish lozim. Bu boradagi tadqiqotlar Rossiyada M.M. Baxtin, D.S. Lixachev va V.V. Vinogradovlarning badiiy matnga oid ishlarida kuzatiladi. O'zbek adabiyotshunosligida Sh. Sirojiddinov, A. Erkinov, H. Boltaboyev, B. Karimov, D. Salohiy kabi olimlar germenevtik tadqiqotlar doirasini to'ldirishga intilganlar.

XIV asrda Yevropada tushuntirish, talqin san'atiga asoslangan adabiy germenevtika badiiy matnni tushunish jarayonini uning arxitektonik imkoniyatlari doirasida o'rganadigan fandır. "Arxitektonika" termini yunoncha arhitektonike "qurilish san'ati" ma'nosida qo'llanadi<sup>58</sup>. Bu uslub Yevropa matnshunosligi fani olamida yozuv yodgorlik matnini teran anglash, ularning matniy ma'nolariga chuqur yetib, tahlil etish usuli sifatida dong taratdi. Adabiy germenevtik tahlil usuli asosida ham Alisher Navoiyning asarlari tadqiq etilgan<sup>59</sup>. Germenevtik tahlilni o'zbek adabiyotshunosligiga olib kirgan adabiyotshunos olim Aftondil Erkinov bo'ldi. Mazkur matniy tadqiq etish usuli matnshunos olimlar tomonidan o'z davrida ham ijobiy baholandi. Keyinchalik ham badiiy asar matnini o'rganishda bu usuldan keng miqyosda foydalanildi. Hozirgi o'zbek matnshunosligida germenevtikaning muhim ahamiyat kasb etishi e'tirof etilmoqda. Bu usul ikki tushunchani o'zida mujassam etgan: 1) matn talqini nazariyasi va amaliyoti; 2) zamonaviy falsafadagi oqim. Demak, badiiy asarni matniy tadqiq etishning yana bir usuli germenevtika deb nomlangan. U yozuv yodgorliklar matnining tagma'nosini ochish usuli bo'lib, hozirgacha muayyan o'zgarishlar bilan yetib kelgan qadimgi matnlarning dastlabki ma'nosini qayta tiklashga qaratilgan bir ta'limot hisoblanadi. Shuningdek, u o'tmishda yaratilgan yozma yodgorliklarning haqiqiy, asl matnini tiklashga va uning mumtoz adabiyotimiz tarixidagi o'rni, ahamiyatini ko'rsatib berishga qaratilgan matniy tadqiqot usullari majmuini tashkil etadi. Bu soha tahlil yo'sinining asosiy nazariy tamoyillari quyidagilardan iborat: a)

<sup>58</sup> Тожибоев М., Юсупова Ш., Бўриева Э. Адабий герменеvtика ва мумтоз бадий тил. – Т.: Университет, 2013. – Б.13.

<sup>59</sup> Эрkinov А. Алишер Навоий "Хамса"си талқинининг XV–XIX аср манбалари: филол. фан. докт. ... дисс. – Т.: ЎзРФА, 1998.

umumiy kontekstual talqin tamoyillari; b) shu soha doirasiga kiruvchi talqin usullari; v) muallif nazarda tutgan aniq maqsad va mulohazalarga asoslangan holda matnning tarixiy-tadrijiy va ijtimoiy-siyosiy sharoitdagi hayoti, unda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlar va uning boshqa qo‘lyozma nusxalari tahlili; g) muallif mantiqiy fikr-mulohazalari ma’nolarini ochish; d) tahlilda muayyan matnning yuzaga kelishida bevosita yoki bilvosita ahamiyatga ega bo‘lgan pragmatik imkoniyatlarga ham asoslanish. Ya’ni qo‘lyozmaning yaratilish jarayoni, muallif shaxsiyati va ijodiyotiga doir biografik ma’lumotlar, asar muallifining uslubi kabi barcha masalalarga tayanishdir.

Yu.Borev kabi xorij matnshunos olimlarining ta’kidlashicha<sup>60</sup>, bu usul badiiy matn mazmunini to‘g‘ri idrok etishni o‘rgatuvchi amaliy san’at turi sifatida ham mutaxassislar e’tiborini qozongan. Darhaqiqat, germenevtikani filologik yo‘nalishda chuqur tadqiq etgan olmon olimi Fr. Shleyermaxer qarashlari bunga dalildir: “Искусство герменевтики состоит в следующем: необходимо исследователю к переводчику текста, чтобы постигнуть индивидуальность говорящего через сказанное им, чтобы через множество частных выразительных средств: особенности стиля, речи, построения фразы и построения всего произведения в целом – постигнуть целое выражения, стилистическое единство произведения а тем самым духовную индивидуальность его автора”<sup>61</sup>.

Hazrat Navoiy badiiy asarni, uning ma’no-mohiyatini tushunishni she’rshunoslik, deb atagan ekan. Biz ham shunga muvofiq ravishda she’rshunoslikni asar tilini tushunish, uning g‘oyasini anglab yetish, binobarin asar matni tahlili orqali talqin bilan amalga oshiriladigan germenevtik sharoit deb hisoblaymiz. Aftondil Erkinov shunday e’tirof etadi: “Bizningcha, germenevtika – talqin nazariyasi va ta’limotini o‘zbek adabiyotiga keng tatbiq etish davri kelgan. Aslida, har bir adabiyotshunos olim o‘z tadqiqotida asar matni talqini bilan shug‘ullanadi, qaysidir darajada germenevtika bilan munosabatga kirishadi. Biroq olimlarimiz interpretatsiya masalasida muayyan ishlarni amalga oshirgan bo‘lsalarda, bu atama va falsafiy ta’limot fanimiz uchun nisbatan yangilikdir. Germenevtika ta’limot sifatida G‘arbda shakllangan, biroq o‘zimizda matn talqinining o‘ndan ortiq yo‘nalishlari, jumladan, tafsir, ilmi hoshiya, sharh bitish, miniatyura... kabi talqin bilan bog‘liq mustaqil sohalar avvaldan mavjud bo‘lgan. Germenevtikani o‘zbek klassik adabiyotiga doir manbalarga tatbiq etish, uni zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligiga olib kirish lozim”<sup>62</sup>.

<sup>60</sup> Боров Ю.Б. Эстетика. – 4 изд., доп. – М.: Политиздат, 1988. – С. 498.

<sup>61</sup> O‘sha joyda.

<sup>62</sup> Эрkinov А. Алишер Навоий “Хамса”си талқини манбалари (XV–XX аср боши). – Т.: Тамаддун, 2018. – Б. 304.

Berilgan matnning badiiyligi, emotsionalligi, ta'sirchanligi, tasviriyligi ortida ijodkorning, u tegishli bo'lgan xalq va umuman insoniyatning fasohati, anglab yetilgan yoki anglab yetilmagan fasohati zamirida, minglab avlodlarning orzu-umidlari, tilaklari, estetik dunyosi, qalb manzaralari tasviri mujassam bo'ladi. Mana shularning hammasi germenevtikaning badiiy tilga asoslangan matn imkoniyatlari zamirida o'rin topadi"<sup>63</sup>. Buni "Favoyid ul-kibar"ning 343-g'azali sharhi misolida ko'rishimiz mumkin.

*Toza dog' atrofida jismimda tim-tim qon ko'rung,  
Dardu g'am tog'ida, vah-vah, lolai No'mon ko'rung.*

Ma'lumki, mumtoz adabiyotda *dog'* so'zi "kuyuk", "kuygan joy"; "qoralik"; "qizdirilgan temir bilan inson yoki hayvonlar tanasiga bosilgan belgi, "nishon", "naqsh", "iz", "jarohat" va "g'am-anduh", "qayg'u-alam" singari ma'nolarda keladi. *Tim* so'zi esa, "tomchi", "qatra"; "katta karvon saroy", "usti yopilgan bozor", "rasta"; "g'am", "anduh" singari ma'nolarda keladi. Baytda esa, *dog'* va *tim* so'zlarini badiiy ma'no olamidagi cheksizlik jarayoni sari qo'llanilgan tushunchalar deyish mumkin. Birinchi misra hasbi hol ruhida yozilgan bo'lib, mazmuni quyidagicha: jismimdagi yangi jarohat atrofida paydo bo'lgan qatra-qatra qonni ko'ring. Bu xuddi dardu g'am, ya'ni go'yo g'am tog'i tevaragidagi *lolai No'mon* (qizil lola)ga o'xshaydi. Matla'ning botiniy ma'nosi esa quyidagicha: chuqur qayg'ular bois ko'nglimda g'am-anduh usti yopiq bozordagi shovqin misoli harakatlanadi. Bu xuddi go'yo asrlar davomida shakllagan dardu g'am tog'ining oh nolalari tufayli unda paydo bo'lgan qizil lola a'moliga mengzashdir. Naqadar g'aroyib tashbih! Bu matla'da shoirning bag'oyat bir ichki sukuti hukm surib, bu tarz uning butun mazmun-mohiyatini, aniqrog'i, chin oshiqning botiniy ahvoli ruhiyasini yaqqol namoyon qiladi. Ammo ushbu baytda tajohul ul-orif san'ati qo'llanilganligini hisobga oladigan bo'lsak, uning zamirida yana bir boshqa ma'no ham borligi ma'lum bo'ladi. Atoullloh Husayniyning yozishicha: "*Tajohul ul-orif*" andin iboraturkim, so'zlaguchi bir nimani bilur, ammo bir nukta bila o'zni bilmagandek ko'rsatur "*Miftoh*" sohibi bu san'atni *suqu-ma'lum masoqa g'ayrih*, ya'ni ma'lum so'zni noma'lum o'rnida yurutmak deb ataptur va depturkim, men bu san'atni *tajohul* deb atamoqni sevmasmen, sabab uldurkim, Tengri taoloning kalominda voqe' bo'luptur, Alloh, toboraka taolo deptur: inna av iyyakum la'ala hudan av fi zalalin mubin, ya'ni haqiqatabiz yo siz har holda to'g'ri yo'ldamiz yo yo'ldan ochiq ozg'anmiz. Bu oyattag'i ma'lumni noma'lum yo'l bila ifoda etkan nukta kufr ahlig'a arz etilmishtur"<sup>64</sup>. Ya'ni, baytda *dog'* va *tim* so'zlari *lolai*

<sup>63</sup> Тожибоев М., Юсупова Ш., Бўриева Э. Адабий герменеvtика ва мумтоз бадий тил. – Т.: Университет, 2013. – Б.48.

<sup>64</sup> Хусайний А. Бадоеъ ус-саноеъ/Таржима, изоҳ ва шарҳлар муаллифи Алибек Рустамов.– Т.: Фафур Ғулом нашриёти, 1981. – Б.132.

No‘mon orqali o‘zaro bog‘lanadi. Mumtoz adabiyotda No‘mon turlicha talqin etilgan: masalan, arablardagi Toif shahri yaqinidagi daryoning nomi deb ham faraz qilingan. Lekin forsiy lug‘at manbalarga ko‘ra, No‘mon podshoh bo‘lib, u aslida tog‘dan lola keltirib, parvarish qilgani uchun unga *lolai No‘mon* degan nisbat berilgan<sup>65</sup>. Haqiqatan ham, o‘tmishda shunday nisbatli shaxs bo‘lgan. Tarixiy manbada qayd etilishicha, bu tarz shunday ramziy tus oladi: ajam mulkida Yazdijird Binni Bahrom degan bir zolim podshoh bo‘lib, u 8 yil deganda bir o‘g‘il farzand ko‘radi, lekin negadir o‘g‘lini o‘sha podshoh No‘mon binni Munzirga topshiradi. No‘mon uning o‘g‘lini, ya‘ni Bahromni xuddi tog‘ lolasi singari xushhavo yerlarda yaxshi tarbiya qilgan. Keyinchalik, aniqrog‘i, otasi vafotidan so‘ng, Bahrom No‘mon yordamida zolim otasi podshohligini qo‘lga kiritadi. U otasi buzgan ishlarni tuzadi va mamlakatda adolat o‘rnatadi...<sup>66</sup>. Shoir umidicha, Husayn Boyqaro ham go‘yo shunday yo‘l tutganda edi, balki uning mamlakati kelajagi ham ana o‘shanday toza buloq suvini ichib ungan tog‘ lolasidek qobil farzand qo‘liga o‘tgan bo‘lar edi. Ehtimolki shundandir, ulug‘ shoir ushbu g‘azalni bitayotganda uning taxayyuli bir muddat “Majolis un-nafois”ning 8-majlisida shoh va shoir Husayn Boyqaro g‘azallaridagi o‘zi sharhlagan bir bayt tahlili sari o‘rnlashgan bo‘lsa, ne ajab: “Manzurning labi tabassumini va o‘zini qonalg‘on dog‘ini g‘unchai xandon va *lolai No‘mong‘a* tashbih qilibdur va ma‘nisi she‘r sanoye‘idin “tajohul ul-orif” uslubida xush voqe‘ bo‘lubtur:

*Ayladi la‘li tabassum, g‘unchai xandon emas,  
Dog‘ini ko‘nglum qonatti, lolai No‘mon emas.*

Bu san‘at ishtirokidagi g‘azalning birinchi baytida hayrat izhor qilinsa, ikkinchi baytida madh mubolag‘asi, uchinchi baytida zam, ya‘ni jamlash yoki tashbih, to‘rtinchi baytida hamranglik yoki malomat va qolgan baytlarida ham ana shunday xususiyatlar ifodalanadi:

*Nafy qilg‘anlar qurug‘ jismim haloku za‘fini,  
Tang‘a ko‘nglumdin tiralgan har taraf paykon ko‘rung.*

Baytning qisqacha mazmuni: ey rad qiluvchilar ahli, agar qurigan jismimning zaiflashishi yoki fano bo‘lishini ko‘rmoqchi bo‘lsangiz har tarafdin tanamga tiralib turgan kamon o‘qlariga boqing.

*Xalq yig‘lab tufrog‘im boshida yuz hasrat bila,  
O‘qlarin har yon tanim omochida xandon ko‘rung.*

Baytning muxtasar mazmuni: xalq bu olamdan o‘tganidan so‘ng tuprog‘im boshida yuz hasrat bilan yig‘laydi. Aslida, ko‘ksim go‘yo azaldan o‘q otib mashq

<sup>65</sup> Фарҳанги забони тоҷикӣ (аз асри X то ибтидои асри XX) Ҷ.1. – М.: Советская энциклопедия, 1969. –С.603.

<sup>66</sup> Алишер Навоӣ. Тарихи мулуки аҷам/Муқаммал асарлар тўплами. – Т.: Фан, 2000. – Б.234–235.

qilish uchun bir nishon bo‘lganligini bilishgach, ya’ni har tarafdin ko‘ksimga yo‘naltirilgan o‘qlarni ko‘rishgach xandon otib kulishadi.

*G‘am tuni yummas ko‘zum davrinda kiprik xaylini*

*Saf chekib, ko‘zning qorarg‘an holig‘a hayron ko‘rung.*

Baytning umumiy ma‘nosi shunday badiiy tafakkurni taqozo qiladi: anduh tuni, ya’ni ko‘nglim o‘sha g‘amga botgan qorong‘u tunda go‘yo ko‘zim tevarigidagi mijgon guruhleri bu ahvolimdan ogohlighi bois mijja qoqmadim. Shunda ular, ya’ni kipriklar to‘dasi go‘yo askarlardek saf tortib, g‘amdan qorayib toraygan ko‘zimning bu mahzun holatiga lolu hayron boqishdi.

*Ishqin etkanlar havas, iynak bu tuhmatdan meni,*

*Bog‘lanib bo‘ynum fano bozorida, uryon ko‘rung.*

Bunda Navoiy shunday badiiy tafakkurni ilgari suradi: yor ishqini havas etganlar shu ishq bois, ya’ni zimmamdagi ana shu og‘ir savdo tufayli mening fano bozori ko‘yida ilojsiz, imkonsiz xoli qolganligimni ko‘rib taajjublandilar. Yoki: ma‘shuqa ishqini havas etganlar shu ishq bois, mening gardanim fano bozorida ilojsiz, imkonsiz yalang‘och qolganligini ko‘rib qattiq taajjublandilar.

*Charx bahri naqdini qilg‘an tamanno zarralar,*

*Mehr g‘avvosin bu igrim ichra sargardon ko‘rung.*

Baytning umumiy mazmuni: aslida, davron qimmatbaho xazinalarga to‘la dengiz ashyolarini orzu qilganligiga sabab zarralar – nurlardir. Agar ana shu nurlar dengizni yoritmaganida edi, kishilar bu go‘zallik sirlaridan voqif bo‘lmas edilar. Uni orzu qilishga hojat qolmas edi. Mehr g‘avvosi, ya’ni suv ichiga sho‘ng‘igan yoki balqigan quyoshning o‘zi esa, go‘yo hech narsadan bexabardek bu girdob ichida sarson-sargardon bo‘lib yurganini ko‘ring!

*O‘qlaridindur Navoiy jismi mehnat gulbuni,*

*Gullar iynak toza qonlig‘ dog‘idin har yon ko‘rung.*

Maqta‘ning qisqacha ma‘nosi: o‘sha o‘qlardan Navoiy jismi go‘yo dard gullariga aylandi. Buning bari, ya’ni shu umid gullarining unib-o‘sishi xuddi shunday bag‘oyat darajada pokiza qonlik sirli dog‘ tufaylidir.

Endilikda ilmiy tadqiqotlarda matn bilan ishlashda ko‘proq so‘zga e‘tibor berish, talqin qilish, sharhlash yetakchilik qila boshladiki, bu hol germenevtika o‘zbek mumtoz tanqidchilighi metodologiyasining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylanib borayotganligidan dalolat bermoqda<sup>67</sup>.

Yana bir misolga e‘tiborni qaratsak. Navoiyning aksariyat g‘azallari teran falsafiy-fikr mushohadalarga boy bo‘lib, talqin kitobxonning didi va saviyasiga bog‘liq. “G‘aroyib us-sig‘ar”ning 115-g‘azali talqini:

<sup>67</sup>Адабий танкид: янгиланиш жараёнлари – Адабий танқиднинг методологик асослари.  
<http://www.textology.ru>

To‘qqiz baytdan tarkib topgan bu g‘azalni g‘oyalar bayoni, mazmun-mundarijasi mutanosibliji jihatidan, ayniqsa, zohiriy ma’nosiga ko‘ra pandnoma ruhida yozilgan, deyishga to‘g‘ri kelsa-da, g‘azalda so‘z komil inson axloqi borasida borayotganligidan ham ko‘z yumib bo‘lmaydi. Aniqroq aytganda, g‘azalning ma’naviy latofati ko‘ngil tarbiyasiga qaratilgan ochorli va ilohiy, ya’ni Haq nuri bilan muzayyan – ziynatlangan fikrlarda aniq-tiniq ko‘rinadi. G‘azalning zohiriy ma’nolar olamidani shu holat ham anglashiladiki, shoir o‘zining bu – mahorat maktabi orqali har qanday xudbin, johil, xasis, haris, nafs girdobiga muhtalo bo‘lgan insonlarni qayta tarbiyalashga kamarbasta bo‘layotgani ham aniq sezilib turadi. Chunki bu – ijtimoiy hayot taqozosi bilan yuzaga kelgan. Illo, shoir jamiyatdagi bunday holatlarni, ya’ni o‘zidagi axloqiy qusurni hech bir vaqt ilg‘ay olmaydigan, bir-biriga ikki tomchi suvdek qismatdosh ayrim kimsalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri pand berish befoydaligini ich-ichidan chuqur idrok etgan:

*Sen o‘z xulqungni tuzgil, bo‘lma el axloqidin xursand,  
Kishiga chun kishi farzandi hargiz bo‘lmadi farzand.*

Shoir bu baytda ramziy ifoda usuli vositasida kishi asrandi bir bolaga qanchalik mehr-muhabbat, boringki, borini bermasin, bir kun emas, bir kun kelib u asl o‘zligini namoyon etadi, degan g‘oyani ilgari suradi. Shu tufayli shoir nihoyasiz iztirob bilan achchiq haqiqatni shunday talqin etadi: hech qachon kishi farzandi kishiga farzand bo‘lmagani kabi birovning go‘zal xulqi ham boshqa birovning xulqiga zeb bo‘la olmaydi: axir, u har na bo‘lganda ham birovning dardi, birovning xulqi-da?! Bas, ey banda, sen bundan buncha masrurlanmagin-da, yaxshisi, tez o‘zingning yaxshi, pokiza xulqingni tuzishga kirishgil, aks holda kech bo‘ladi, deydi. Albatta, ushbu bayt zamirida so‘fiyona majoziy ma’nolar ham bor. Shu bois bu yerda tavriya (“lug‘atta bir nimani berkitib, o‘zgasin ko‘rsatmakdur va atash vajhi zohirdur”) ma’naviy san’ati qo‘llanilgan, deb faraz qilsak, u holda bunda ushbu ma’no-mazmun ham bor: insondagi azaliy-ilohiy jasorat faqat o‘z xulqini tarbiyat etishida namoyon bo‘lmaydi. Axir, bu ham xudbinlikning bir ko‘rinishi emasmi? Aftidan, bu yerda shoirning o‘z davridagi ayrim so‘finamo kishilarga majoziy bir zardasi ham yo‘q emas. Shoir fikricha, ilohiy jasoratning avvali, Tangri taolo suygan har bir insonni sevish, hech vaqt uning muammolariga befarq bo‘lmaslik va ularning quvonchidan mudom shodlanishdir.

*Zamon ahlidin uz payvand, agar desang birov birla  
Qilay payvand bore, qilmag‘il noahl ila payvand.*

Ya’ni: “Ey inson, zamon ahlidan kim bilandir oshno tutinishni ixtiyor etsang, bu yo‘lda aslo noahl kishi bilan aloqa qilma”.

Bu o‘rinda “aloqa”, “munosabat”; “mehr-muhabbat”; “vasl” ma’nolaridagi *payvand* so‘zi uch marotaba qo‘llanilib, tajnis, yo ishtiyoq yo shibhi ishtiyoq

badiiy san'atlarini hosil qilgan, deyish mumkin. Zero, bunday deyishimizga sabab shuki, "Badoye' us-sanoye'" asarining muallifi Atoullloh Husayniy bu haqda shunday yozadi: "...Ajam shuarosi nazdida andin iboratturkim, sadrda, ya'ni birinchi misra boshida, birinchi misra hashvida, ya'ni o'rtasida bir lafzni keltirurlar va yana o'shul lafzni o'shul ma'noda bayt oxirida zikr qilurlar yoki oralarida yo tajnis, yo ishtiyoq yo shibh-i ishtiyoq bo'lg'an ikki lafzning birin birinchi misraning sadri yo hashvida keltirurlar, ikkinchisin esa ajzda – bayt oxirida". Demak, unga asosan, baytda shibh-i ishtiyoq san'atining ikkinchi turi qo'llanilgan.

Bu baytni yana quyidagicha sharhlash ham mumkin: "ey solik – so'fiylik ixtiyor qilgan ogoh musofir, ko'ngilni xilvatga olish fursati yetdi, ya'ni bu yo'lda nafaqat noahil kishilar bilan, balki zamon ahlidan aloqani uzib, yolg'iz yor – Tangri vasliga intil!"

*Ko'ngul komini qo'y, gar xud mening devona ko'nglumni  
Toparsen o'yla yuz parkandu sol har itga bir parkand.*

Bu yerda yana o'sha ilohiy ishqqa muhtalo ko'ngilning dunyo hoyu havaslariga moyil emasligi haqida so'z ketmoqda. Albatta, bunda, aniqrog'i, baytning birinchi misrasida shoirning holati ruhiyasi mujassam. Uni quyidagicha talqin qilish mumkin: "Agar menda yo dunyo moliga havas, yo ko'nglimda kimgadir poklikni ko'z-ko'z qilishga bir orzumandlik uyg'ongan bo'lsa, unda mening yolg'iz bu devona ko'nglimni yuz bo'lakka nimtalangan holda topasan, o'shanda hech ikkilanmasdan bu nimtalangan ko'ngil parchalarini har bir itga bittadan taqsimlab bera qol".

*Eshitmay xalq pandin, turfakim pand elga ham dersen,  
Qila olsang, eshitgil pand, sen kim, elga bermak pand.*

Bu o'rinda shoir so'z amal daraxtining ilohiy mevasi ekanligiga sirli ishora qiladi. Darhaqiqat, Jaloliddin Rumi ham so'zga shunday tavsif beradi: "har narsaning asli – so'z... So'z amal daraxtining mevasidir". Zotan, mutafakkir nazdida, har bir inson kishiga pand-nasihat berishdan avval o'z so'ziga o'zi qat'iy amal qilishi lozimligi haqida ham chuqur o'ylasin, ya'ni o'zining kimligini anglasin va xalq pandini eshitmay turib ham ulusga pand-nasihat qilish joiz yoki nojoizligi borasida mulohaza yuritsin, degan poetik g'oyani ilgari suradi. Bu yerda ham g'azalning ikkinchi baytidagi singari shibh-i ishtiyoq san'ati qo'llanilgan. Bu – baytda *pand* so'zining uch marotaba, xuddi shu tarzda kelganligi bilan izohlanadi.

*Bu foniyy dayr aro gar shohlig' istar esang, bo'lg'il  
Gadolig' nonig'a xursandu bo'lma shahg'a hojatmand.*

Ya'ni bu o'tkinchi dunyoda mabodo kishida shohlikka yoxud mol-dunyo yig'ishga rag'bat uyg'onsa, u bu orzuyiga erishgani ma'qul – toki undagi bu kuchli

havas hech qachon nadomatga aylanmasin. Lekin buning aksi bo‘lib chiqsa, kishi gadoligiga ham masrur bo‘lib, shohga hojatmand bo‘lmasin.

*Bo‘lub nafsingg‘a tobi‘, band etarsen tushsa dushmanni,  
Senga yo‘q nafsdek dushman, qila olsang ani qil band.*

Ulug‘ shoir nazarida nafsiga tobe inson ko‘pincha yo‘lida uchragan har bir kishini o‘ziga dushman deb biladi. Ulardan gumonsiraydi va eng qizig‘i shundaki, boz ustiga ularni mahv etishga tushadi. Chunki bunday nafs bandalari o‘z odatini tark etishi amri mahol. Binobarin, inson ma‘naviyatsiz bo‘lsa, nafs tezda uning ruhiyatini zanjirband etishi muqarrar. Shoir bunday kimsalarga shunday pand-nasihat beradi: “Ey inson, aslida, senga o‘z nafsingdan ko‘ra yomonroq dushman yo‘q. Agar qurbing yetsa, u seni asir etmasdan burun sen uni band et. Ana shunda shoyadki, sen ham ruhiy ozodlikka musharraf bo‘lursan”, deydi. Bunda Navoiyning bani bashar avlodini birgalikda nafsni mahv etishga, ya‘ni nafsni mujohida – tizginlashga chorlovi bor. Ushbu satrlar so‘ngidagi botiniy ma‘nolarga ko‘ra esa, shoir komil inson nafaqat hech bir vaqt o‘z holatidan qoniqish hosil qilmasligi kerak, balki mudom o‘zini Tangri oldida gunohkor his etib, nafs jilovini hech mahal qo‘ldan boy bermasligi ayni zaruratdir.

*Shakarlablar tabassum qilg‘anin ko‘rgach ko‘ngul berma  
Ki, bedillarni achchig‘ yig‘latur oxir bu shakkarxand.*

Ya‘ni: “Gar shirinsuxan kishilarning chiroyli tabassumini ko‘rsang, ularga uchib, birdan ko‘ngil bermagin. Zero, bu soxtakor noz-karashmali chehralar, axir, qanchadan-qancha bedillarni achchiq-achchiq yig‘latmagan”. Ushbu baytning ikkinchi misrasidagi bedil so‘ziga e‘tibor qiling. Bu so‘z baytda “ko‘ngilsiz”; “bemajol”; “mahliyo”; “qayg‘uli”; “qayg‘u alamli lirik ma‘shuqa”, “oshiq” singari ma‘nolarni ifodalab kelgan. Zotan, bu bayt zamirida ham majoziy ma‘nolar mujassam.

*Jahon lazzotini shirin ko‘rarsen, lek bandingdur,  
Giriftor o‘lma, voqif bo‘lki, qaydu qand erur monand.*

Bu yerda shoir bundan oldingi baytdagi poetik tafakkurni yanada kuchaytirib, davom ettiradi: “Ey inson, dunyoning totli ne‘matlarini shirin jon qadar yaxshi ko‘rasan. Agar bilsang, aslida, sen ularning bandi – asirisan. Unga haddan ziyoda maftun bo‘lma, ogoh bo‘l – u xuddi shirinlik kabi o‘ziga tortadi”. Shoirning bu fikrlari shunchaki bir badiiyat majburiyati talabidan kelib chiqib, qog‘ozga tushirilmagan, albatta. Aslida, bu xususiyatlar shoir shaxsiyatida mujassam edi. U holda ulug‘ shoir boshqa bir o‘rinda bunday demagan bo‘lur edi:

*Ko‘zung fikri bila tan xilvatida notavon ko‘nglum,  
Riyozat aynidindur kunda bir bodom ila gone‘.*

Baytda qo'llanilgan "notavon ko'ngul", "riyozat ayni" va "bodom" – tasavvufiy ramzlarga ishora. Notavon ko'ngul – notinch, betoqat, bechora ko'ngil, doimo yor vasliga mushtoq bo'lgan ko'ngil. Riyozat ayni – riyozat nazari, ishq tufayli chekilgan riyozat. Bodom – qanoat timsoli. Ushbu baytning ikkinchi misrasidagi *bodom* timsoliga e'tibor qiling. Zero, shoir haq yo'lida chin riyozat chekuvchi banda, bir kunda bir dona bodom yemoq bilan kifoyalanadi, deydi.

*Ko'nguldin jahl ranji dofii gar istasang bordur,*

*Navoiy bog'i nazmi shakkaristonida ul gulqand.*

Shoir nazdida, kimsaning ko'nglida nomavzun sifatlar – jahl, jaholat, nodonlik, soxtalik, g'aflat kurtak ochgan bo'lsa, uni daf qilishning iloji bor. Bu – she'riyatdir. She'riyat bo'lganda ham Navoiyning shirindan-shakar she'riyat bog'iki, uning o'rtasida bir gulqand (qizil gul yaprog'i bilan shakarni aralashtirib oftobda tayyorlanadigan bir xil shirinlik) bor. Lekin unga yetishish ham ko'p oson ish emas. Zero, kishi bu yo'lda duch keladigan har qanday mashaqqatga bardosh berib, riyozat chekishga tayyor bo'lishi zarur. Ko'rinadiki, bu satrlar zamiridagi botiniy ma'nolar shu gulqand so'zi zamirida tajassum topgan. Chunki Navoiy bu yerda o'quvchining diqqat-e'tiborini tabiiy ravishda tayyorlanadigan gulqand xususiyatiga qaratadi. Shoir fikricha, inson bag'ir qoni go'yo gulqand singari shaffof-qizil bo'ladi. Naqadar g'aroyib tashbih: agar inson ko'ngli ham go'yo gulqand singari tabiiy ma'nolar quyoshi nuriga belansa, uning ko'ngli ham orifning hassos ko'ngliga aylanishi tayin. Uning ko'ngil ruhi esa mudom ma'nolar quyoshi nuriga ehtiyoj sezib yashaydi.

Umuman, g'azal botinan ramz va majoziy ma'nolarga boyligi, zohiran esa ulkan badiiy va g'oyatda benazir pand-nasihat kasb etganligi bilan ulug' shoir g'azaliyotida muhim o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, Navoiy asarlari matnini tadqiq etish, uning nazm-nasr tarzida yozilgan manbalar ekanligiga binoan, nazmiy va nasriy asarlar matnini o'rganishga qo'yilgan talablar asosida kompleks tekshirilishni taqozo qiladi. Germenevtik talqin ulug' shoir asarlari matnining badiiy, ilmiy, tarixiy mavzudagi barcha asarlari uchun ham joriy qilinishi maqsadga muvofiqdir. Bu bilan Navoiy asarlari matni taraqqiyotining o'ziga xos yo'lini aniqlashga harakat qilinadi. Bu tahlil matnshunoslik tadrijiy taraqqiyoti uchun ikki yo'nalishda xizmat qiladi: a) Navoiy asarlarining mukammal ilmiy-tanqidiy matnini yaratish va shu asosda to'liq izoh-sharhlar bilan ta'minlangan shoir asarlari ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlarini amalga oshirish uchun; b) bu boradagi ilmiy tekshiruvlar shoir asarlari matnini o'rganish yuzasidan olib boriladigan nazariy xarakterdagi ilmiy tadqiqotlar uchun ham asosiy omil vazifasini bajaradi.

## Matniy tadqiq etishning gloss usullari

O‘zbek matnshunosligi va adabiy manbashunosligining qadim sarchashmalari uzoq davrlarga borib taqaladi. Dastlabki bosqichi eramizdan avvalgi VI–VII asrlarga to‘g‘ri keladi<sup>68</sup>. Ammo o‘zbek matnshunosligida temuriylar davri adabiy manbalari, tadrijan – ham miqdor, ham sifat jihatidan, mumtoz matniy taraqqiyotning eng yuqori bosqichi mahsuli hisoblanadi. “Temuriylar davri o‘zbek matnshunosligi haqida so‘z ketar ekan, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning xizmatlari haqida to‘xtalmaslikning hech iloji yo‘q. Uning xatga, xattotlik ishiga bo‘lgan qarashlari o‘zbek matnshunosligi tarixini yoritishda muhim o‘rin tutadi. G‘iyosiddin binni Humomiddin Xondamirning “Makorim ul-axloq” kitobida yozilishicha, Alisher Navoiy davlat va o‘z ijodiy ishlari bilan nihoyatda band bo‘lishiga qaramay, butun bo‘sh vaqtini “kitob iboratlarini tuzatish, ma’nolarini tekshirish, dalillar bilan isbot etish”ga sarflagan”<sup>69</sup>. Shuni alohida aytish joizki, turkiy matnshunoslik ilmining oltin davri Alisher Navoiy qo‘liga qalam olgan davrga to‘g‘ri keladi. Binobarin, shoirning:

*Orazin yopqach ko ‘zumdin sochilur har lahza yosh,  
O‘ylakim paydo bo ‘lur yulduz, nihon bo ‘lg‘ach quyosh, –*

matla’ini tinglagan benazir turkiyzabon shoir Lutfiyning, lozim bo‘lsa, ushbu baytga o‘n ikki ming misramni almashtirgan bo‘lur edim, degan shoirona hayrati buning tasdig‘idir. Ayni shu ma’noda, bu davrda turkiy tilda o‘ta mukammal badiiy matn yaratildi, deyishga asos bor. Ulug‘ shoir asarlari matnining tadqiq etilishiga ham xuddi shu fikrni aytish mumkin. Chunki Navoiy asarlari matni, aniqrog‘i, she’riy matnlari bo‘yicha ilk ilmiy matnshunoslik ilmi, ya’ni matn tahririni uning do‘sti Sulton Husayn Boyqaroning o‘zi boshlab bergan edi. U bir she’rida:

*Balog‘at kishvarining nuktadoni,  
Fasohat mulkining sohibqironi, –*

deya Navoiy ijodiyotini to‘plab, devon tartib berishni buyurgan edi. Shu bilan birga, bu davrda matnni sharhlashning usullari, ayniqsa, she’riy matnni tavsiflash usullari ham yuksak darajada o‘z tadrijini topa boshlagan edi. Bu holat Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois” asarida mujassam. Zero, ushbu tazkirada zamona shoirlari yaratgan har bir she’riy matn uslubiga alohida-alohida sharh yozilib, ularning muallifi uslubiga ham to‘laqonli munosib baho berilgan edi. Binobarin, milliy matnshunosligimiz ilmining tarixan uzviyligini barqarorlashtirish, uni keng miqyosda shakllantirish va zamon talablari darajasida yanada yuksaltirish uchun Navoiy asarlari matnini yangicha usullarda matniy tadqiq etish muhim ilmiy

<sup>68</sup> Сирожиддинов Ш., Умарова С. Ўзбек матншунослиги қирралари. – Т.: “Академнашр”, 2015. – Б. 28.

<sup>69</sup> О‘sha asar. – Б. 38.

ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, ulug‘ shoir asarlarining matniy xususiyatlari, ya’ni ulardagi matniy tahlil bilan bog‘liq barcha masalalar to hanuz to‘la-to‘kis o‘z matniy tadqiqini topgan emas<sup>70</sup>.

Albatta, Navoiy matnshunosligi XX asrda ham, bugungi davrda ham, shubhasiz, salmoqli yutuqlarni qo‘lga kiritib bormoqda. Jumladan, G‘afur G‘ulom, Porso Shamsiyev, G‘ulom Karimov, Hamid Sulaymonov, Aziz Qayumov, Suyima G‘aniyeva singari yetuk matnshunos, ustoz olimlar boshlab bergan ishlar bugun yanada yuksakroq saviyada davom ettirilmoqda. “Xamsa”, “Majolis un-nafois”, “Mahbub ul-qulub”, “Mezon ul-avzon” kabi benazir asarlarning ilmiy-tanqidiy matni yaratilgani bugun ilm rivojiga katta hissa qo‘shayotir. Oxirgi yillarda A.Erkinov tomonidan Navoiy muxlislari tomonidan tuzilgan ikkinchi devonning topilishi ham “Ilk devon” qatorida Navoiy davrida yozilgan kamyob nusxa sifatida Navoiy asarlarining keyingi nashrlarida manba sifatida qaralishi lozim<sup>71</sup>. Navoiyshunoslikda erishilgan bu yutuqlar keyingi davrda “Nazm ul-javohir”, “Munshaot”, “Nasoyim ul-muhabbat” asarlari misolida davom etayotganligi quvonarli hol<sup>72</sup>. Ayniqsa, bu asarlarning matnshunoslik aspektida tadqiq qilinganligi, asarlar matnining ilmiy sharh-izohlar bilan nashr etilayotganligi bu sohada so‘nggi yillarda qo‘lga kiritilgan salmoqli yutuqlardandir. Matnshunos olimlar M.Rashidova, B. Rajabova, Yu.Tursunov va H.Islomiyning bu ishlari faqat muayyan asarlarning teran o‘rganilgani bilangina emas, balki matnshunoslikning bir qancha nazariy-uslubiy masalalarining hal etilgani bilan ham ahamiyatlidir. Oxirgi yillarda qo‘lyozma matn ustida ishlash tamoyillari, matn tarixi, xususan, adabiy manbalarning o‘ziga xos xususiyatlari singari matniy muammolarning ham nazariy, ham amaliy asosda o‘rganilganligi fikrimizning yorqin dalilidir. Shuningdek, matn tarixi keyingi nashr vazifalaridan mustaqil ravishda o‘rganiladi. Matn tarixidan nafaqat nashr qilish uchun, balki adabiy tahlil uchun, tarixchilar tomonidan manbalarni tahlil qilish, ijodiy jarayonni qayta tiklash va boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin.

Matn tarixi to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita ma’lumotlar asosida o‘rnatiladi. Matnning izchilligini tushunishga imkon beradigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’lumotlar – qo‘lyozmalardagi sanalar, imzolar, mualliflar va olimlarning qo‘lyozmalardagi boshqa ko‘rsatkichlari, harflar, kundaliklar, xotiralardagi ko‘rsatmalar hisoblanadi. Agar bosma matnlarning tarixi o‘rganilayotgan bo‘lsa, nashrlarning chiqish

<sup>70</sup> Раҳмон В. Адабий идрок тантанаси//Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Т., 1998. № 4, 23 январ; Раҳмон В. Матншunoslik: тажриба, интуиция ва масъулият//Ёшлик. – Т., 2015. № 2. – Б.38 – 42.

<sup>71</sup> Ali Shir Nava’i. Divan of the Aq Qoyunlu admirers. Ed.by Aftandil Erkinov.ILC AA,2015.

<sup>72</sup> Рашидова М. Алишер Навоий. “Назм ул-жавохир” асарининг матний тадқиқи: филол. фан. номзоди... дисс. – Т.: ЎзФА Тил ва адабиёт институти, 1991. – Б. 222; Турсунов Ю. “Муншаот” асарининг матний тадқиқи. – Т.: Мумтоз сўз, 2016; Алишер Навоий. “Насойим ул-муҳаббат”. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Ислоний Х. . – Т.: Мовароуннахр, 2017.

ma'lumotlari, senzura ruxsat berish sanalari, nashr, bosib chiqarish, senzura, tahrir hujjatlari va boshqalar mavjud bo'ladi. Ushbu ma'lumotlarning barchasi zamonaviy matnlarini o'rganayotgan matnshunos olimlar tomonidan keng qo'llaniladi. Ushbu ma'lumotlardan foydalanish maxsus nazariyani talab qilmaydi. Ushbu ma'lumotlarni qidirish imkoniyatiga ega bo'lish juda muhim, ammo arxeografiya, bibliografiya nazariyasi va boshqa adabiy va tarixiy fanlar ushbu turdagi qidiruv texnikasi masalalari bilan shug'ullanadi.

Bunday ma'lumotlar bo'lmagan taqdirda matn tarixini aniqlash ancha qiyin – bilvosita ma'lumotlarga asoslanib: nomuvofiqliklar, xatolar tahlili, matndagi ongli o'zgarishlarni o'rganish, qo'lyozmalarning o'zini o'rganish, konyunkturalarni o'rnatish, qo'shimchalar yoki kamchiliklarni aniqlash asosida, lug'atlar va interpolyatsiyalar, nusxalari va asl nusxalari, taqlid va namuna, tarjima manbalarini yaratish va boshqalar vositasida o'rganiladi.

Tabiiyki, bilvosita ma'lumotlarga asoslangan matn tarixini o'rganish to'g'ridan-to'g'ri ma'lumotlar kam uchraydigan sohada – qadimgi matnlarni o'rganish bilan shug'ullanadigan matn tadqiqotlarida juda rivojlangan. Shuning uchun, birinchi navbatda, qadimiy adabiyotni o'rganish tajribasiga tayanishda davom etamiz. Biroq bu tajriba yangi matnlarni o'rganishda ham foydali bo'lishi mumkin. Matn tarixi bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri ma'lumotlar bilvosita ma'lumotlardan foydalanish zarurligini istisno etmaydi. Ikkinchisi nafaqat to'g'ridan-to'g'ri ma'lumotlarni tekshirish uchun (ikkinchisi noto'g'ri bo'lishi mumkin), balki to'g'ridan-to'g'ri ma'lumotlar asosida tiklanayotgan matn tarixini aniqlashtirish, ushbu tarixni har xil detallashtirish, matn tarixini tushuntirish va uni konkretlashtirish uchun zarurdir. Yangi matnlarni o'rganish bilan shug'ullanadigan matnshunos olimlar matn tarixini qayta tiklash uchun bilvosita ma'lumotlardan foydalanish metodologiyasida ko'p ish qildilar.

Ma'lumki, shu paytgacha matnshunoslik istilohi o'zida, asosan, ikki tushunchani mujassam etar edi: birinchidan, muayyan matnning asliyat asosida ilmiy-tanqidiy matnini tuzish, ikkinchidan, esa muayyan matnni mikroanaliz va makroanaliz usullari yordamida ilmiy tadqiq etish. Aslida, matnshunoslik til va adabiyot bilimlarining o'zaro uyg'unlashuvidan tarkib topgan sohadir. Albatta, bu borada ham o'zbek matnshunosligida ham qisman matnni ham mikroanaliz, ham makroanaliz nuqtai nazaridan tadqiq etish yo'lga qo'yilgan. Ammo hozirgi dunyo matnshunosligi matnni til tarixi sohasi bilan bog'liq holda o'rganish borasida ancha ilgarilab ketgan<sup>73</sup>. Biroq, matnni zamon talablari darajasida, ayniqsa, nazariy jihatdan o'rganish borasida o'zbek adabiy manbashunosligi va matnshunosligi hali

---

<sup>73</sup> Жабборов Н. Матншунослик давр талаблари даражасидами?//Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Т., 2010. № 27.

hamon yuqori natijalarga erishganicha yo‘q. Zero, bu sohada ayrim matnshunos olimlarning “Matnshunoslik oldida yechimini kutayotgan dolzarb muammolar nimalarda ko‘rinadi? Birinchidan, dunyoda fanning bu jabhasi zamon talablari darajasida rivojlanayotgan bugungi kunda biz hanuz matnshunoslikning sistemali yaxlit nazariyasini ishlab chiqq olganimiz yo‘q”<sup>74</sup>, – degan fikr-mulohazasi ham fikrimizning yorqin isbotidir. Darhaqiqat, hozirgi matnshunoslikda matnni zamon talablari darajasida tadqiq etish muhim ilmiy-nazariy muammolardan biri sifatida tan olinib, “matn tarixi”, “variantlilik”, “matn tahriri”, “gloss”, “interpolyatsiya”, “konyektura”, “senzura va avtotsenzura”, “matnni tadqiq etish usullari”, “badiiy asar strukturasi”, “badiiy asar semiotikasi”, deb nomlanayotgan sohalarda matn, uning turli tomonlari, matn bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy-nazariy masalalar tekshirilib, ularga muhim ilmiy tadqiqotlar obyekti sifatida qaralmoqda<sup>75</sup>. Zero, matn tahriridan maqsad yozma yodgorlikning g‘oyaviy mazmuni, badiiy shakli, uslubi, to‘liqligini o‘zgartirish, undan ma‘lum faktik ma‘lumotlarni yo‘q qilish yoki ularni o‘zgartirish bo‘lishi mumkin. Qo‘lyozmani qayta ishlashdan maqsad uni u yoki bu foydalanishga moslashtirish (masalan, jurnal talablariga moslash, senzura va boshqalar) bo‘lishi mumkin, qo‘lyozma janrini o‘zgartirish, mafkuraviy mazmunini o‘zgartirish, uni bolalar o‘qishiga moslashtirish va hokazo ham bo‘lishi mumkin. Agar qayta ishlash yo‘nalishsiz o‘zgarishlarning natijasi bo‘lsa (masalan, matnning bir qismini yo‘qotish yoki ma‘lum bir muhitda bir qator olimlar tomonidan uzoq yozishmalar paytida qo‘lyozma tilining asta-sekin o‘zgarishi natijasida), yangi nashr haqida gapirish mumkin emas.

Matn o‘zgarishlarining miqdoriy ko‘rsatkichlari (tafovutlarning ko‘pligi) har doim ham yangi nashr paydo bo‘lishining ko‘rsatkichlari hisoblanmaydi. Masalan, yozma yodgorlikda matnning butun yarmi yo‘qolishi mumkin. Qolgan yarmi mustaqil ravishda ko‘chirilishi yoki chop etilishi mumkin, ammo muallif, muharrir yoki ijodkor uni butun asar sifatida to‘liq berishni va shunga mos ravishda matnni yakunlashni xohlamaguncha, asarning yangi varianti haqida gapirishi mumkin emas; bizda faqat oldingi versiyaning nuqsonli matni bor.

Shu bilan birga, matn miqdoriy jihatdan juda oz, ammo uning ma‘nosi uchun sezilarli darajada o‘zgartirilgan holatlar mavjud: bu holda bizda yangi nashr bo‘ladi.

Boshqa hollarda, mafkuraviy va stilistik nashrlarni ajratish mumkin, ammo aksariyat nashrlar ularning kompilyatorlar<sup>76</sup>ining murakkab, “jiddiy” g‘oyalariga mos keladi.

---

<sup>74</sup> O‘sha yerda. – T., 2010. № 27.

<sup>75</sup> Расулов А. Концепция зарурати/Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Т., 2010. № 49.

<sup>76</sup> Murakkab dasturdir, dasturlash tilida yozilgan barcha kodlarni birdaniga obyektli kodga o‘zgartirib beradi.

Tahririyat kengashi bitta vazifaga yoki g'oya bilan birlashtirilgan vazifalar guruhiga bo'ysungan hollarda, tahririyat kengashi ushbu asosiy xususiyatga ko'ra nomlanishi kerak. Agar asar tahririyati u paydo bo'lgan ma'lum bir muhitning manfaatlarini aks ettirsa, nom ushbu muhitga muvofiq beriladi.

Faqat tahrirni tayyorlashning vazifalari va holatlari qiyin yoki aniq belgilanmagan hollarda, miqdoriy yoki tartibli (batafsil nashr, qisqa, qisqartirilgan, birinchi, ikkinchi, oxirgi va boshqa tarzdagi) nomlarga murojaat qilish kerak. Bunday nomlar matn tarixini aniqlash uchun tugallanmagan ishlarning ko'rsatkichlari bo'lishi mumkin. Darvoqe, asarning yangi nashrini tayyorlash motivlari juda murakkab bo'lgan va matn jiddiy tahrir qilingan hollarda (bunday holatlar ayniqsa yangi adabiyotlar tahririda tez-tez uchraydi), nashrlarning tartib nomlari yagona mumkin bo'lgan holat hisoblanadi.

Shunday ekan, adabiy manbani matniy tadqiq etish usullari an'anaviy matnshunoslikning turli xil usul va metodlardan keng foydalanishi tabiiy. Binobarin, jahon matnshunosligida matn va uning turlarini o'rganish usuli keyingi qirq-ellik yil ichida shakllanib taraqqiy etdi. Bugungi kunga kelib matnni o'rganishning o'nlab usullari, metodlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular matn tabdilida ham muhim o'rin tutadi<sup>77</sup>. O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab, xalqaro miqyosda matnni konyektura, gloss va statistik tadqiq usullari yordamida tahlil etish ham keng qo'llab-quvvatlanmoqda<sup>78</sup>. Shunga qaramasdan, bu borada o'zbek matnshunosligida hali aytilmagan gaplar ko'p. Buni mumtoz adabiyot namunalari hozirgi yozuvga o'girish ishlariga, tabdil masalalariga tekstologik tadqiqot sifatida qaramaslik tendensiyasida ko'rish mumkin. Holbuki, mashhur matnshunos D.Lixachevning iborasi bilan aytganda "Nashr turi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, ilmiy-ommabopmi yoki mutaxassislariga mo'ljallanganmi, har bir nashr ilmiy bo'lishi shart, ya'ni nashr ilmiy tekstologik tadqiqqa asoslangan bo'lishi kerak"<sup>79</sup>. Ayni ma'noda, eng birinchi navbatda, Navoiy asarlari matnini matniy tadqiq etishda konyektura, gloss, statistik kabi muayyan metodlar nazariy

---

<sup>77</sup> Бертельс Е.Э. Вопросы методики подготовки критических изданий классических памятников литератур народов Ближнего и Среднего Востока.-В. кн.: Первая Всесоюзная конференция востоковедов. Тезисы докладов и сообщений. – Т., 1957. – С. 13; Бертельс Е.Э. К вопросу о филологической основе изучения восточных рукописей// Советское востоковедение. – М.,1955.№3. – С.184; Лихачев Д.С. Некоторые новые принципы в методике текстологических исследований древнерусских литературных памятников. – Известия АСССР ОЛЯ, 1955.г. XIV, Вып. 5. – С.35, 477; Лихачев Д.С. По поводу статьи В.А. Черныха о развитии методов передачи текста. Исторический архив. 1956. №3, – С.508; Йўлдошев Б. Матнни ўрганиш лингвистик методлари. – Самарқанд: СамДУ. 2008 – Б. 90; Зубдату-г-таворих [Text]: тарихлар сараси /М.Р. Огахий (Эрниёзбек ўғли); нашрга тайёр., сўз боши, изоҳ ва кўрсат. муаллифи Н.Жабборов. Масъул муҳаррир Р.Зоҳидов. – Т.: О'zbekiston,, 2009. – Б.240; Сирожидинов Ш. Алишер Навоий: манбаларнинг киёсий-типология, текстология таҳлили. – Т.: Akadernashr, 2011. – Б. 326.

<sup>78</sup> Сирожидинов Ш., Умарова С. Ўзбек матншunosлиги кирралари. – Т.: "Akadernashr", 2015 – Б. 128; Содиков Қ. Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. – Т.: "Akadernashr", 2017.

<sup>79</sup> Лихачев Д.С. Текстология. – М.–Л., 1962. –С.490.

ishlanmalarini yaratish, ulardan o‘rinli va maqsadli foydalanish o‘zbek matnshunosligi rivojiga muhim hissa bo‘lib qo‘shilishini ta’kidlash o‘rinlidir.

Mumtoz matnni o‘rganishning nazariy asosi matn tarixini o‘rganish bilan belgilanadi. Zero, matn tarixi faqat matnning asliyatini aniqlash, uni to‘g‘ri o‘qish, xattiy, paleografik xususiyatlarini o‘rganish, qo‘lyozmalarni muqoyasa qilish, ilmiy-tanqidiy matn yaratish, matnni joriy alifboda nashr etish kabi masalalar bilangina cheklanib qolmaydi. Bunda matn tarixi bevosita va bilvosita ichki va tashqi ma’lumotlar asosida o‘rganiladi. Zotan, “hech bir yodgorlik tanholikda mavjud emas”<sup>80</sup>, chunonchi, unga daxldor turli tarixiy asoslar, tamoyillar, hamda yondosh sohalarning manbalari bor. Binobarin, Navoiy asarlari matnini o‘rganishda ham bevosita va bilvosita matn tarixiga doir ma’lumotlar muhim omil hisoblanadi.

Ayni ma’noda o‘zbek matnshunosligi nazariy masalalarning tugal yechimi yoki bu boradagi nazariy adabiyotlar yaratish hali oldindadir. Ammo, ayrim G‘arb matnshunos olimlari matnni ilmiy-nazariy yo‘sinda tadqiq etishni birinchi o‘ringa qo‘yishadi. Shu bilan birgalikda, ular matn tarixini chuqur o‘rganmasdan matn tabdilini nashr qilib, uni ilmiy muomalaga kiritish katta matniy nuqsonlarga olib kelishi mumkinligini e’tirof etishadi<sup>81</sup>.

Tan olish kerak, o‘zbek matnshunosligi va adabiy manbashunosligining tamoyillari hamda uslubiy mezonlari yo‘sini barcha matniy tadqiqot ishlariga joriy qilinadi. Ushbu matnshunoslik mezonlari va uslubiy yo‘nalishlari hodisasini Navoiy asarlari matnini tadqiq qilish jarayoniga ham tatbiq etish mumkin.

Navoiy asarlarining matniy tadqiqiga bag‘ishlangan tadqiqot ishlarida shu paytgacha, shubhasiz bir umumiylik, yakranglik mavjud edi: – u, asosan, asar qo‘lyozmalarini tasnif va tavsiflash, asliyatdagi mavjud o‘xshashlik va farqlarni aniqlash, manbaning ilmiy-tanqidiy matnini yaratish, nashrga tayyorlash kabi xususiyatlardan iborat edi. Aniqrog‘i, ularda qo‘lyozmalararo xattiy xususiyatlarni qiyoslab o‘rganish ustuvor bo‘lib, biroq, adabiy manbashunoslik va matnshunoslikning muhim ilmiy-nazariy metodologik xarakterga xos barcha tahlil usullari ham qo‘llanmas edi.

Bu fikr-mulohazalardan so‘ng o‘z-o‘zidan mumtoz asar matnini to‘liq va har tomonlama mukammal o‘rganish uchun yana qanday matniy tadqiq etish usullariga murojaat qilish lozim, degan savol tug‘iladi. Avvalo, bugungi kunda jahon matnshunosligining zamonaviy tamoyil va uslubiy mezonlari yo‘sini barcha matniy muammolar tadqiqiga joriy qilinmoqda. Har qanday matniy tadqiq etish usuli matnni sharhlashga mushkullik tug‘dirayotgan matniy muammolarni bartaraf

---

<sup>80</sup> O‘sha manba. – С.62.

<sup>81</sup> Қаранг: Лихачев Д.С. Текстология. – М.–Л.: Наука, 1962. – С.219.

etishga qaratilmog‘i zarur. Binobarin, Navoiy asarlari matnini ham matnshunoslikning *gloss*, *konyektura* usullari yordamida tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Shu ma’noda ushbu bo‘limda Navoiy asarlarining har bir matni, asosan, *gloss* va *konyektura* tushunchalarining tarixiy prinsiplariga asoslanib, talqin etildi: 1) *matniy tadqiq etishning gloss usuli*. Bu matniy tadqiq etish usuli matnshunoslikda juda keng tushunchalarni ifodalab, ko‘pincha, “interpolyatsiya” istilohi bilan alternativ ravishda qo‘llaniladi. Ularni quyidagi hollarda bir-biridan farqlash mumkin. *Gloss* – bu muayyan qo‘lyozmaning hoshiyasidagi yoki matn o‘rtasidagi qaydlar. Zero, *gloss* qo‘lyozmadagi asosiy matn bilan qo‘shilib ketmay, balki undan farqlanib, kotib tomonidan biror o‘rinni sharhlash uchun yozilgan alohida qayddir. Interpolyatsiya esa muayyan asar matniga kiritilgan bo‘lib, bu matn bilan qo‘shilib ketgan qo‘shimcha hisoblanadi. Matnga interpolyatsiyani xattotning o‘zi ham bevosita ko‘chirish jarayonida kiritishi mumkin, biroq ko‘pincha interpolyatsiya xattot ko‘chirib olgan glossni ifodalaydi.

Mashhur rus matnshunos olimi D.S.Lixachev *gloss* va interpolyatsiyalarning qo‘llanilishi haqida quyidagicha fikr bildirgan: “Gloss va interpolyatsiyalar turli sabablarga ko‘ra kiritiladi: matnni mukammalligini kuchaytirish, (masalan, ayniqsa, tarixiy asarlarda shu mavzu bo‘yicha boshqa asarlardan interpolyatsiyalar kiritish) yoki nusxa ko‘chiruvchiga xayoliy yoki haqiqiy tushib qolgan joylarni to‘ldirish va tushunarsiz bo‘lgan matnni tushuntirib berish uchun (tushunilishi qiyin so‘zlarni, matndagi nuqsonlarni, yaxshi tushunib bo‘lmaydigan mulohazani, noaniq faktlarni tushuntirib beruvchi gloss)”<sup>82</sup>.

Yuqorida qayd etilganidek, glossning asosiy vazifalaridan biri matndagi tushunilishi qiyin, avval sharhlanmagan, shuningdek, hatto asar nashri bo‘yicha tuzilgan keyingi lug‘atlarda ham qayd etilmagan so‘z va iboralarning matndagi o‘rnini aniqlash va sharhlash hamda ularni matnga ilova qilishdan iboratdir.

Quyida Navoiyning barcha asarlari matnidagi ana shunday tushunilishi qiyin, izohli lug‘at va asarning keyingi mukammal nashriga to‘liq ilova qilinmagan glosslar tahliliga to‘xtalib o‘tamiz. Ayni shu ma’noda bu holatni qisman “Majolis un-nafois” (MN) matnidagi ana shunday tushunilishi qiyin, hatto izohli lug‘at va asarning keyingi mukammal nashrlariga ham to‘liq ilova qilinmagan *gloss* – so‘z va iboralar tahliliga e’tiborni qaratamiz.

Shoir turkiy so‘zlar bilan birgalikda arabiy, forsiy leksik birliklardan yuksak darajada badiiy mahorat bilan foydalangan va bu hol shoir asarlari tilining konstruksion tuzilishiga ta’sir qilmay, balki asta-sekinlik bilan har bir asarning badiiy ifoda qatlamini boyita borgan. Ayniqsa, shoir asarda arabiy so‘zlarni arab

---

<sup>82</sup> Лихачев Д.С. При участии А.А.Алексеева и А.Т. Боброва. Текстология на материале русской литературы X–XVII веков. – СПб.: Алетея, 2001. – С.90–92.

tilining flektiv xususiyatlariga xos tarzda turli soʻz shakllarida qoʻllagan. Afsuski, bunday soʻzlar izohi, yaʼni glosslar na lugʻatda, na asarning soʻnggi mukammal nashriga ilova qilingan. Vaholanki, bunday glosslar sharhi matnning tagmaʼnosini ochishda nihoyatda qoʻl keladi. Yorqin tasavvur boʻlishi uchun shunday glosslardan misollar keltirishni joiz deb bilamiz.

“Badoyeʼ ul-vasat” asarida bir marotaba qoʻllanilgan اوچوز *uchuz* turkiy soʻzi qadimgi yozuv yodgorliklarida *uchuzlandi* tarzida uchraydi<sup>83</sup>. Bu soʻz forsiy ekvivalenti – *arzon* soʻzi bilan izohlanadi:

*Faqr koʻyi tufrogʻ ikim, uldur iksiri hayot,  
Jon berib koʻz yoriturcha olsang – olmishsen uchuz* [BV, 160].

“Sabʼai sayyor” asarida faqat bir oʻrinda uchragan forscha كوژپشت *koʻjpusht* soʻzi turkiy *bukri* ekvivalenti bilan izohlanadi:

*Baso koʻjpushtu parokanda hol,  
Boʻyida chu boʻlgʻay ipe eski shol* [SI, 385].

Shuningdek, turkiy كدود *kadud* soʻzi ham forsiy *bigiz* soʻzi bilan izohlanadi: *Va “yoyiy” misol uch harakatdin ortuq topilmas: biyzki sort kadud der va bizki “mo” va “nahnu” maʼnisi biladur va biyzki “darafsh” derlar* [ML, 19].

ايقلوق *ayoqluq* soʻzi shoir asarlari tilida *kosalik* maʼnosini ifodalagan: *Ul qul hikoyatikim oyogʻi toyilib, ayogʻluq oshini shohning boshi kosa-sigʻa urdi va karomligʻ shoh olida oʻz oshin pishurdi* [HA, 343].

Asarda ايغ ايليك *ayogʻ-ilig* soʻzi *oyoq-qoʻl* maʼnosini anglatgan: *Tahorat qilur erdi va el kelur erdi va ayogʻ-iligi yorilur erdi va qon kelur erdi* [NN, 133].

“Nasoyim ul-muhabbat” asarida uchrovchi اويقولاماق *uyqulamoq* feʼli *uxlamoq* oʻxshash varianti bilan izohlanadi: [*Hishom b. Abdon r.t.*]. *Bir kun uyqulab, uygʻongʻach koʻrdikim, qoʻyi birov ziroatigʻa kiribdur. Ani ul ziroat iyasiga berdi va andin behilliq tiladi* [NM, 169]. Mazkur asardagi بوكراك *bukrak* soʻzi *buyrak* ekvivalenti bilan izohlanadi: *Haq s.t. agarchi zohir koʻzin yopuq yaratqandur, ammo koʻngli koʻzin bagʻoyat yoruq qilgʻondur: lubyogʻa ilik surtubdur va debdurki, qoʻy bukragiga oʻxshaydur va naxudni barmogʻi bila silab, debdurki, itolgu boshigʻa oʻxshar* [NM, 426].

“Navodir un-nihoya” asaridagi arabcha احزان *ehzon* soʻzi ham gʻamli, mahzun maʼnodoshlari bilan izohlanadi:

*Ochmay oʻtluq chehra chunkim oʻrtadi koʻnglum uyin,  
Ochsa ne oʻtlarki tushgay kulbayi ehzonima* [NN, 477].

<sup>83</sup> Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк, Т.I–III. – Т.: Фан, 1960–1963. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталибов; Девону луғотит турк. Индекс-луғат/Ғ.А.Абдурахмонов ва С.М.Муталибов таҳрири остида. – Т., 1967. – Б.308.

Shuningdek, fe'l turkumiga xos ayrim turkiy so'zlar ham sinonimlar bilan izohlash usuli orqali sharhlandi: Masalan, "Nasoyim ul-muhabbat" asarida bir o'rinda uchragan اوالاماق // اوالاماق *uvalamoq//uvlamoq* fe'lining ma'nosi *uqalamoq, ishqalamoq* fe'llari bilan izohlanadi:

[Abuladyon q.s.] *Ahmad debdurki, kecha oyog'in uvalar erdim* [NM, 155].

Bu so'z ayrim mumtoz manbalar tilida *uvlamoq* shaklida ham uchraydi <sup>84</sup>.

Bulardan tashqari, MAT dagi گارا *garro* – qul, g'ulom, banda [NM, 239], وثوق *vusuq* – ishonch, tayanch, suyanch [NM, 268], هنجار *hinjor* – yo'sin, yo'l, tariq yoki qoida, tartib, ravish [FSH, 253, 402] singari so'zlar.

توكورماق *tukurmoq* – tuplamoq, tukurmoq:

*Anjum ermas charx zulmin holimda anglab qazo,*

*Tiyra ruxsorig'a ming qatla tukurdi bu kecha* [NN, 483].

قپيرا نماك *qipranmak* – qimirlamoq, qo'zg'almoq:

*Va bodbog'lar torttilarkim, mulklarig'a azimat qilg'aylar. Kema eridin qipranmadi, bovujudide ulki, azim el dag'i borur erdi* [NM, 385].

هور ايتماك *havr etmak* – haydamoq, quvmoq:

*Ilohi ani yaxshilar orasidin havr etma va yomonlar xaylig'a qotma* [MQ, 130].

تولغي *tulg'i* – quyqa, qoldiq, quyqum:

*May tulg'ining har pashshasi piledurur xartumluq,*

*Daf' etgali dayr ahlig'a gar cheksa dardu g'am sipah* [BB, 507].

عذر *azr* – sabab, bahona:

*Bo'lma malul o'lsa kengashda talosh,*

*Azru uzun dog'i kerakmas kengash* [HA, 326].

دهن بوست *dahanbo'st* – og'zi ochiq, ro'zasiz:

*Avom ro'zasin bayon qilmoq va dahanbo'stlar ochlig'in ayon qilmoq* [G'S, 551].

فلكيانه *fulkiyona* – kemacha, qayiqcha:

*ul hazrat sochqon durlar oldida ne ko'rungay va aning himmati janobida bu fulkiyona muzahhar ne bo'la olg'ay* [NJ, 134].

تات *tot* – islomni qabul qilmagan uyg'ur yoki xitoylar:

*Chahdag'i tuxm arpasini oti eb,*

*Uyda tovug'larni suruk toti eb* [HA, 227].

پيژير *pijir* – ko'kning sifati:

<sup>84</sup> Шамсиев П., Иброҳимов С. Ўзбек классик адабиёти асарлари учун қисқача луғат. – Т.: Фан, 1953. – Б.350.

*Mug‘anniy, ulug‘ yir sadosini tuz,  
Pijir ko‘kka piypo sadosini tuz!* [SI, 383].

الفبها *alafbaho* – ekinning ko‘kiga qarab belgilangan soliq turi:

*Birisidin alafbaho ko‘tarib,  
Sabzai umri ayshdin ko‘karib* [SS, 66].

حفص *hafs* – charmli savat, charmdan ishlangan narsa:

*Zulfining har halqasida bir shikandur uylakim,  
Hafs zanjirida har tav‘ ichra bir ahli gunoh* [NSH, 380].

بيته *payta* – pilta ip:

*Iloyimda kesak kuhi balodur,  
Ko‘zumga payta rishta ajdahodur* [FSH, 383].

تخته کيز *taxtagiz* – taxta kigiz:

*Shahekim ko‘kka chiqqay taxtu johi,  
Gadokim, taxtagiz bo‘lg‘ay panohi* [FSH, 61].

خرنوب *xarnub* – urug‘ yoki donlari yeyiladigan daraxtning bir turi:

*Va Abu Abdullohning qabri Turi Sino tog‘i ustida, ustodi Abulhusayn qabri  
yonida, xarnub yig‘ochi ostidadur* [NM, 67].

حكه *hikka* arabcha so‘z bo‘lib, Navoiy asarlarida faqat bir o‘rinda uchraydi:

*Qarig‘a shahvat agar bersa xorish, andoqdur  
Ki ko‘rguzur qarig‘an xez hikkai shan‘at* [FK, 54].

Bu so‘z “Favoyid ul-kibar”da kishi tanasida ba‘zan paydo bo‘ladigan qichima, qo‘tir ma‘nosida kelgan.

U matn ma‘nosidan kelib chiqib quyidagicha kengroq izohlanadi: ko‘zning ko‘rish quvvatini oshirish uchun marvarid kukuni bilan surmaning aralashmasidan tayyorlangan javohir surma.

قوبقه *qo‘bqa* – xum, xumdon; suv saqlanadigan idish:

*Yo‘li ustida qo‘bqakim suv sochib,  
Sochar vaqti suv yo‘qki, inju sochib* [SI, 29].

اعصابه *isoba* – peshanabog‘, peshanaband, peshona bilan tang‘ib o‘raladigan kichik ro‘mol:

*Bir xotun kishining isobasi boqiy qoldiki, iyasi paydo emas erdi. Shayx ani  
oldi va o‘z muborak egnig‘a soldi. Solg‘ach filhol ul isoba Shayxning egnidin  
g‘oyib bo‘ldi. Man hayron qoldim. Chun Shayx minbardin tushdi, aning kayfiyatini  
manga aytdiki, chun majlis ahli bizing muvofaqatimizg‘a dastorlarin minbar  
ayog‘ig‘a soldilar, bizing bir singlimiz bor Isfahonda, ul ham isobasin soldi* [NM,  
496–497].

خانہ زاد خانہ // زاد خانہ *xonazod//xonazoda* – xo‘jayinlarning uyida tug‘ilib tarbiya topgan qul yoki cho‘ri; xonaki g‘ulom yoki xizmatkor:

*Qaysi pari paykari huri najod,  
Balki anga huru pari xonazod* [HA, 201].

Yoki:

*Va bu vasi’ ostonning mavrusi tug‘masi, ya’ni bu xonazodaning xonavodasi va bu xonavodaning xonazodasi erdi* [BB, 17].

تابدان *tobdon* – tashqi tomoni naqshlangan va rangli shishalar bilan ishlangan mahalliy uy tokchasi:

*Shishadek ko‘nglumdadur gulzori husnung yodidin,  
Tobdonning aksidek alvon qizil, sarig‘, yashil* [NN, 331].

خلج *Xallux* – rivoyatlarga ko‘ra, qadim Turkistondagi shaharlardan birining nomi; bu shaharning odamlari chiroyli bo‘lishgan, u yerda tayyorlangan toza, sifatli xushbo‘y hidli mushk (atir)lar dunyoning boshqa o‘lkalariga keltirib turilgan. Ana shu sifatleri bilan xushbo‘y hidli mushklar “Xallux” nomi bilan ham mashhur bo‘lgan:

*Malohat o‘lsa olur jonni lo‘liyu hindu,  
Gar o‘lmasa qochurur mohi o‘qchavu Xallux* [NSH, 85].

خل *xal* arabcha so‘z bo‘lib, shoir asarlarida bir o‘rinda uchraydi:

*Quyosh niginining ostida zahridin xal etar,  
Kishiga mehr bila kim ezib berur sharbat* [NN, 64].

Bu so‘z spetsifik xususiyatiga ko‘ra *uzum yoki boshqa mevalar suvini achitish yo‘li bilan tayyorlanadigan achitqi suyuqlik*, degan ma‘noni anglatadi. Sirka ma‘nosida keladi.

Ko‘rinadiki, bunda mutafakkir arab tilining naqadar chuqur bilimdoni sifatida o‘z so‘z qo‘llash san‘atini ko‘rsata olgan. Asar matnidagi bunday tushunilishi qiyin yoki izohli lug‘atga kirmay qolgan so‘zlarni yana quyidagicha tahlil qilib o‘tish mumkin: *firdavstazyin* – “jannatoro”; “jannatsifat bog’”; “ziynatlangan bog’”: *Bu Sultoni Sohibqironning eramoyin suhbatlarida va firdavstazyin xilvatlarida va nav’ g‘arib latoyif va ajib zaroyif har lahza mutaoqib va mutavotir va lahza mutazoid va mutakosir zohir bo‘lur* (209), *istiqror* – “sabat”, “matonat”, “chidam”, “o‘z so‘zi, ahdida sobit turish”; “barqarorlik”, “o‘z vazifasini matonat bilan bajarish”: *Va bir qarn bo‘lar bordikim, istiqrol bila amorat istiqror bila podshohga noyobat qiladurkim, hech kishi andin bir nomuloyim nimakim, mujibi e’tiroz bo‘la olg‘ay, naql qilmaydur* (151), *qaboljot* – “hujjat”, “ijozatnoma”, “nikoh xati”: *Mavlono Nizomiddin qazo masjidida mutammakin*

erkanda, mahkamasi va dor ul-qazosida sijillot va **qaboljot** va shar'iyot anga evrulur erdi (123), حقير الجثة haqir ul-jussa – “ozg'in”, “zaif jussali”, “kichik jussali”: Bag'oyat mahrum va vojib ul – rioya va nomurod ko'rundikim, ham **haqir ul-jussa** erdi va ham sag'ir us-sin (78), ذوالقافيتين zulqofiyatayn – “ikki qofiyali”: **Zulqofiyatayndur** va qofiyalari tardi akskim, javob aytmoq bu faqir qoshida maholatdindur (68).

Tazkirada bir qator arabiy so'zlarga forsiy o'zak yoki qo'shimchalar qo'shilishi natijasida yangi so'zlar hosil qilingan: معالجة پذير muolajapazir – “davolovchi”: Gahi savdosi andoq g'olib bo'lurkim, mizoji sihat qonunidin munharif bo'lur, yana ko'p zahmat bilan **muolajapazir** bo'lur (82), غرابت جوي g'arobatjo'y – “ajoyib”, “qiziqarli”: Xili junun zotida borkim, salohiyat kasbig'a mone'dur, yo'q ersa, **g'arobatjo'y** tab'g'inasi bor (87). Bundan tashqari, asarda yana bir qator forsiy qorishiq so'zlar (44) uchraydi: شيرين اشعار shirinash'or (184), شيرين اداليق shirinadoliq (80) va boshq. Ko'rinadiki, shoir asarlari matnidagi bunday tushunilishi qiyin so'zlar talaygina qismni tashkil etadi.

### **Matniy tadqiq etishning konyektura usuli**

Yagona ro'yxat qaysidir joyda buzilgan bo'lsa yoki boshqa bir ma'lum joyda ochiqdan-ochiq buzilgan matnni yoki garchi aniq bo'lsa ham, u yoki bu mulohazalarga ko'ra dastlabki muallif, muharrir matnida bo'lishi mumkin bo'lmagan matnni berayotgan bo'lsa, tadqiqotchi konyekturalar ishlatishga haqli. *Konyektura* – bu tadqiqotchi tomonidan turli mulohazalar asosida taqdim etilayotgan tuzatishlar (aniqroq aytganda – dastlabki matnni qisman tiklash). Katta tajriba va mantiqiy fikr asosida, hatto asliyatga qiyoslamasdan turib ham asar nashridagi xato va nuqsonlarni aniqlay olish va uni muallif yaratgan matnga yaqinlashtira olish *konyektura* usuli deyiladi<sup>85</sup>. Tadqiqotchi tomonidan muayyan asar matni bo'yicha asosli fikr-mulohazalar asosida taqdim qilinayotgan ilmiy tuzatishlar ham *konyektura* harakatlariga kiradi. Matnshunos olim N.V.Perets konyekturalar haqida shunday yozadi: “Shunday holatlar bo'ladiki, mavjud qo'lyozmalardan bittasi ham aniq, yetarlicha qanoatlanarli o'qishni bermaydi yoki qandaydir yodgorlikning bittayu-bitta buzilgan, noaniq joylari bor qo'lyozmasi bo'ladi. Bunday holatlarda tanqidchi muallif o'rnida bo'lib, konyekturalar, ya'ni turli mulohaza va taxminlar yordamida buzilgan matnni tiklashga urinib ko'rishga majbur bo'ladi. Konyekturalar uchun umumiy aniq qonun va qoidalar yo'q: kimki boshqalardan ko'ra ko'proq ushbu asarning muallifiga yaqin fikr yurita olsa, uning ruhini va uslubini chuqur his qila olsa, boshqalardan ko'proq uni tushuna olsa – o'shagina uni muvaffaqiyatliroq to'g'rilay olishi mumkin. Albatta, taklif

<sup>85</sup> Сирожиддинов Ш., Умарова С. Ўзбек матншунослиги қирралари. – Т.: “Академнашр”, 2015 – Б. 12.

etilayotgan konyekturalar, iloji boricha, matnga eng soz ma'no berishi kerak va bu asarning boshqa qismlariga, muallifning odatlariga zid bo'lmashligi kerak"<sup>86</sup>.

V.N.Peretsning "muallifga o'xshay olish" lozimligi, "uning ruhini va uslubini chuqur his qila olish" haqidagi hamma yozganlari juda muhimdir. Matn ortida muallifni, uning dunyoqarashini, ruhini, hattoki, odatlarini ko'rish – matnshunosning birinchi vazifasi. Bunga faqat shuni qo'shib qo'yish joizki, faqatgina muallif bilan cheklanmaslik kerak – dastlabki matnni yaratgannigina emas, uni o'zgartirganni – ko'chirib yozuvchini va qayta ishlaganni ham tasavvur qilish kerak. O'zgartirilgan matnni dastlabki holatiga keltirishgina emas, qanday, qachon va nima uchun matnni o'zgartirishi sodir bo'lganini tushuntira bilish kerak. Bizni qiziqtirayotgan joyni tiklash va kiritilgan o'zgartirishni tushuntirish bilan birga tuzatish kiritish lozim – faqat o'shandagina konyektura puxta qilingan, deb hisoblanadi. Agar matnning o'zgartirilishi ongli ravishda qilingan bo'lsa, bu o'zgartirishning maqsadini, sabablarini, bu o'zgartirishni keltirib chiqargan vaziyatni tushuntirib berish kerak. Agarda matnning o'zgartirilishi ongsiz ravishda qilingan bo'lsa, bizning nazdimizda xato bo'lsa – xato qanday paydo bo'lganini, u holda xatoning qanday turi sodir etilganini paleografik ravishda tushuntirib berish joiz<sup>87</sup>.

S.M.Bondi juda to'g'ri yozadi: "Konyekturaning shubhasiz to'g'riligi (yoki, har holda, maksimal ehtimolligi), birinchidan, olingan matnning sifati (haqiqatnamoligi) bilan va, ikkinchidan, matnning asl nusxasi buzilishining sabablarini puxta tushuntirish bilan isbotlanadi. Oxirgi talab haqida ko'pincha unutishadi, ammo haqiqatda esa u g'oyat muhimdir"<sup>88</sup>.

Konyekturalar ikki nuqtai nazardan muhimdir: matnni nashr etish uchun va matn tarixini tiklash uchun. Konyekturaning shubhasiz to'g'rilik darajasi turlidir. Shunga qaramay, matn tarixi uchun asoslilik darajasi uncha katta bo'lmagan konyekturalar ham ahamiyatlidir. Matnshunoslik bo'yicha mashhur asar yozgan yetuk matnshunos olim P.Maas matn variantlarida hamma mumkin bo'lgan konyekturalarni qoldirish kerak deb hisoblaydi, chunki yangi qo'lyozmalar topilishi natijasida ular qachondir to'g'ri bo'lib chiqishi mumkin. Variantlarda har ehtimolga qarshi qoldirilgan bunday konyekturalarni P.Maas "diagnostik konyekturalar" (Diagnostische Koniekturen) deb nomlaydi <sup>89</sup>.

Shuni alohida qayd etish joizki, ba'zi bir tadqiqotchilarning konyekturalarga qarshi umumiy soxta fikrlari hech qanday asosga ega emas, chunki aksariyat

<sup>86</sup> Лихачев Д.С. При участии А.А.Алексеева и А.Т. Боброва. Текстология на материале русской литературы X – XVII веков. – СПб.: Алетейя, 2001. – С.592.

<sup>87</sup> Лихачев Д.С. При участии А.А.Алексеева и А.Т. Боброва. Текстология на материале русской литературы X – XVII веков. – СПб.: Алетейя, 2001. – С.592.

<sup>88</sup> O'sha asr. С.М.Бонди. – С.592.

<sup>89</sup> Paul Maas. Textkritik Leipzig. 1957. – S.33.

qo'lyozmalar matnlari shunday konyekturalarga to'la, lekin bu konyekturalar olimlar tomonidan emas, burungi, shubhasiz, nodon bo'lgan nusxa ko'chiruvchilar tomonidan yaratilgan. Haqiqatan, yuqorida biz aytgan xatolar va "fahmlashlar", – bu, aslini olganda, konyekturalardir. Shuning uchun bu tarz, ko'pincha, tadqiqotchilarning – nusxa ko'chiruvchilar tomonidan yaratilgan konyekturalar ma'nosini ochib berishda namoyon bo'ladi. Nusxa ko'chiruvchilar tomonidan yaratilgan konyekturalarni qoldirib, tadqiqotchilarning konyekturalarini kiritmaslik – bema'nilikdir. Hamma gap shundaki, u yoki bu konyekturani taklif eta turib, tadqiqotchi uni, shubhasiz, to'g'rilik darajasini xolisona baholashi majbur va nashrda konyekturani asl nusxa yoki nusxalarning matni deb ko'rsatmay, to'ppa-to'g'ri uni izohlab berishi kerak (masalan, matnda konyektura kursiv bilan belgilanib, havolada esa asar nusxasi ko'rsatiladi)<sup>90</sup>.

Albatta, konyektura, muallif ruhini anglash singari matnshunoslik masalalari, aslida, D.S.Lixachev singari olimlardan ancha burun boshlanib, va bu borada yetarlicha ilmiy-nazariy qarashlar shakllangan edi<sup>91</sup>.

Hozirgi paytda *konyektura*, asosan, matn nashridan keyin ro'y beradi. Matnshunoslar tabdillardagi xato va kamchiliklarni matniy ma'nodan kelib chiqib aniqlashadi. Demak, qo'lyozmaning xattiy va ma'noviy xususiyatlarini to'liq anglagan, tasavvur qilgan holda mantiqqa asoslanib, uning nashrlaridagi noqisliklarni to'g'ri tuzata olish konyektura harakatlariga kiradi. Masalan, "Majolis un-nafois" qo'lyozmasidagi bir jumla nashrda "...majlisda nazm tariyqida hamroz erdilar va nasr uslubida puktapardoz" (113) tarzida noto'g'ri ifodalanibdi.

Ushbu jumladagi نکته پرداز *nuktapardoz* so'zining o'rnida *puktapardoz* bo'lganligini qo'lyozmaga qaramay turib, konyektura usuli bilan, ya'ni mantiqqa asoslanib ham aniqlasa bo'ladi. Zero, *nuktapardoz* – "chuqur ma'noli so'zlar aytuvchi", – degan ma'noni beradi. Bu shubhasiz matniy ma'noni anglatadi. Yoki: *Va mashliq va mabhutluq olamin ham ko'p ta'rif qilurlar* (121).

Mazkur misoldagi مسخلىق *masxliq* so'zining o'rnida *mashliq* ifodalangan. Buni taxminiy yoki umumiy fikrlar asosida farqlasa bo'ladi. Chunki *masxliq* – "o'zgarish", "qabih suratga aylanish", "bir shakl yoki ko'rinishdan boshqa bir yomonroq shakl va ko'rinishga o'tish" kabi ma'nolarni anglatadi. *Mashliq* esa mumtoz matnlarda qo'l "bilan uqalamoq, qashlamoq" ma'nosini ifodalab keladi<sup>92</sup>. Bu ma'no shubhasiz matniy ma'noga to'g'ri kelmaydi. Bundan tashqari, asar nashrida شعور *shu'ur* – "sezgi", "his", "hush", "fahm", "idrok" (156) so'zining o'rnida *shuur*, احفاد *ahfod* – "nabiralar", "avlod" (172) so'zining o'rnida *axfod*, خط

<sup>90</sup> O'sha asar. – B.592.

<sup>91</sup> Бласс Фр. Герменевтики и критика. – Одесса : Университет, 1891. – С.71–183.

<sup>92</sup> Фарҳанги забони тоҷики (аз асри X то ибтидои асри XX). Т. 1. – М.: Советская энциклопедия, 1969. – С. 653.

*xabt* – “aqldan ozish”, “devonasimonlik”, “aqlga futur yetish” (36) so‘zining o‘rnida *habt*, اشتهار *ishtihor* – “mashhurlik”, “shuhrat” (140) so‘zining o‘rnida *ishthor*; صاحب وجود لوق *sohib vujudluq* – “sohibkaramlik” (44) so‘zining o‘rnida *sohibvujudluq*; گلبانگ *gulbong* – “yoqimli sayrash”; “baland ovoz”, “qichqiriq”; “bulbulning ovozi” (8) so‘zining o‘rnida *gul bong*; (Izoh: bu so‘zlar matnda ajratib yoki qo‘shib yozilgan); برگستان *bargustvon* – “zirih”//“zirh”; “urushda yaroq va o‘q o‘tmasin uchun ot yoki filning ustiga tashlanadigan yopinchiq” (30) so‘zining o‘rnida *bargnustvon* tarzida noto‘g‘ri ifodalangan. Asar matnidagi bunday holatlarni ham konyektura harakatlari yordamida tuzatish mumkin.

Bundan tashqari, asar varianti tahlilini tekshirishning maqsadi, shuningdek, boshqa barcha matnli tadqiqotlar matn tarixini aniqlashdir. Shuning uchun asar varianti tahlilini tekshirish “to‘g‘ri” yoki “asliyat” matnlarni, muallifning irodasi bilan muhrlangan “so‘nggi” matnlarni va boshqalarni tiklash vazifalari bilan cheklanib qolmaydi. Matnshunos uchun matn tarixining barcha oraliq bosqichlarini tiklash, ularning kelib chiqishini, yaratuvchilarining niyatlarini bilish muhimdir.

Matn tarixining har bir bosqichidagi asar nashri varianti tahlillari ularning yaratuvchisi shaxsiyati bilan bog‘liq. Ular uning individual ish uslubini, psixofiziologik xususiyatlarini, adabiy didi va mafkurasini aks ettiradi. Shuning uchun, bu borada tahlillarni taqqoslash va tushuntirish kerak. Ular qatlamlarda o‘rganilishi kerak.

Tahlillarni tekshirish odatda individual tahlillarni o‘rganishdan boshlanadi, ushbu ro‘yxatdagi barcha tahlillarni o‘rganish va tavsiflash bilan davom ettiriladi, so‘ngra ularning o‘zaro munosabatlari va kelib chiqishini aniqlash uchun barcha ro‘yxatlarning tahlillarini ko‘rib chiqib umumlashtiriladi. Tahlillar tarixan matnni ishlab chiqish bosqichlariga ko‘ra (iloji bo‘lsa) taqsimlanadi. Tahlillarni ko‘rib chiqish asosida olingan ma‘lumotlarni tekshirish qo‘lyozmalarni o‘rganish bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi, asarlar tarkibini o‘rganish va yozma yodgorliklarni o‘rganish bilan bog‘liq holda, shu jumladan o‘rganilayotgan ishlar (to‘plamlar, jurnallar, to‘plamlar, asarlar to‘plamlari va boshqalar), o‘rganilayotgan yodgorlikka ta’sir ko‘rsatgan va ta’sir qilgan asarlar, biografik, tarixiy va tarixiy-adabiy ma‘lumotlar hisobga olinadi.

Turlicha tahlillar muallif, yozuvchi, matn teruvchi, korrektor, muharrirning xatolari yoki ular ham matnga bo‘ysunadigan matn o‘zgarishlari natijasida yuzaga keladi. Xatolar ongsiz; matn o‘zgarishlari ongli ravishda amalga oshiriladi. Bunda ularning farqi, birinchi navbatda matnshunos tomonidan belgilanishi kerak. Ushbu farq ham amaliy ahamiyatga ega, chunki ongsiz xatolar matnga tegishli emas va nashr etishda matndan chiqarib tashlanishi kerak. Umuman olganda, ular matnni

tasniflash uchun muhim ko'rsatmalar berishi mumkin, ammo kamdan-kam hollarda shunday bo'ladi.

Tushuntirilgan, bir-biri bilan taqqoslangan va ularning ketma-ketligida aniqlangan matnning ongli o'zgarishlari asosan matn tarixidagi bosqichlarni, uning qayta ko'rib chiqilishi va turlarini ko'rsatadi. Umuman olganda, ular matnning ijodiy tarixini tashkil qiladi.

Turli tahlillarni kelib chiqishi bo'yicha xatolar va matn o'zgarishlariga bo'lishning barcha holatlarida quyidagi qoidaga amal qilish kerak: matn o'zgarishi muallif, muharrir yoki kotib tomonidan qilingan matn o'zgarishini ongli, maqsadli niyatlari bilan tushuntirish uchun barcha imkoniyatlar tugagan taqdirdagina ongsiz deb tan olinadi. Matndagi o'zgarish, bu o'zgarishni matn yaratuvchilardan biri tomonidan qasddan tahrir sifatida tan olish uchun asosli sabablar bo'lmagandagina xato deb tan olinadi; shu ma'noda, matnshunos uchun ongli o'zgarishlarning ongsiz o'zgarishlardan ustunligini qayd etish mumkin.

Agar bizning oldimizda ongsiz xato bo'lsa, unda buni ham tushuntirish – uning kelib chiqishini bilish kerak. Xatoning kelib chiqishini aniqlash matn tarixi uchun muhim ko'rsatkichlarni beradi. Shu bilan birga, xatolarning butun yig'indisini to'liq tavsiflashga intilish kerak: har bir yozuvchi, muharrir, korrektor, muallif ma'lum turdagi xatolar bilan (ular yozuvchi, muharrir, korrektor, muallif va boshqalarning psixofiziologik xususiyatlari bilan bog'liq) tavsiflanadi. Tushuntirishlar barcha sohalaridan olingan. Ushbu tushuntirishlar tarixiy, adabiy, psixologik, fiziologik, paleografik, lingvistik bo'lishi mumkin, ular yozish, bosib chiqarish texnikasi va boshqalar haqidagi ma'lumotlarni jalb qilgan holda berilishi mumkin. Matn ilmida matn tahlilchisining ijodiy tasavvurining kombinatsion maydonini kengligi muhim ahamiyatga ega: fanning turli sohalaridagi ma'lumotlar qanchalik keng jalb qilinsa, tushuntirishlar shunchalik ishonarli bo'ladi. Bunday holda, matndagi o'zgarishlarni tushuntirishning individual faktlari emas, balki ularning kombinatsiyasi, o'zgarishlarning ma'lum tizimli xususiyatini aniqlash, ularning qatlamli tahlili va qatlamli sintetik xususiyatlari muhim ahamiyatga ega.

Muallif, nusxa ko'chiruvchi, matn teruvchi, korrektorda aniq xatolar bo'lishi mumkin. Matndagi har bir xato yoki har bir o'zgarishlar tushuntirilishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, jahon matnshunosligida matnni zamonaviy usullar vositasida tadqiq etish o'z e'tirofini topgan bo'lsa-da, o'zbek matnshunosligida ulardan samarali foydalanilganicha yo'q. Xususan, matnni gloss, konyektura usullari va asar varianti tahlilini tekshirish tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Bu usullar Navoiy asarlaridan boshqa mumtoz asarlar uchun ham joriy qilinishi muhim ilmiy ahamiyatga egadir. Bu bilan mumtoz asarlar taraqqiyotining o'ziga xos yo'lini aniqlashga harakat qilinadi.

## Matniy tadqiq etishning statistik usuli

XX–XXI asr kompyuter texnologiyasi taraqqiyoti munosabati bilan barcha ijtimoiy-ilmiy sohalarda matematik va statistik usullardan keng istifoda etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, o'zbek matnshunosligida XX asrning 30-yillaridan boshlab, ayniqsa, ilmiy-tanqidiy matn tuzishda statistik metodlardan foydalanildi va bu metodlarga alohida e'tibor berila boshlandi. Unda matndagi har bir satr yoki har bir bayt raqamlanishi va ularning statistikasi berilishida shart va zaruriy tamoyillar, mezonlar ishlab chiqildi. Biroq matnni tadqiq etish masalalarida statistik metodlardan unumli foydalanilmadi. Navoiy asarlari matni ko'p marotaba tadqiqot obyekti bo'lishiga qaramasdan, statistik usullar qo'llanmagan. Buni bugungi kungacha ilmiy sharh va izohlar bilan to'liq ta'minlangan Navoiy asarlari to'plami yoki ANATILning takomillashtirilgan varianti yo'qligida ham ko'ramiz. To'g'ri oxirgi davrda 5 jildli Navoiy tili lug'ati Berdaq Yusuf tomonidan nashrga tayyorlandi<sup>93</sup>. Lekin uni o'rganib chiqish ishlari ko'rsatildiki, uning asosiy e'tibori ANATILdagi xatolarni tuzatishga qaratilgan. Vaholanki bugungi kunda nafaqat uning xatolarini tuzatib chiqish, balki ANATILga kirmagan so'z va iboralarni topib, ushbu mo'tabar lug'atni to'ldirib borish asosiy vazifa bo'lishi kerak. Hozirgi mavjud holat esa, shubhasiz, shoir asarlari matni tadqiqi bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishlarining ilmiy qimmatiga ta'sir qiladi. Negaki matn tarixi tadqiqi matndagi barcha so'zlarning matniy ma'nolari mukoshafasi, shakllanishi bilan to'liq amalga oshadi. Binobarin, bu borada rus simvolist nazariyotchi olimi A.Beliyning quyidagi fikr-mulohazalari fikrimizning yorqin dalilidir: “har bir shoirning so'z tanlash manerasi individual xususiyatga ega, har bir shoirning ijodi bo'yicha lug'at bo'lishi zarur. Shoir asarlarining lug'atlarini tuzish kerak, so'ngra ularni solishtirib tadqiq etish yaxshi samara beradi”<sup>94</sup>. Albatta, Navoiy asarlari bo'yicha matnshunos olim P.Shamsiyev, S.Ibrohimov kabi olimlar tomonidan turli matniy tadqiq etish usullariga qaratilgan Navoiy asarlarining lug'atlari yaratildi<sup>95</sup>. Undan so'ng tilshunos olimlar tomonidan “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati” ham tuzildi<sup>96</sup>. Ammo, ular nafaqat Navoiy asarlaridagi barcha so'zlarni qamrab olmagan, balki ma'lum bir asarning mukammal ilmiy-tanqidiy matni yaratilishini ko'zlab tuzilmagan edi. Shu bois, eng avvalo, bu borada shoir asarlarining ilmiy-tanqidiy matnlarini yaratishda ko'plab nuqson va ilmiy kamchiliklarga yo'l qo'yildi.

<sup>93</sup> Юсуф Б. Навоий тили луғати. Беш жилдли. –Т.: Шарқ НМАУ, 2018.

<sup>94</sup> Йўлдошев Б. Матни ўрганиш лингвистик методлари. – Самарқанд: СамДУ, 2008. 1-қисм. – Б.3.

<sup>95</sup> Шамсиев П., Иброҳимов С. Ўзбек классик адабиёти асарлари учун қисқача луғат. – Т.: Фан, 1953. – Б.452; Шамсиев П. Навоий асарлари луғати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1972. – Б.84.

<sup>96</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изохли луғати. – Т.: Фан, IV жилдлиқ, 1983–1985.

Navoiy asarlari matni statistik usullarda ko‘proq tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganildi. Ayni shu ma’noda matnni o‘rganishning statistik metodlari shoir asarlari matniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tatbiq etila boshladi. Masalan, tilshunos olim, filologiya fanlari doktori B.Bafoevning Navoiy asarlari leksikasiga doir monografiyasining birinchi bobi “Alisher Navoiy asarlarining leksikasini statistik o‘rganish natijalari”, deb ataladi<sup>97</sup>. Unda olim shoir asarlarini diaxron aspektda tahlil qilib, ularda jami 26035 ta so‘z qo‘llanilganligi haqida ma’lumot beradi<sup>98</sup>. Albatta, bunday ishlar statistik metodlarning o‘zbek tilshunosligiga dastlabki tatbiq etilishi jarayonida yaxshi qabul qilindi. Biroq matnshunoslikda statistik metodlardan yanada samarali foydalanish mumkinligiga ilmiy tadqiqotlarda unchalik e’tibor berilmayapti. Biz o‘z tadqiqotimizda statistik usuldan foydalanib ANATILni o‘rganib chiqdik. Ma’lum bo‘lishicha, ANATILda mavjud so‘zlar soni 17075 tani tashkil etar ekan. Agar B. Bafoevning statistik ma’lumoti to‘g‘ri bo‘ladigan bo‘lsa, unda 8960 ta so‘z ANATILga kirmagan bo‘lib chiqadi. Demak, shuncha so‘z miqdorida Navoiyni tushunishdan yiroqlashamiz. Bu, o‘z-o‘zidan navoiyshunoslik va matnshunoslik oldiga yangi vazifalarni qo‘yadi. Binobarin, “...jahonning bir qancha mamlakatlari fan va ta’lim markazlarida matnshunoslik nazariyasiga oid yirik hajmli tadqiqotlar yaratilgan. Matnshunoslikning barcha ijtimoiy fanlar, jumladan, adabiyotshunoslik, arxeografiya, dialektologiya va tarixiy tilshunoslik singari sohalar bilan munosabati masalasi ancha chuqur o‘rganilgan. Bu fanga oid muammolarni hal etishda dunyo olimlari paleografiya, germenetika, mumtoz poetika va stilistikada erishilgan yutuqlardan samarali foydalanilmoqda. Modomiki sohani rivojlantirmoqchi ekanmiz, bu tajribalarni tanqidiy o‘rganishimiz zarur”<sup>99</sup>. Bundan asosiy maqsad, birinchidan, shoirning barcha asarlari matnidagi ANATILda qayd etilmagan ma’nosi, shakliy ifodasi tushunarsiz har bir so‘z va iboralarni aniqlash va ularni matndan o‘tkazib yubormaslik bo‘lsa, ikkinchidan, shoir asarlari nashridagi chalkashlik, xatoliklarni bartaraf etish hamda bunday matniy nuqsonlarning yana qaytarilmasligiga yo‘l qo‘ymaslikdir. Badiiy matndagi so‘z va iboralarni o‘rganishning statistik usullarini qo‘llash Alisher Navoiy asarlari nashrida o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot jarayonida Alisher Navoiyning 29 ta asari satrma-satr, qatorma-qator statistik tadqiq etish usuli vositasida o‘qilib, o‘rganib chiqildi. Qiyosiy izlanishlar ANATILga kirmay qolgan so‘z va iboralarni aniqlashga imkon tug‘dirdi. O‘tkazilgan tadqiqotlar davomida Navoiy asarlari yuzasidan uzoq yillar davomida ko‘plab matnshunoslikka doir tadqiqot ishlari amalga oshirilgan

<sup>97</sup> Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. – Т.: Фан, 1983. – Б.157.

<sup>98</sup> O‘sha kitob.

<sup>99</sup> Жабборов Н. Матншunoslik давр талаблари даражасидами?/Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Т., 2010. № 27.

bo'lishiga qaramasdan, shoir asarlari matnidagi ko'plab so'z va iborlar ANATILda qayd etilmaganligi aniqlandi. Ular quyidagicha: "Badoye' ul-bidoya"dan 246 ta, takrori bilan 253 ta; "Navodir un-nihoya"dan 234 ta, takrori bilan 251 ta; "G'aroyib us-sig'ar"dan 276 ta, qaytarig'i bilan 317 ta; "Navodir ush-shabob" dan 302 ta, takrori bilan 339 ta; "Badoye' ul-vasat"dan 238 ta, takrori bilan 277 ta; "Favoyid ul-kibar"dan 275 ta, takrori bilan 309 ta; "Hayrat ul-abror"dan 291 ta, qaytarig'i bilan 318 ta; "Farhod va Shirin"dan 181 ta, takrori bilan 208 ta; "Layli va Majnun"dan 172 ta, qaytarig'i bilan 185 ta; "Sab'ai sayyor"dan 161 ta, takrori bilan 188 ta; "Saddi Iskandariy"dan 332 ta, qaytarig'i bilan 363 ta; "Lison ut-tayr"dan 85 ta, takrori bilan 106 ta; "Nazm ul-javohir"dan 321 ta, qaytarig'i bilan 324 ta; "Arba'in"dan 46 ta; "Siroj ul-muslimin"dan 32 ta, qaytarig'i bilan 38 ta so'z va iboralar ANATILga kirmay qolgan; Shuningdek, shoirning nasriy va adabiyotshunoslik, tilshunoslikka oid asarlari "Majolis un-nafois"dan 191 ta, qaytarig'i bilan 213 ta; "Mahbub ul-qulub"dan 265 ta, takrori bilan 299 ta; "Munshaot"dan 136 ta, qaytarig'i bilan 162 ta; "Vaqfiya"dan 77 ta, takrori bilan 78 ta; "Xamsat ul-mutahayyirin"dan 113 ta, qaytarig'i bilan 125 ta; "Holoti Sayyid Hasan Ardasher"dan 14 ta, takrori bilan 15 ta; "Holoti Pahlavon Muhammad"dan 10 ta; "Muhokamat ul-lug'atayn"dan 76 ta, qaytarig'i bilan 79 ta; "Mezon ul-avzon"dan 64 ta, takrori bilan 82 ta; "Tarixi anbiyo va hukamo"dan 275 ta, qaytarig'i bilan 330 ta; "Tarixi muluki Ajam"dan 45 ta, takrori bilan 59 ta; "Munojot"dan 35 ta, takrori bilan 36 ta; "Risolai tiyr andoxtan"dan 10 ta, qaytarig'i bilan 18 ta, "Nasoyim ul-muhabbat"dan 855 ta, takrori bilan 1054 ta so'z va iboralar ANATILdan tushirib qoldirilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, Navoiyning 29 ta asari bo'yicha jami 5358 ta, takrori bilan 6082 tadan ortiq so'z va iboralar ANATILga kirmay qolganligi aniqlandi ("Nasoyim ul-muhabbat" asaridagi 770 ta shayxlar ismi va kunyalar ro'yxati bilan 6128 ta, takrori bilan bu ko'rsatkich 6852 tadan oshadi).

Navoiy "so'z qoidasida intizom..." deya so'zga benihoya shoyon ta'rif-tavsif berib o'tish barobarida, aslida, so'z qoidasida azaldan ma'lum bir muntazamlik, ya'ni qat'iy bir intizom mavjudligini xotirga keltirib o'tadilar. Zero, ulug' mutafakkir nazarida so'z qoidasiga muntazam rioya qilish – she'riy tafakkur tarzi uchun nihoyatda muhim omil edi. Boshqacharoq aytganda, shoir nazdida she'riyatdagi so'z – salmog'i bilan emas, balki sifat miqdori bilan badiiy kashfiyot, hattoki, ilohiy qudrat kasb etadi. Darvoqe, ba'zi olimlar ulug' shoir asarlarida 26 mingdan ortiq so'z qo'llanilgan desalar, ba'zilar shoir asarlariga bag'ishlab tuzilgan, nisbatan eng to'liq to'rt jildli "Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati" da atigi 17 ming atrofida so'z izohlanganligini ma'lum qiladilar. Yana ba'zilar esa, ana shu izohli lug'atda qayd etilmagan yana besh mingdan ortiq yangi izohlangan,

tushunilishi qiyin soʻzlar haqida bahs yuritadilar. Bunga misol tariqasida shoir asarlaridagi ana shu izohli lugʻatga kirmay qolgan quyidagi ayrim qadimgi turkiy soʻzlarning izohi bilan tanishsak: *avalamaq* – “uyilmoq”, “toʻplamoq”; “qoʻymoq”, “yasamoq”; *ayogʻluq* – “kosalik”; *ayoq* – “uyoq”, “u tomon”, yaʼni “osmon yo oʻzga makon”; *ayruluq* – “boshqalik”, “oʻzgalik”; “ayriliq”; *aytilmamaq* – “aytilmagan”; *andigʻ* – “bir oz”, “ozgina”, “picha”; “atrofi”, “gardishi”; *anshi* – “xushhol”, “mamnun”, “xursand”; *havr etmak* – “haydamoq”, “quvmoq”; *qoʻng* – “qargʻa”; *qoʻngranmaq* – “doʻril-lamoq”, “gʻoʻngʻillamoq”; *qusmaq* – “qusmoq”, “qayt qilmoq”; *oʻyla* – “peshin vaqt”; *qulmaq* – “xotinlikka qoʻlini soʻramoq”; *qoz* – “suvda suzuvchi yirik qush”, “gʻoz”; *qovgʻanmaq* – “jamgʻarmoq”, “toʻplamoq”, “oz-ozdan yigʻmoq”; *qipranmak* – “qimirlamoq”, “qoʻzgʻalmoq”; *oʻksun* – “samo”; *choʻq* – “toʻgʻri”; “rost”, “tuzuk”, “durust”; *chir* – “yaralar”, “zaxmlar”; “dardlar”; *cheng* – “burun suvi”, “burundan kelgan suv”; *chevilanmak* – “aylanmoq”; *chekin I* – “oʻsimlik”; *chekin II* – “ipak”; *chab* – “taqlidiy soʻz”; *kanarkamak* – “koʻndirmoq”, “iqror qildirmoq”; *suqadamak* – “qitiqlamoq”; *debsamak* – “tepinmoq”, “yer tepmoq”, “yer tepib turmoq” singari.

Albatta, ilmdagi statistik tadqiq usuli bizning adabiyotimizda bugun yoki kecha Gʻarbdan kirib kelgan emas. Bunga amal qilish azaldan Sharqu Gʻarb ilmiy adabiyotlarida turlicha koʻrinishlarda uchraydi. Necha asrlardan buyon mufassir (tafsirchi)lar, musharrih (sharhlovchi)lar Qurʼondagi nafaqat soʻzlar miqdorini, balki harflar adadini qayta-qayta koʻrib chiqqanlar. Bu jarayon albatta, hozir ham davom etmoqda. Bizningcha, bunga misol sifatida islomshunos olimlar tomonidan mushafdagi birgina “duo” soʻzining statistik tadqiq etilishi, yaʼni uning mushafda 212 marta tilga olinganligini yodga olishning oʻzi kifoya. Illo, milliy maʼnaviyatimiz tarixidagi buyuk maʼrifatparvarlar – Imom Ismoil al-Buxoriy (810–871), Abu Rayhon Beruniy (973–1048), Mahmud Zamaxshariy (1075–1144), Mirzo Ulugʻbek (1394–1449) kabi qaysi bir allomalarimizning ishi bundan forigʻ deb ayta olishimiz mumkin? Yoʻq, albatta. Qolaversa, navoiyshunoslik ilmidagi ulkan tajribalar shuni koʻrsatadiki, hatto, Navoiyning oʻzlari ham bu usuldan keng foydalanganlar va hech vaqt bu masalaga nopisand boʻlmaganlar deb, aytish joiz.

Aytish mumkinki, bir paytlar ayrim navoiyshunos olimlarimiz bejiz mumtoz arab tilining katta hajmdagi izohli lugʻati – “Sabʼat abhur” (“Yetti dengiz”)ni ulugʻ mutafakkir qalamiga mansub demagan edilar<sup>100</sup>. Haqiqatan, bu fikr oʻz-oʻzidan paydo boʻlmagan edi, zero bunda katta hikmat ham bor edi. Chunki mumtoz asarlardagi soʻzlarni oʻrgangan har bir adabiyotshunos yoki tilshunos olim hech bir asossiz ham shunday xulosaga kelishi tayin edi. Zotan, Yusuf Xos Hojib,

<sup>100</sup> Ҳасанов Б. Алишер Навоийнинг “Сабъат абхур” луғати. – Т.: Фан, 1981. – Б. 104.

Mahmud Koshg'ariy, Sakkokiy, Gadoiy, Yusuf Amiriy, Mavlono Lutfiy asarlariga qiyosan qaraganda, ulardagiga nisbatan mutafakkir asarlarida qo'llanilgan arabiy so'zlar miqdori ikki-uch hissa ko'p ham edi. Bu nimadan dalolat edi? Bu – shoir arab tilining chuqur bilimdoni ekanligidan yana bir darak edi. Zotan, shoir o'z ijodiyotida yuksak darajadagi badiiy mahorat bilan mumtoz arab tilining ichki zaxira imkoniyatlaridan shunday keng foydalangan ediki, bu hol aslo shoir asarlari tilining konstruksion tuzilishiga zarracha ham ta'sir qilmay, balki asta-sekinlik bilan, uning har bir asari badiiy ifoda qatlamini boyita borgan edi. Ayniqsa, shoir har bir asarida arabiy so'zlarni arab tilining ichki flektiv xususiyatlariga xos tarzda turli so'z shakllarida qo'llagan edi. Quyida birgina “Majolis un-nafois” asari misolida ana shunday ayrim so'zlar sharhini ko'rib o'tamiz: *munqaviy* so'zi asarda bir o'rinda qo'llanib, matniy ma'nosiga ko'ra, “mahkam”, “sobit” ma'nolarini ifodalagan: *Ulviy himmatdin dunyovu mofiyhoga etak silkib maqsud ka'basida munqaviy bo'lubdur va hamul darajadin moxalaqalloh, balki mosivalllohni mavhumi mahz, balki ma'dumi mutlaq bilib vusul harimida e'tikof qilibdur* <sup>101</sup>. *Munqaviy* so'zining *qaviy* shakli esa, Navoiy asarlarida sermahsul qo'llanilgan. Asardagi bunday so'z shakllarining ayrimlari hatto, boshqa turkiy manbalarda ham uchramaydi. Lekin bularga qo'shimcha yana asarda arab tiliga xos to'g'ri ko'pliklar ishtirokida yangi so'zlar ham hosil qilingan: *mustag'alot* – “g'alla ekiladigan yerlar”: *Foniyvash va betakalluf kishi erdi, juz'iy mustag'aloti hosili bila qanoat qilib erdi* <sup>102</sup>.

### **Matniy tadqiq etish usuli: diniy tahlil va talqin muammolari**

Matn tadqiqi bilan bog'liq ishlardagi yana bir muammo – *diniy talqin* masalasidagi oqsoqligimizdir. Navoiy asarlarining barchasi ham diniy matn tahlili nuqtai nazaridan yetarlicha o'rganilgan emas. Ko'p hollarda matnning diniy talqini hammaga ma'lum qoliqlar asosida olib boriladi. Navoiy she'riyatida chuqur ma'nolarni o'zida qamragan diniy-fikriy muddaoni teran anglash uchun, avvalo, tadqiqotchidan Qur'oni karim oyatlarini yaxshi bilish, muayyan diniy bilimlarga ega bo'lish va albatta, diniy-tasavvufiy so'zlarning istilohiy ma'nolarini yaxshi bilish talab etiladi. Masalan, “tangri”, “payg'ambar” so'zlari Navoiyning hamd va na'tlaridan boshqa asarlarida (yozuvda) doimo qo'llanilavermaydi. Demak, ularning matndagi o'rnini aniqlash uchun har qanday kichik yoki katta matn yuzasidan chuqur matniy tadqiq o'tkazish lozim. Zero, muayyan so'z san'atkori uslubining nozik qirralari inkishof etish – u nazarda tutgan g'oyalar asosini to'g'ri idrok etish matnning tagma'no qatlamini teran anglashdan boshlanadi. Uslubdagi

<sup>101</sup> Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис/Мукаммал асарлар тўплами. 13-жилд. – Т.: Фан, 1997. – Б.158.

<sup>102</sup> O'sha asar. – Б.37.

umumiylik va xususiylik xususiyatlarini farqlash masalasiga Navoiy juda katta e'tibor bergan. U uslubni chuqur o'rganish va rivojlantirish matniy tadqiq usuli uchun nechog'lik zarur ekanligini o'zining "Majolis un-nafois" asari misolida ko'rsatgan desak, hech mubolag'a bo'lmaydi. Zero, matn tarixi mazmun-mohiyatini to'liq idrok etish uchun muallif usulubini yaxshi bilish maqsadga muvofiqdir. Ayni shu vajhdan qaraganda, Navoiyning "Majolis un-nafois"da qo'llagan "Ul uslubda zehni yaxshi bordur" (108), "Va yuqorig'i so'z uslubi taqozoi ul qilurkim" (174), "Har taqdir bila insof uldurkim, aning asaridin bu kungacha anga g'olibi mahz she'rning barcha uslubida kishi yo'qtur" (15) singari jumalari buning tasdig'idir. Bundan shu narsa oydinlashadiki, shoirning "Majolis un-nafois"da har bir shoir uslubiga bergan bahosi va bundan uning muddaosi o'sha davr she'riyatining uslubiy oqim rang-barangliklarini namoyon etish edi. Zero, bunda muallif va matn oldiga qo'yiladigan talablar, matniy tahlil mezonlari aniqlashadi. Binobarin, matnni tadqiq etishning badiiy tahlil usullari XIV–XV asrda yuqori ilmiy saviyada chuqur o'rganilgan. Zotan, zarrinqalam xattotlar tomonidan yuqori san'at darajasida bitilgan Alisher Navoiy qo'lyozmalari bunga guvohdir.

Navoiy she'riyatidagi an'anaviylikka xos diniy-fikriy muddaoni teran anglash uchun undagi diniy-tasavvufiy so'zlarning istilohiy ma'nolarini yaxshi bilish lozim. Aks holda, shoir nazarda tutgan ma'no to'liq anglanmay qolishi mumkin. Shu ma'noda Payg'ambar siymosi tarannum etilgan yana bir baytni sharhlashdan oldin unga aloqador diniy-so'fiyona "fayz" so'zining istilohiy ma'nosini ochishga harakat qilamiz. Ba'zan esa mutafakkir nazmiyotidagi biror-bir baytning irfoniy ramz va ma'nolarini ochish shoirning boshqa baytlarining sharhini talab qiladi.

Buyuk mutafakkir "Badoye' ul-bidoya" asarida:

*Fayz ko'z tutma riyozatda teshilmay yuraging*

*Ochmayin ravzana, uy ichra quyosh solmadi zav<sup>103</sup>, –*

deydi. Ya'ni darchasiz uy ichida quyosh nurlari tajalli qilmaganidek, inson qalbi ham to hayrat tuynuklari ochilmaguncha, unga fayzi haqiqiydan bahramandlik yetmaydi. Navoiy nazarida, aslida, har bir inson qalb vujudida teshiklar bo'ladi, faqat u g'aliz parda sababli zohir bo'lmaydi. Agar inson doimo o'zlikni tanish, borliqni zikr etish bilan mashg'ul bo'lsa, bu g'aliz pardalar ochilib, shu teshikdan tajalli birlikdan iborat nur taraladi va inson jismida sayr qiladi. Bundan inson aqli va boshqa tana a'zolari behad hayratlanadi. Ular mana shu qalb hayrat tuynuklaridan taralayotgan nuri tajallidan batamom xushnudlanadilar. Keyin ularda birorta sarf-xarajat na zohirda va na botinda namoyon bo'ladi. Shuning uchun bu tuynuk "hayrat" ("al-baxt") deb ataladi. Zotan, Xoja Ahror

<sup>103</sup> Алишер Навоий. Бадоеъ ул-бидоя/Мукаммал асарлар тўплами. Биринчи жилд. – Т.: Фан, 1987– Б.473.

ta'kidlaganidek, "Qachonki Alloh taolo bu bandaning boqiy qolishini iroda qilsa, uning qalbiga bir bulut yuboradi. U qalb mana shu nuqtadan kengayotgan nur orasini o'rab oladi. Shundan so'ng nur unda aks eta boshlaydi. Ruh bilan a'zolar hayratdan xalos bo'ladilar. Mana shu yonib yo'q bo'lib ketishdir, mustahkam barqarorlikdir. Demak, mana shu bulut ortida rasmi qolganligi uchun shohid bo'lib qolaveradi. Tajalli esa hamisha boqiy qoladi. Hech qachon bu qalb teshikdan yo'qolmaydi"<sup>104</sup>.

Navoiy fikricha, fayz tushunchasining ma'no ko'lami nihoyatda keng. Bu so'fiyona istiloh mazmun-ma'no jihatidan irfoniy haqiqatlar sirini ochishga doir masalalarni qamrab oladi. Darhaqiqat, fayz tasavvuf adabiyotida "fayzi aqdas", "fayzi muqaddas", "fayzi rahmoniy", "fayzi ilohiy", "vajhi nos" kabi turlarga ajratiladi. Shulardan "vajhi nos"da borliqda har narsa mavjud bo'lsa, o'shaning zotiy tajallidan nasibasi bo'ladi. Shoir aytganidek, arbobi zavqdan bo'lgan har bir inson "Ey soqiy, safosini ol, iflosini tashla!" ("Ayyuha-s-soqiy lano da' mo kadar xuz mo safo!")<sup>105</sup> ma'nosini o'ylab, o'zlarining axloqlarini poklash maqomida bo'lishlari kerak. Fayzi ilohiydan nimaiki yetsa, shukr qilib, riyozat chekishni tark etmasliklari eng to'g'ri yo'ldir. Aniqroq aytganda, inson qalb ka'basini poklash uchun tinimsiz riyozat chekishi, ko'ngilni dunyoviy mayllardan butkul uzib, uzlatga olishi kerak.

Shoir talqiniga ko'ra, islomdan ilgari o'tgan yahudiy va nasroniylardan bo'lgan Abdulloh ibn Salom, Habashiston podshohi Najoshiy kabi ayrim tarixiy shaxslar ilohiy fayz orqali Qur'oni Karim (Muhammad s.a.v.ga) nozil bo'lganidan xabar topishgach, o'zlarining kitoblari Tavrot va Injildagi Tangri taolo o'zining oxirgi Payg'ambarini yuborishi borasida bergan va'dasi amalga oshganidan shodlanib, Muhammad alayhissalomga imon keltirgan ekanlar:

*Fayz ar o'tdin etar, Parvez etib ul er tutar,  
Chun nabi sari xayol ichra Najoshiy evrulur*<sup>106</sup>.

Navoiy nazdida, ilohiy fayz tushunchasini teran anglamagan kishi Payg'ambar (Muhammad s.a.v.)ning qanday zot ekanliklari, surat va siyratlarini chuqur his va idrok etish baxtiga musharraf bo'la olmaydi. Aslini olganda, shoir nazarda tutgan ushbu baytdagi bosh maqsad ham she'rxonga Payg'ambarning xislat va fazilatlarini tasavvur qildirishdan iborat (Mazkur baytdagi *Parvez, Najoshiy* tarixiy shaxs nomlari nashrda kichik harflar hamda ayrim nuqsonlar bilan ifodalangan: *parviz, nachoshi* – M.A.). Shu ma'noda an'anaviylikka xos Navoiy lirikasidagi Payg'ambar (Muhammad s.a.v.) timsoli ana shunday irfoniy ishora va

<sup>104</sup> Хожа Убайдуллоҳ Ахрор. Табаррук рисоалар. – Т.: Адолат, 2004. – 119 б.

<sup>105</sup> Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб/Мукаммал асарлар тўплами. 4-жилд. – Т.: Фан, 1989 – Б.29.

<sup>106</sup> Алишер Навоий. Фавайид ул-кибар/Мукаммал асарлар тўплами. 1-жилд. – Т.: Фан, 1990 – Б.112.

ma'nolar bilan idrok etilishi maqsadga muvofiq. Binobarin, mazkur baytning keng talqini quyidagicha: rivoyatlarga ko'ra, qadim zamonlarda Sharqda Hurmuz binni Anushirvon degan bir zolim podshoh bo'lgan. Uning Parvez ismli o'g'li bo'lgan. Kunlardan bir kuni Anushirvon saltanatida fitna yuz beradi. Anushirvon bu fitna sodir bo'lishida o'g'li Parvezning ham qo'li bor deb gumon qiladi. U mulozimlariga o'g'lini tezda ushlab, qatl ettirishlarini buyuradi. Ammo Parvez otasi tazyiqidan Arman viloyatiga qochishga ulguradi. Oradan ancha yillar o'tgandan so'ng Hurmuz saltanati inqirozga yuz tuta boshlaydi. Bundan norozi bo'lgan davlat a'yonlari Hurmuzning ko'ziga mil tortib, qatl etadilar va uning o'rniga o'g'li Parvezni podshoh qilib tayinlaydilar. Demak, shoir nazarida, agar Tangridan ilohiy fayz etsa, har qanday qabohat, albatta, barham topajak. Zero, shoir o'shanday alg'ov-dalg'ov zamonlarda Parvezdek bir bechoraning podshohlik maqomiga ko'tarilishi kimning ham xayoliga kelgan edi, deydi. Shu ma'noda, shoir ilohiy fayzning muqarrarligini, uning asosini Payg'ambar (Muhammad s.a.v.)ga bog'laydi va u zotning timsolida ilohiy fayzni yanada aniqroq, ilmiyroq mukoshafa etishga harakat qiladi: diniy kitoblardagi tarixiy shaxs Najoshiyning ilohiy fayz topganligini e'tirof etadi. Ya'ni Najoshiy va uning safdoshlari o'zlarining ilohiy kitoblaridan kelajakda Muhammad (s.a.v.)ning tavallud topishi, unga Qur'oni Karim tushishi, u oxirgi Payg'ambar bo'lishi kabi mujdani payqaydilar va unga imon keltiradilar. Bunga sabab ularning ilohiy fayzdan bahramand bo'lishlaridir. Binobarin, shoir lirikasidagi ko'plab g'azallar islomiy xarakterdagi g'oyalar mahsulidir. Illo, Navoiy o'z she'riyatida diniy-an'anaviylik va islomiy timsolni qo'llashda naqadar chuqur yondashgan. Ayni paytda esa she'riyatga bunday yondashish milliy adabiyotning diniy-an'anaviy uzluksizligini ta'minlovchi mezon hamdir. Buning uchun o'rni bilan shoir g'azaliyotidagi o'ta botiniy, murakkab, aniqrog'i, tushunilishi qiyin diniy ruhdagi g'azallar matnini to'liq sharhlash, ularni izohlar bilan ta'minlash kerak.

Navoiyning har bir g'azali qatida surat va ma'no uyg'unligi mujassam. Zero, har narsa faqat ko'rinishdangina iborat emas. Suratning zamirida esa, botiniy ma'no-mohiyat bor. G'azaliyotdagi bunday xususiyatlar ko'pincha ramz-ishoralarda tilida bayon etiladi. Lekin, ularning badiiy yechimi ba'zan yolg'iz mushafgagina borib taqaladi. Ya'ni, ular Alloh kashshofligidagi olamlarning azaliy ko'rinishi-yu Odamning yaratilishi singari ilohiy hodisalar bilan mushtarak tarzda talqin qilingandagina bo'y ko'rsatadi. Bular esa mushafsiz anglashilmaydi. Albatta, bu – g'azaliyotda azal-azaldan an'ana tusini olib ulgurgan edi.

Ulug' shoirning chuqur e'tiqodiga ko'ra ham, har bir musulmon farzandi, ayniqsa, Sharq ijodkori g'azaliyotdagi surat va ma'no vobastaligini teran mushohada qilishi uchun so'nggi nabiyning asl mohiyatini bir ichki sezim orqali

idrok eta olishi joiz. Shundagina u chinakam sharqona she'riyat zamirida jo bo'lgan surat va ma'no mohiyatiga yetadi. Illo, she'rxon bu nabiyning surat va siyrati-yu, uning zamon va makon evrilishlari aro tutgan maqomini chuqur his va teran fahm etmay turib, ulug' mutafakkir g'azaliyotidagi surat va ma'no masnadini anglashi ancha mushkul. Ayni shu ma'noda Navoiy g'azaliyoti zamiridagi bunday botiniy xususiyatlarning ma'lum bir qismi Payg'ambar madh etilgan oyati karimalar ta'sirida vujudga kelgan deyishimizga asos bor.

Endi ana shunday na't g'azallar sirasiga kiruvchi "G'aroyib us-sig'ar"ning 114-g'azalini to'la izoh-sharhini keltiramiz.

Shuni aytish joizki, 9 baytli bu na't g'azal Payg'ambar va uning arzu samo ichra azaliy surat va ma'no mutanosibligiga qay tarzda daxldorligi borasidagi tasavvurimizni yanada kengaytirishda muhim adabiy omil bo'lib xizmat qiladi. Endi baytlar sharhiga o'taylik.

*Odamki, bashar nasli silkiga erur payvand,  
Suratda sanga volid, ma'noda sanga farzand.*

Ushbu bayt mazmuniga ko'ra, inson Odam Atodan tarqalgan, uning zurriyotidir. Ammo u sen (Mustafo (s.a.v.) nazarda tutilgan – M.A.) ga faqat suratda, ya'ni dunyoviy o'lcham ko'rinishidagina ota, ma'noda esa senga farzanddir. Zotan, sening nuringni ulug' Tangri taolo bashariyatni yaratmasdan burun yaratib qo'ygan edi. Negaki, Tangri taoloning insonni yaratishidan murodi ham sen eding. Ulug' mutafakkir bu manzarani boshqa bir asarida shunday obrazli tarzda bayon etadi: "U Odam Atodan ham ilgari mavjud bo'lib, ham nabi, ham sirlar ogohi edi. U olti kunda yaratilgan olamdan burun ham nur hoida bor edi. Bu shunday nurki, u yuz izzat va sharaf egasidir. U – ma'shuq, yaratuvchi – ishqivoz edi. Alloh Bulbasharni yaratguniga qadar, bu nur uzoq yillar haq nazaridan bahramand edi. Bulbashar vujudi yaratilganda uning yuzi shu yulduz nuridan kamol topdi"<sup>107</sup>.

Ikkinchi baytda matla'dagi badiiy kayfiyat, ya'ni surat va ma'no munosabatlari YUusuf Payg'ambar go'zalligi misolida namoyon bo'ladi. Bu o'rinda Yusuf – surat, Mustafo (s.a.v.) esa, nur – ma'no ramzidir:

*Yusufki, jamol ichra ma'dum edi monandi,  
Topmadi malohatda husnini sanga monand.*

Yusuf Payg'ambarlar orasida go'zallikda tengi yo'q edi, ey Mustafo (s.a.v.), lekin malohat – joziba bobida u ham senga o'z husnini teng topmadi.

Uchinchi baytda ham birinchi, ikkinchi baytlardagi kabi ramziy ma'no Iso va so'nggi mursal timsolida ifodalanadi:

---

<sup>107</sup> Алишер Навоий. "Лисон ут-тайр", насрий баён. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – Б.272–273.

*Iso damidin o'lgankim, ruh topar erdi,  
Bilgachki, topar dining, jon topti bo'lub xursand.*

Mazkur baytning mazmuni: bir zamonlar Iso Payg'ambarning muborak nafasidan o'liklar ham ruh, ya'ni jon topar edi. Biroq sening botiningni bilgan musulmon farzandlari endi nafaqat adolatli diningni topdi, balki undan ham ortiq jon topib, bundan behad masrur bo'ldilar. Chunki bu tiriklik shunchaki bir tiriklik emas, botiniy tiriklikdir. Axir, unda botin olami mujassam edi. Shuningdek, ushbu bayt zamirida Qur'onda keltirilgan, ya'ni Iso Payg'ambar Rasululloh (s.a.v.) ning o'zidan ustunligiga iqrar bo'lganligi haqidagi "Zumar" surasining 22-oyati ma'nosiga ishora ham yo'q emas: "Axir, Alloh ko'ksini Islom uchun keng qilib qo'ygan, bas o'zi Parvardigori tomonidan bir nur – hidoyat ustida bo'lgan kishi kufr zulmatlarida adashib-uloqib yurgan kimsa bilan barobar bo'lurmi ?!"<sup>108</sup>.

*Davron chamanidin sen ul lahzaki, chiqding, gul  
Tirnog'lar ila qildi ruxsorini yuz parkand.*

Baytning qisqacha mazmuni: ey Mustafo (s.a.v.), sen qachonlardir davron gulzorida sarvi guldek bo'y tortib chiqqaningda hattoki gul xijolatdan tirnog'lari bilan o'z ruxsorini timdalab tashlagan edi.

*Shahlarg'a gado andoqkim keldi bukun muhtoj,  
Tongla bo'lubon shahlar ehsoniga hojatmand.*

Ushbu bayt mazmuni: albatta, shunday bir kun keldi ham, ya'ni uning (Mustafo s.a.v. ko'zda tutilgan – M.A.). Yerga kelishi-yu, Tangri taoloning muborak so'zlarini insoniyatga yetkazishi barakotidan endilikda shohlar-da o'ta adolatli va muruvvatlidir. Buni qarangki, ular hatto erta tongdan g'aribu g'urabolarga, ya'ni barcha miskin va gadolarga saxovat qo'llarini cho'zdilar. Bu naqadar ajib bir ko'rinish edi.

*Gesu sanga bo'lmishdur chun silsilayi maqsud,  
Majnunung erur jonlar, qil silsila birlan band.*

Ulug' mutafakkir baytda she'riy mantiq va taxayyul kuchi orqali shunday badiiy kayfiyatni bayon etadi: axir soch, kokil senga murod, orzu silsilasi – zohiriy maqsad vositasigina edi, xolos. Endi ko'yingda majnun bo'lganlarni ana shu silsila bilan band qilgin. Aniqrog'i, seni deganlarni surating zamiridagi ma'no bilan asir qil. Ushbu bayt zamirida ham ramziy ma'no mujassam. Zero, shoir bu o'rinda ham yana Payg'ambar madh etilgan oyatlar ma'nosiga ishora qiladi. Ularda Rasulullohning sochi, ko'zi, qoshi tarannum etilgan. Darvoqe, bu ko'rinish borasida ulug' shoirning boshqa bir she'rida shunday satrlar bor: "Surai "Vashshams" tafsiri yuzi bobindadur, Sharhi "mo zog'al-basar" nargislari xobindadur" singari.

<sup>108</sup> Куръони Карим/Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Т.: Чўлпон, 1992. – Б.340.

*Shakkarga uzubatda nutqung ne ajab kulsa*

*Kim, erninga esh bo'lmish axloq aro shakkarxand.*

Baytning muhtasar ma'nosi: ey Mustafo (s.a.v.), fasohat va balog'at bobida kaloming shakardan ham shirin bo'lsa, ne ajab. Negaki, bu xuddi labingda, ya'ni go'zal xulq-atvoring ichra chiroyli shirin tabassumdek tajassum topganga o'xshaydi.

*Yo'q bo'ldi kalomingdin asfori samo barcha*

*Asfori samoviydin bo'lg'an kibi yo'q Pojand.*

Endi shoir bu baytda ilohiy kalomning qudrati suratida emas, balki uning botiniy ma'nosida ekanligi haqidagi sobit xotirlarini ochiq-oydin ilgari suradi: ya'ni ey Rasul, Tangridan tushirilayotgan ulug' kaloming bois avval ko'kdan nozil bo'lgan (tushgan) *asfori samoviy* – Tavrot, Injil, Zabur singari osmoniy kitoblarda o'z ilohiy kuchini yo'qotdi, ya'ni so'nggi ilohiy Kitob oldida hech bo'ldi. Zotan, ko'kdan nuzul bo'lgan – ingan bu ilohiy Kitoblar barobarinda qadim mif yodnomalariga oid *Pojand* – Jand, ya'ni Zand tomonidan yozilgan o'tparastlik dini haqidagi kitob ham yo'qqa chiqqani singari. Albatta, bular bejiz emas. Chunki so'nggi mursal hech vaqt so'z suratiga mag'rur bo'lib, orzu bilan so'zlamaydi. Illo, u kalomning haqiqiy egasini taniydi. Axir ul zot har na so'yilasa-da, ma'nodan, ya'ni vahiydan boshqa narsa ham emas.

*Ne kelsa Navoiyg'a sendin yuz evurmaskim,*

*Ul zarra durur, sen mehr, ul bandavu sen xovand.*

Avvalo, maqta'dagi notanish bo'lgan xarakterli so'z ma'nosini izohlaylik. Bu – forsha *xudovand* so'zining qisqargan shakli *xovand*dir. Uning lug'aviy ma'nosi "xudo". Shu ma'noga ko'ra, baytni quyidagicha sharhlash mumkin: endi Navoiyga kajraftor falakdan ne kelsa ham sendan hech vaqt yuz o'girmaydi. Chunki u (mursal) bir zarra bo'lsa, sen quyosh, ya'ni ulkan mehr, agar u bir banda bo'lsa, axir sen Parvardigori olamsan. Agar bu o'rinda *xovand* so'zining ko'chma "sayyid" ma'nosini qo'llasak, u holda bayt zamirida quyidagi ma'no mavjud: endi Navoiyga kajraftor falakdan ne kelsa ham sendan hech vaqt yuz o'girmaydi. Chunki u (Navoiy) bir zarra bo'lsa, Sen quyosh, ya'ni ulkan mehr, agar u bir oddiy qul bo'lsa, axir Sen har qanday balolarni qaytarguvchi *xovand* – sayyidlarning sayyidisan-ku. Ya'ni suratdagina odam, ma'noda esa, necha ming yillar burun ham nur holda mavjud bo'lgan malaksan. Bu bayt qatida ham faqat Payg'ambar madh etilgan oyati karimalar ma'nosiga ishora bor.

G'azalning boshidan oxirigacha ma'no va surat mutanosibligi – anbiyo, sayyid ul-mursalin Muhammad Mustafo(s.a.v.) ning sifatlari orqali asta-sekinlik bilan namoyon bo'la boradi. Shuni aytish joizki, g'azal zamiridagi botiniy

ma'nolar sharhini quyidagi rumiyona ta'rif-tavsif orqali ifodalash ayni muddaodir: "Nabiy o'zining ko'rinishi (surati)dan iborat emas. Ko'rinishi uning ismi. Nabiyning o'zi esa ishq va muhabbatdir! Boqiydir! Xuddi solihning tuyasi kabi. Uning faqat yuzigina tuyadir. Nabiy o'lmas ishq va sevgidan iboratdir". Aniqki, shoir bu g'azal zamiriga ma'noning surat bilan bog'liqligini mufassal jo etgan. Axir, "Ikkalasi birlashmaguncha foyda ham bo'lmaydi". Zero, "Surat ma'no nuridir... Demak, ustunlik – suratda emas, mohiyatda, undagi javhardadir" (Rumi).

Navoiyning biz yuqorida sharhlashga uringan g'azalida nur – ma'no, aslida suratdan oldin paydo bo'lgan, ya'ni ma'no birlamchi degan fikr ilgari surilgan. Ko'rinadiki, mazkur g'azal misralari zamirida ana shunday botiniy ma'nolar olami bor.

Ulug' bobomiz she'riyatidagi so'zlarning turfa xil rangin ma'nolari shuncha ko'p va jozibki, ularning tubiga yetishga aql ojizlik qiladi. Bu uning so'z qoidasi borasida aniq pozitsiyaga ega bo'lganini anglatadi:

*Kim oz dedi nukta ayshu kom o'ldi anga,  
So'z qoidasida intizom o'ldi anga...*

Navoiy badiiy matndagi har bir so'zning betakror, purma'noga ega bo'lishiga erishgan ulug' so'z san'atkorigina bo'lib qolmay, balki o'zining munazzah (pok, latif) tuyg'ulari va go'zal tashbihlari orqali har bir so'zni mangu ko'ngil olamiga yo'naltira olgan buyuk zot hamdir:

*Zanburning evi kibi ko'nglum teshuk-teshuk,  
La'ling xayoli har teshuk ichinda bol ekin.*

Har holda, ushbu baytni o'qigan, uqqan va undagi yuqori pafosli badiiy kayfiyatni to'liq idrok etgan har bir shoir aql chirog'ida beixtiyor nega menga yaratgan egam shunday bir salohiyat bermagan-a degan, xayol o'ti chaqnashi ham ehtimoldan xoli emas. Shoir nazdidagi chinakam so'z san'atkorining munazzah (pok) ko'ngli, mudom insoniyatni ezgu amallar sari undab turuvchi, xuddi zahmatkash asalarining uyasi singari sarosar sara so'zlarga limmo-lim to'lib turishi joizligi haqidagi so'z qoidasini ilgari surishdan iborat. Shu ma'noda ulug' shoirning quyidagi misralari biz ilgari surgan so'z haqidagi fikr-mushohadalarga yanada aniqlik kiritadi:

*So'z zohir etar zamir ishi ko'pragidin,  
Til muxbir erur ko'ngul nihon emgagidin,  
Fahm ayla kishi holini so'z demagidin,  
Kim berdi xabar hadisi ko'nglidagidin <sup>109</sup>.*

<sup>109</sup> Алишер Навоий. Назм ул-жавоҳир/Муқаммал асарлар тўплами. 15-жилд. – Т.: Фан, 1999. – Б.168 –169.

Shoir ushbu toʻrtligi orqali “Qavl ul mar’i yuxbiru ammo fi qalbihi, ya’ni kishining soʻzi, uning koʻnglidagini fosh etib qoʻyadi”<sup>110</sup>, – deydi. Demakki, ulugʻ mutafakkir “Soʻz qoidasida intizom...” deganda, insoniyat zimmasiga juda katta maʼnaviy masʼuliyatni yuklaydi. Zero, “Majolis un-nafois” asaridan ham maʼlumki, XIV–XV asr zamona shoirlarining soʻzni bayon etish kayfiyati – soʻz qoidasidagi tutumlari, yaʼni undagi maʼno va miqdor oʻzgarishlari doimo ulugʻ mutafakkirning nigohida boʻlgan, umuman, ushbu toʻrtlik mazmuni ham buni koʻrsatib turibdi.

Ushbu faslga xulosa qilar ekanmiz, Navoiy asarlari matnini statistik usulda koʻrib chiqish faqat tilshunoslik nuqtai nazaridan emas, matnshunoslikda ham muhim oʻrin tutadi. Zero, matnshunoslik til va adabiyot bilimlarining oʻzaro uygʻunlashuvidan tarkib topgan sohadir. Negaki, mumtoz adabiyot tarixi matnlari til tarixi nuqtai nazaridan diaxron aspektida tadqiq etish bilan borliq nazariy-amaliy masalalar matnshunoslikda ham oʻrganiladi.

Shoir asarlarining diniy asoslarini oʻrganish ham matn tadqiqida katta oʻrin tutadi. Afsuski, ilgari shoir asarlari matni diniy jihatdan toʻliq oʻrganilmadi. Vaholanki, har bir millat diniy qadriyatlarining matnda ifoda topish yoʻsini, xalqaro nufuzi – xalqining muayyan diniy anʼanaviylik tamoyillariga rioya qilishi, bardavom diniy anʼanaviylik negizida diniy timsollar yaratishi bilan belgilanadi. Zotan, u yoki bu millat shoirlarining badiiy uslubi, sheʼriyatidagi diniy poetik obraz, ramz va timsollarning jilosi diniy-anʼanaviylik zaminidan bahra olib, rivojlanadi. Diniy qarashlar zimnidagi anʼanaviylik, bu – muayyan bir sohaning anʼanaviy-diniy negiz aurasida kelajakda tadrijiy rivojlantirilishi, muvaffaqiyatli bardavomligi, yangi-yangi jihatlari inkishof etilishi zarur boʻlgan ruhoniyyat – diniy hodisa hisoblanadi. Ayni maʼnoda, ish jarayonida shoir asarlarining diniy qatlamlari, undagi matniy-diniy tagmaʼnolar izoh-sharhlar bilan taʼminlansagina akademnashrlarning mukammalligi taʼminlanadi.

---

<sup>110</sup> Алишер Навоий асарларининг изоҳли луғати. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2018. – Б. 560.

## NAVOIY ASARLARINI MATNIY TADQIQ ETISHDA MATNSHUNOSLIK TAMOIYILLARI

### Orfografik va fonetik, punktuatsion xususiyatlarni hisobga olish tamoyili

Navoiy asarlari leksik tarkibi turkiy, forsiy va arabiy soʻzlardan tarkib topgan. Maʼlumki, turkiy yozma yodgorliklar tili, tovush tizimi, xususan, unlilar arabcha va fors-tojik tillari unlilaridan miqdor jihatdan ham, sifat jihatdan ham tubdan farqlanadi. Matnchi buni hisobga olishi va har bir soʻzning kontekstdagi mazmuniga koʻra toʻgʻri oʻqishi shart etib qoʻyiladi. Xuddi shu aspektda mumtoz adabiyot namunalarini joriy yozuvga oʻgirish, yaʼni transliteratsiya masalasi ham tekstologiya sohasining muhim boʻgʻinlaridan hisoblanadi.

Turkiy soʻzlardagi unli tovushlarning yozuvdagi ifodasi boʻyicha hali jahon matnshunosligida bir qarorga kelgani yoʻq. Bu hol Navoiy asarlarining zamonaviy turkiy tillaridagi nashrlarida ham, xorij olimlarining ingliz va boshqa Yevropa tillarida olib borgan tadqiqotlarida ham koʻzga tashlanadi. Shoir “Majolis un-nafois”, “Muhokamat ul-lugʻatayn” asarlarida mumtoz yozuvimizdagi unlilar haqida qimmatli maʼlumotlar bergan. Ularni toʻplab, tartibga keltirish natijasida XV asr vokalizm va konsonantizmi – mumtoz yozuvimiz haqida zarur maʼlumotlar olish mumkin. Bugun transliteratsiya sohasida yagona unifikatsiyalangan qoidalarga erishishimiz mumkinmi, bu hozircha matnchilikning eng katta muammosi desam yanglishmayman. Avvalo, Navoiyning tovushlar tizimi haqidagi oʻz qarashlariga eʼtibor qaratsak.

Masalan, shoir **a** unlisining sifat xususiyatlari haqida quyidagilarni bayon etadi. “... Ul jumladin biri, Alif (ا) bila ho (ه) orasida munosabat va mushorakat beribdurlarki, bir lafzni ham oxiri alif lafz bila qofiya qilsa boʻlur. andoqki, “yado” (ياد) lafazin “sado” (ساد) bila qofiya qilsa boʻlur, “boda” (باده) bila ham qofiya qilsa boʻlur”<sup>111</sup>. Shoir ushbu misol yordamida eski oʻzbek tilida ikkita **a** unlisi, biri alif (ا) belgisi orqali ifodalanuvchi meʼyoriy choʻziqlikka ega **a** tovushini, ikkinchisi hoyi havvaz (ه) orqali ifodalanuvchi, maʼno ajratish xususiyatiga ega boʻlmagan qisqa **a** unlisi mavjudligini maʼlum qilmoqda. Va nihoyat, shoir asarlarida uchrovchi, jumladan, Navoiyning Tehrondagi saltanat kutubxonasida saqlanayotgan shoir dastxatidagi soʻz boshida keluvchi alifi mamduda (آ) – choʻziq **a** bilan yozilgan: *almishtur*, *atsa*, *agʻuluq* soʻzlarini hisobga olsak, XV asrda uch xil **a** unlisi mavjud boʻlganligi maʼlum boʻladi<sup>112</sup>. Navoiy lablangan unli haqida soʻz yuritar ekan, XV asr eski oʻzbek adabiy tilida

<sup>111</sup> Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн/Мукаммал асарлар тўплами. – Т.: Фан, 2000. – Б. 19.

<sup>112</sup> Шукуров Ш. Эски ўзбек ёзуви имлоси//Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1990.-№ 4. – Б.36–43; Шукуров Ш. Алиф ва унинг вазифалари//Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1990.-№ 5. – Б.19–24; Шукуров Ш. Ҳойи ҳавваз ва унинг вазифалари//Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1991. -№ 5. – Б.20–25.

to'rtta mustaqil fonema bo'lganligini ta'kidlab, quyidagi misollarni keltiradi: "...tur (تور) ki domdur, yana to'r (تور) ki andiq daqiq (ingichka)roqdurki: qush o'lturur yig'ochdur va to'r (تور) ki, andiq daqiqroqdur: uyning to'ridur va to'r (تور) ki, barchadin ariqdur: to'rlug'ni yo eshikni to'rmak uydur<sup>113</sup>.

Ushbu misollardan ko'rinib turibdiki, Navoiy eski o'zbek tilida bir-biridan uzun-qisqalikda farqlanuvchi to'rt mustaqil fonema borligini ta'kidlamoqda. Ulardan birinchisi oddiy cho'ziqlikka ega o' (تور – dom), ikkinchisi (تور – qush o'tiradigan yog'och) birinchisidan qisqaroq bo'lganligi uchun birinchi darajali qisqa u<sup>114</sup>, uchinchisi (تور – uyning to'ri) ikkinchisidan qisqaroq bo'lgani uchun ikkinchi darajali qisqa u; to'rtinchisi<sup>115</sup> (تور to'rliq', eshikning to'ri) uchinchisidan qisqaroq bo'lgani uchun uchinchi darajali qisqa u.

Shoir XV asrdagi i unilari haqida ham qimmatli ma'lumotlar qoldirgan: "Va yoyiy misol uch harakatdan ortiq topilmas: ter (تير) ki, termak ma'nisi biladir. Ter (تير) ki, andin daqiqdur, uldurki, sortlar oni "araq" va "xuy" derlar. Ter (تير) ki, boridin ariqdur, o'q ma'nosi biladur"<sup>116</sup>. Bu misollar XV asr eski o'zbek tilida bir-biridan uzun-qisqalikda farq qilib, ma'no ajratish xususiyatiga ega uchta i unlisi bo'lganligini ko'rsatadi. Bulardan birinchi so'zdagi i unlisini biz i<sup>e</sup> deb oldik, ikkinchi so'zda oddiy cho'ziqlikdagi i, uchinchisida cho'ziq i fonemasi aks etgan. Agar bu ma'lumotlarga shoir asarlardagi q, g' undoshlari yonida keladigan qisqa i unlisini qo'shsak (qыз, g'ыл) XV asrda to'rtta i tovushi borligini bilish mumkin. Bu esa, shoirning "...va turkiy alfozda bu ma'ruf majhul harakat to'rt nav' topilur: ham voviysi ham yoyiysi" fikrini to'la tasdiqlaydi<sup>117</sup>. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bu to'rtta i dan uchtasi fonema hisoblanadi, chunki yuqoridagi misollardan ko'rinishicha, ular ma'no ajratish xususiyatiga ega. Qolgan bittasi (qisqa i) bu xususiyatdan mustasno. Bu unilar yoniga o'sha davr tilida mavjud bo'lgan o'rta keng e unlisini qo'shsak, XV asrda quyidagi unli tovushlar bo'lganligini ko'ramiz: 1) maddali alif – cho'ziq ä; 2) oddiy cho'ziqlikka ega a; 3) hoyi havvaz orqali ifodalangan qisqa a; 4) oddiy cho'ziqlikdagi o'; 5) birinchi darajali qisqa u; 6) ikkinchi darajali qisqa u; 7) uchinchi darajali qisqa u; 8) oddiy cho'ziqlikka ega i; 9) qisqa i; 10) uzun i; 11) i<sup>e</sup> unlisi; 12) e unlisi.

Demak, Navoiy asarlari tilida, ya'ni XV asr eski o'zbek tilida 12 ta unli tovush bo'lgan. Ulardan to'qqiztasi fonema xususiyatiga ega (a, o', u – birinchi darajali qisqa, u – ikkinchi darajali qisqa, u – uchinchi darajali qisqa i, i<sup>e</sup>, i; e) qolgan uchtasi (cho'ziq ä, qisqa a va i) bu xususiyatdan mustasno. Bundan tashqari,

<sup>113</sup> Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн/Мукаммал асарлар тўплами. – Т.: Фан, 2000. – Б. 19.

<sup>114</sup> Алишер Навоий асарларига бағишлаб тузилган "Бадоеъ ул-луғат" маълумотларига асосланиб иккинчи, учинчи ва тўртинчи фонемалар – у килиб олинди.

<sup>115</sup> O'sha asar. – Б. 19.

<sup>116</sup> O'sha asar. – Б.19.

<sup>117</sup> O'sha asar. – Б.19.

yozuv yodgorliklar tilidagi unli tovushlarning imlosi, ayniqsa, alif ( ا ), vov ( و ), yo ( ي ) harflarining imlosi va vazifalarini ayrim turkiyshunos olimlar o‘z ilmiy maqolalarida birma-bir batafsil tahlil qilib o‘tishgan<sup>118</sup>. Ammo keyingi tadqiqotlar mumtoz o‘zbek tilida 12 ta emas 10 ta unli borligini tasdiqlaydi<sup>119</sup>. Ular bir-biridan uzun-qisqalik bilan farq qilgan: **a: - a, i: -i, u: -u, o‘: -o‘, e: -e**<sup>120</sup>. Undoshlar esa 31 ta bo‘lganligini ko‘rsatadi<sup>121</sup>.

*Undoshlar imlosi.* Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” asarining sakkizinchi majlisida Husayn Boyqaro she’riyati haqida fikr-mulohaza yuritarkan, o‘zbek tilidagi undoshlar borasida qimmatli ma’lumotlar berib o‘tadi. Navoiyning fikricha, eski o‘zbek yozuvida yigirma uchta undosh bo‘lgan. Ko‘rinadiki, eski o‘zbek tilida o‘nta unli va yigirma uchta undosh bo‘lgan. Demak, eski o‘zbek yozuvi o‘ttiz bitta harfdan iborat. Ammo, lug‘atshunos Tole Imoniy fikricha, eski o‘zbek alifbosi o‘ttiz besh harfdan iborat bo‘lgan<sup>122</sup>. Bizningcha, bu boradagi keyingi tadqiqot ishlarining natijalariga asoslanish lozim<sup>123</sup>.

O‘tmishda yaratilgan tarixiy, adabiy manbalarni tadbil qilishda, avvalo, u yoki bu yozuvning imkoniyatlari hisobga olinadi. Bunda yozuvning asosiy xususiyatlaridan biri uning grafik belgisi bo‘lib xizmat qila olishidir<sup>124</sup>. Yozuv ma’lum bir ehtiyoj zaruriyat asosida fikrni keyingi avlodlarga qoldirish talabi bilan yaratilgan. Matn transliteratsiyasini amalga oshirishda yozuv muhim o‘rin egallaydi. Zero, qadimgi yozuv yodgorliklari bizgacha moniy, suryoniy, brahma, hind, oramiy, yunoniy-boxtariy, mixxat, avesto, sug‘d, run, uyg‘ur, xorazm, o‘rxun-enasoy, arab, eski o‘zbek yozuvi kabi alifbolar orqali yetib kelgan. Shu jihatdan, arab yozuvida o‘z ifodasi topgan Navoiy asarlaridagi yangi aniqlangan so‘z va iboralarning fonetik, shakldoshlik xususiyatlari alohida e’tiborga molikdir. Ta’kidlaganimizdek, arab yozuvi imkoniyatlari boshqa yozuvlardan tubdan farqlanib turadi. Masalan, bu yozuvda **q, q, g‘** tovushlari izchillik bilan farqlanadi. Grammatik ko‘rsatkichlar tarkibi (so‘z yasovchi va so‘z o‘zgartiruvchilar)da esa, bu tovushlar juda keng qo‘llanilgan. Bunday qo‘shimchalarda **q, g‘** tovushi o‘zak va qo‘shimcha tarkibidagi unlilarning qattiq (orqa qator)ligidan **q, g** esa, ularning yumshoq (old qator)liligidan dalolat beradi va so‘z tarkibidagi unlilar tabiatini aniqlashga yordam beradi. Ikkinchidan, qisqa unlilarning yozuvda ifodalanmasligi

<sup>118</sup> Шукуров Ш. Эски ўзбек ёзуви имлоси//Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1990.-№ 4. – Б.36–43; Шукуров Ш. Алиф ва унинг вазифалари//Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1990.-№ 5. – Б.19–24; Шукуров Ш. Ҳойи хавваз ва унинг вазифалари//Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1991. -№ 5. – Б.20–25; Алишер Навоий: қомусий луғат. – Б. 392–393.

<sup>119</sup> Умаров Э. Долгота – краткость гласных в староузбекском языке. – Т., 209. – С.28.

<sup>120</sup> Умаров Э. Алишер Навоий унли ва ундoshлар ҳақида. – Т., 2017. – Б.30.

<sup>121</sup> O‘sha asar. – Б.30.

<sup>122</sup> Умаров Э. Эски ўзбек луғатлари. – Т., 1992. – Б.4.

<sup>123</sup> Умаров Э. Алишер Навоий унли ва ундoshлар ҳақида. – Т., 2017. – Б.32.

<sup>124</sup> Шукуров Ш. Эски ўзбек ёзуви имлоси//Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1990.-№ 4. – Б.22.

nafaqat arabcha, forscha, balki turkiy so‘z va qo‘shimchalarning matndagi imlosini aniqlash uchun, ba‘zan bir harakat belgisini ikkinchi bir harakat belgisi bilan yozish imkoniyatini beradi. Uchinchidan, turkiy so‘zlar imlosidagi rang-baranglik unli tovushlarni yozuvda mumkin qadar to‘la aks ettirish imkoniyatini beradi va so‘zdagi unli tovushlarni aniqlashga yordam beradi. Tovushlarni adekvat o‘tkazish muammosi oldimizga Navoiy asarlarini transkripsiya usulida berish afzalmi yoki arabiy harflarni joriy alifboga o‘tkazish ma‘qulmi (transliteratsiya usuli), degan masalada aniq bir yechimga kelishni talab qiladi. Jahon navoiyshunosligi tajribasini kuzatadigan bo‘lsak, Turkiyada bu masalada ancha tajriba to‘plangan. Xususan, ular mumtoz adabiyot namunalarini hozirgi turk yozuviga transliteratsiya qilishda deyarli bir xil murakkablikdagi transkripsiyadan foydalanadilar. Ularni quyidagi misollar vositasida ko‘rsatish mumkin:

“Fevayidü’l-kiber”:

*Cins-i beşer yok āgehing hūrşîd hāk-i dergehing  
Kök mehd ara tîfl-i rehing yitti ata vü tört ana*<sup>125</sup>.

“Hayratü’l-ebrâr”:

*Rişte imes tırfe kemendîdür ol  
Devlet ü dîn şaydiğa bendîdür ol  
Kaysi kemend olmadi hergiz kemend  
Ravza-i Firdevs ğazālîğa bend*<sup>126</sup>.

Ko‘rinib turibdiki, forsiy izofa chiziqcha orqali berilgan. Ingichka – i î belgisi bilan, yo‘g‘on – i esa i belgisi bilan ifodalanadi. Undosh harflarga keladigan bo‘lsak, ular arab yozuidagi harflarni aynan transliteratsiya qilishgan. Yo‘g‘on – o‘ ö belgisi bilan, ingichka – u esa ü belgisi bilan berilgan. O‘zbekistonda amalga oshirilgan oxirgi tadqiqotlarda transliteratsiya va transkripsiyani qo‘llashning dastlabki urinishlarini ko‘rish mumkin. Jumladan, Sh.Sirojiddinov -u til oldi unlisini ū shaklida (*bölür*), til orqa – o‘ ni ayrim o‘rinlarda õ shaklida (*õqughānğa*), ayrim o‘rinlarda esa u shaklida (*köngil*); til oldi – i (iy)ni ī shaklida, til orqa – i ni i tarzida beradi, izofalarni chiziqcha bilan ajratgan<sup>127</sup>. A.Erkinovning tadqiqotida -u til oldi unlisi i shaklida (*husn mulki*), til orqa – o‘ unlisi ö tarzida (*öz*), til oldi – i (iy) i shaklida, til orqa – i ni bir joyda ï (*qıldim*), boshqa bir o‘rinda i (*işimdän*) tarzida beradi<sup>128</sup>. A.Erkinov ham izofani chiziqcha bilan ajratgan. Shuni ta’kidlash joizki, har ikkala tadqiqotdagi yondashuv dastlabki urinishlar bo‘lgani uchun kamchiliklardan xoli bo‘lmasligi tabiiy. Masalan, transliteratsiya va transkripsiya elementlari aralashtirib yuborilgan. Undoshlarni berishda, goh

<sup>125</sup> ‘Alî Şîr Nevâyi. Fevâidü’l-kiber. Hazirlayan Onal Kaya.-Ankara, 1996. – .S.5.

<sup>126</sup> Alî Şîr Nevâyi. Hayratü’l-ebrâr.Hazirlayan Muhammed Sabir,Tanju Seyhan. – Istanbul: Kesit, 2016. – .S.81.

<sup>127</sup> Қараһт: Sirojiddinov Sh. Mir Ali Shir Nava’i the great. –Tashkent: G’.G’ulom, 2018.

<sup>128</sup> Қараһт: Erkinov A.Ali Shir Nava’i: Divan of the Aq Qoyunlu admirers. –Tokiyō: ILCAA, 2015.

transliteratsiyalarda qo‘llanadigan arab tiliga xos bo‘lgan tovushni ifodalovchi belgilar (ذ dh, غ gh, ط t, ض d, ص s) ishlatilgan, “yo” berishda ko‘p o‘rinlarda ī va i unilari chalkashtirib yuborilganini ko‘ramiz. Fransuz navoiyshunos olimi Mark Toutant tadqiqotlaridan g‘arb olimlari qo‘llayotgan transliteratsiya haqida tasavvur olish mumkin. Masalan, olim keltirgan Navoiy bayti transliteratsiyasiga ko‘z tashlasak:

*Angla bu qānūn ilā shah khidmatin*

*‘Ayshidin artuq gham ilā mihnatin.*

U “qonun”dagi “o” ā bilan, -u ni ū bilan, ingichka -a ni ä bilan, yo‘g‘on –a ni a bilan, -g‘ ni gh bilan ifodalagan. U “shoh” va “qonun”dagi “o”ni farqlamoqda.

Yana bir bayt:

*Tā bu wasīla bilā tapīb qabūl*

*Maqsad-i aslī sari bolghay nuzūl*<sup>129</sup>.

Bunda M.Toutant boshdagi “to” ni “Tā” shaklida to‘g‘ri berayotgan bo‘lsa ham, “tapīb”da ham talaffuz va ham vazn taqozosiga ko‘ra cho‘ziq bo‘lgan “to” ni “ta” shaklida beradi. Bu uning o‘zbek tili xususiyatlaridan emas, g‘arbiy turkiy til fonetik xususiyatlaridan kelib chiqayotganini bildiradi. Agar biz bu yo‘ldan boradigan bo‘lsak, Navoiyni tabdil qilishda juda ko‘p muammolarga duch kelishimiz mumkin. Q.Sodiqov Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” tabdilida quyidagi transkripsiya usulini qo‘llagan. Unga ko‘ra:

*a* – tilning tagidan chiqadigan (orqa qator), “yo‘g‘on”, keng, lablanmagan unli;”

*ā* – tilning uchidan chiqadigan (old qator), “ingichka”, keng, lablanmagan unli;

*e* – tilning uchidan chiqadigan, “ingichka”, “yopiq”, lablanmagan unli.

*ī* – tilning tagidan chiqadigan, “yo‘g‘on”, tor, lablanmagan unli;

*i* – tilning uchidan chiqadigan, “ingichka”, tor, lablanmagan unli;

*o* – tilning tagidan chiqadigan, “yo‘g‘on”, keng, lablangan unli;

*ō* – tilning uchidan chiqadigan, “ingichka”, keng, lablangan unli;

*u* – tilning tagidan chiqadigan, “yo‘g‘on”, tor, lablangan unli;

*ū* – tilning uchidan chiqadigan, “ingichka”, tor, lablangan unli.

Undoshlar uchun turkshunoslikda qabul qilingan *b, p, d, t, q, k, γ, g, x, z, s, č, š, y, l, m, n, η, r* harflari qo‘llangan. Bularning ichida: *γ* harfi o‘zbekcha kirill xatidagi *g‘* ga, *č* – *ch* ga, *š* – *sh* ga to‘g‘ri keladi.

Shuningdek, asarning arab yozuvli qo‘lyozmalarida ishlatilgan *ġ* tovushi *ž* bilan berilgan.

<sup>129</sup> Toutant M. Adab according to Mir ‘Ali Shir Nava’i/Алишер Навоий ва XXI аср. Халқаро илмий-назарий анжуман материаллари. – Т., 2018 йил, 8 феврал. –pp.110–121.

Turkiy soʻzlarda soʻz ichi yoki soʻz oxirida kelgan  $\delta$  harfi transkripsiyada  $\delta$  bilan ifodalangan.

Arab tilidan oʻzlashgan soʻzlarda ishlatilgan, arab tiligagina xos boʻlgan ayrim tovushlar uchun quyidagi belgilardan foydalanilgan:  $\delta$  harfi uchun –  $\delta$ ;  $\delta$  uchun –  $h$ ;  $\delta$  uchun –  $h$ ;  $\delta$  uchun –  $\delta$ ;  $\delta$  uchun –  $\delta$ ;  $\delta$  uchun –  $\delta$ ;  $\delta$  uchun –  $\delta$ ;  $\delta$  uchun –  $\delta$ .

Shuningdek, arabcha va forschadan oʻzlashgan soʻzlardagi choʻziq unlilarni berishda oʻsha unlini ifodalagan harfning ustiga chiziqcha tortib ketilgan:  $\bar{a}$ ,  $\bar{i}$ ,  $\bar{u}$  singari<sup>130</sup>. Q.Sodiqov tavsiyasi batafsilligi bilan eʼtiborga loyiq. Ammo bugun oʻsha davrda Navoiy talaffuzining aynan shunday boʻlgani va toʻlaligicha turkiy til fonetikasiga boʻysundirilganiga kim kafolat bera oladi? Navoiyning “Muhokamat ul-lugʻatayn”dagi mulohazalari faqat turkiy soʻzlarga taalluqlidir. Biroq Navoiy asarlaridagi leksik qatlamning sakson foizini arabiy va forsiy soʻzlar tashkil etadi. Transliteratsiya qilish ishlarida ularni ham turkiy tillar fonetikasi asosida qarab chiqish toʻgʻri boʻlmasa kerak.

Qisqacha qilib aytganda, transliteratsiya qoidalarining yagona tartibi ishlab chiqilmaguncha bunday turfaxilliklarning boʻlishi tabiiy.

Bizningcha, Navoiy asarlari transliteratsiyasida faqat turkiy soʻzlarga tegishli yerlarda imkon qadar Q.Sodiqov tavsiya etayotgan transkripsiya usulini qoʻllagan maʼqul. Biroq bu ham juda mushkul vazifa. Buning uchun qadimgi turkiy til qonuniyatlarini bilish talab qilinadi. Shu nuqtai nazardan transliteratsiya usulini qoʻllash muayyan darajada shoir asarlarini ilmiy jamoatchilikka tanishtirishga xizmat qilishi aniq. Ushbu masala munozarali va dunyo olimlari yagona fikrga kelmaguncha munozarali boʻlib qolaveradi. Qoʻlyozma asarlardagi soʻz va iboralarning shakliy ifodasi, xususan, tovush tarkibidagi oʻzgarishlar, fonetik variantlarning yuzaga kelishi oddiy bir holat emas. Bu matnning ichki rivojlanish qonuniyatlari, davr muhiti, tillarning oʻzaro taʼsiri, yangi-yangi soʻz va iboralarning kirib kelishi, fan va texnikaning taraqqiyoti singari tamoyillarga asoslanadi. Demak, ularni transliteratsiya qilish jarayonida bu fonetik holatlarni chuqur oʻrganish joiz boʻladi. Bu borada XIV–XV asrlarda yaratilgan Navoiy asarlaridagi ayrim turkiy soʻzlarning imloviy xususiyatlari haqida soʻz yuritish oʻrinlidir. Shoir asarlarida baʼzi turkiy soʻzlardagi unli tovushlar MAT nashrlarida ifodalanmagan. MATdagi bunday soʻzlarni quyidagicha guruhlantirish mumkin:

1. Birinchi boʻgʻindagi **a** tovushi yozuvda ifodalangan:

*Majnun gʻamidin bori azoliq,*

<sup>130</sup> Содиқов Қ. Матни ўқиш ва транскрипцияга ўгириш йўллари/ Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. – Т.: Академнашр, 2017. –Б.25–26.

*Layli o 'lumi uchun qaroliq*<sup>131</sup>.

قراللىق qaroliq [LM,306], ياشيرماك yashirmak [NM,161],<sup>132</sup> يىخنه [NM, 222,427], يىخشىلىك yaxshilik [NM,155], يىشقىماق yashqamoq [ML, 12], قارلۇغاق qarlug'och [MQ,84], قارداشلىغ qardoshlig' [NM, 83], قاراقچى qarochiliq [TAH, 132], قىلۇلە qaylula [NM, 206] va boshq.

2. Birinchi bo'g'indagi **i** tovushi yozuvda ifodalanmagan:

*Bir qadah may bersalar, vah, g'oyati iflosdin,  
Necha la'li qiymatiy topqon gadodek oldaray*<sup>133</sup>.

قىيىماتى qiymatiy [BB,528], قىياغ qiyog' [BV,491] va boshq.

3. Birinchi bo'g'inda **u** tovushi yozuvda ifodalanmagan: “O'z zamonida balki buncha qurun (قرون)larda alardek solik murtoz kishi yod bermas. Qabrlari ham ul kentda o'qdur” [NM, 445].

4. Ikkinchi bo'g'inda **a** tovushi yozuvda ifodalanmagan: “Haqiqiy ishq beqarori va aning tajalliyoti sadamatining beixtiyori, qalaq (قلق) va iztirobda anga yarasha kerak bo'lg'ay” [MQ, 86]. Shuningdek, bu so'z shoirning boshqa asarlarida ham uchraydi قلق qalaq [NM, 356, 359, 418].

5. Ayrim so'zlar ikki xil shaklda yozilgan **a – nul**: شوربه sho'rba [NM,167] – شوربا sho'rbo [NM, 246]; **u – i**: يوقسوزلۇق yo'qsuzluq [NM, 497] – يوقسىزلىك yo'qsizlik [NM, 59], كونگوللۇك ko'ngulluk [NSH, 411] – كونگوللىك ko'ngullik [NM,168,191,236], **g – v**: چوگورتكا chugurtka [TAH, 131] – چوگورتكا chuvurtka [NM,23], **b – p**: چوبروتماق chubrutmoq [FK,114] – چوپروتماق chuprutmoq [MQ, 13], **q – g**: آقلىق oqliq [HA, 223] – آقلىغ oqlig' [MQ, 42], آچىلماغلىق ochilmog'liq [FK,393] – آچىلماغلىغ ochilmog'lig' [HA, 61], آرالىق oraliq [XM,15] – آرالىغ oralig' [NM,1993], **q- k**: قوراغلىق qurog'liq [NM,490] – قوراغلىك qurog'lik [NM,75], كونگولسىزلىق ko'ngulsizlik [HA, 283] – كونگولسىزلىك ko'ngulsizlik [G'S,433], **u – nol**: يوروتاجى yurutachi [MQ, 80] – يورتاجى yurtachi [LT,31] va boshq.

MATda ayrim forsiy so'z va so'z birikmalari ikki xil shaklda yozilgan:

*Qaysi pari paykari huri najod,  
Balki anga huru pari xonazod*<sup>134</sup>.  
*Ki bor ul xayli sargardoni soda  
Sanga farzand, bizga xonazoda*<sup>135</sup>.

<sup>131</sup> Алишер Навоий. Лайли ва Мажнун/Мукаммал асарлар тўплами. – Т.: Фан, 1992. – Б. 306.

<sup>132</sup> Қавс ичидаги қисқартма асар номининг (“Насойим ул-муҳаббат” [НМ], рақамлар эса асар саҳифаларинигина билдиради. Кейинги ўринларда МАТдаги барча асарларнинг номи ана шундай тарзда берилди. Бу ҳақда монографиянинг “Шартли қисқартмалар” қисмига қаранг.

<sup>133</sup> Алишер Навоий. Бадоеъ ул-бидоя/Мукаммал асарлар тўплами. – Т.: Фан, 1987. – Б. 528.

<sup>134</sup> Алишер Навоий. Хайрат ул-аброр/Мукаммал асарлар тўплами. – Т.: Фан, 1991. – Б. 201.

<sup>135</sup> Алишер Навоий. Бадоеъ ул-бидоя/Мукаммал асарлар тўплами. – Т.: Фан, 1987. – Б. 19.

xonazod [HA, 201], خانه زاده xonazoda [BB, 19], آزادمرد ozodmard [NM,75-76], مرد آزاده ozodamard [NM, 326], سرپراز sarparoz [FSH,51] کلاغ پا kalog‘po [ML,11], کلاغ پای kolog‘poy [MQ, 72] va boshq.

MATda ba‘zi arabcha so‘z va so‘z birikmalari ikki xil tarzda ifodalangan: فریضه fariza [NM,109], فریض fariz [NSH,156], شى الله shaylilloh [NSH, 477], شى الله shay’-ul(l)oh [NSH,80], خاتم النبوة xotam un-nubuvva [TAH, 181], خاتم النبوت xotam un-nubuvvat [TAH,177] va boshq.

Shuningdek, ayrim arabcha va forscha so‘zlar joriy alifboda ikki yoki undan ortiq shakllarda uchraydi: عاطارد atorud [SI,202] – atorud [BB,18], – utorid [NSH, 455, HA, 310] – utorud [BV, 477], كىسه بر kissabur [MQ, 36], – kisabur [HA,243], الاه السلام alayhissalom [BB,98], – alayhassalom [NM,150] va boshq.

Navoiy asarlari matnini tadqiq etishda asar tili, unda qo‘llangan so‘z va iboralarning qanday talaffuz etilganini to‘g‘ri bera olish lozimdir. Nuqsonli, ya‘ni punktuatsion belgilari xato qo‘yilgan matn, so‘zlari noto‘g‘ri berilgan matn kitobxonni chalg‘itadi, matn zamiridagi ma‘noni anglashga monelik qiladi. Jumladan, Navoiy asarlari qo‘lyozmalarida hozirgidek tinish belgilari qo‘llanilmagan. Albatta, qisman bo‘lsa-da mumtoz asarlar matni tabdili bo‘yicha matnshunoslikka oid ayrim tadqiqot ishlari qilingan<sup>136</sup>. Endi shu tadqiqot ishlari tahlillariga to‘xtalib o‘tsak.

Shuningdek, matnshunos olim Vahob Rahmonning “Mumtoz so‘z sehri” kitobida ham shu paytgacha mumtoz asarlar matni tabdilida yo‘l qo‘yilib kelinayotgan jiddiy nuqson va kamchiliklar haqida qiziqarli bahs va munozaralar bor. Masalan:

*Zihi buroqing izi hajru sayr barq oso,  
Bu barq sayri bila po‘yasi falak faso<sup>137</sup>.*

Lekin matnshunos olim Vahob Rahmon ushbu baytning ikkinchi misrasidagi “falak farso” so‘zini “falak faso” tarzida yanglish qo‘llagan. Aslida asar nashri tabdilida bu so‘z to‘g‘ri qo‘llanilgan:

*Zihi buroqing izi hajru sayr barq oso,  
Bu barq sayri bila po‘yasi falak farso<sup>138</sup>.*

Shunga qaramasdan, matnshunos baytdagi xatoliklarni maromiga yetkazib ko‘rsatgan. Endi shu bayt bo‘yicha matnshunos tahliliga o‘tamiz:

<sup>136</sup> Хасаний М., Хабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншуносликнинг назарий масалалари. – Т., 2012. – Б. 136; Раҳмон В. Мумтоз сўз сеҳри. – Т.: Ўзбекистон, 2015. – Б.440; Жумахўжа Н. Алишер Навоий асарларидаги “эп”, “қолғай”, “шух” сўзларининг маънолари ва матний хусусиятлари. <http://nusratullajumaxoja.blogspot.com/2016/07/blog-post.html>

<sup>137</sup> Раҳмон В. Мумтоз сўз сеҳри. – Т.: Ўзбекистон, 2015. –Б.373.

<sup>138</sup> Алишер Навоий. Наводир ун-ниҳоя/Мукаммал асарлар тўплами. – Т.: Фан, 1987. – Б.11.

“Shu birgina baytda matnshunoslikning eng muhim uchta talabi bajarilmagan”:

1. Otning izi ayriliqqa (hajr) o‘xshaydimi? Muallif otning izini “mehr” (quyosh)ga o‘xshatgan edi. Noshir “mehr” (quyosh) so‘zini “hajr” deb o‘qigan-u uqmagan.

2. Qo‘shma so‘zlar imlosi “barqsayr”, “falakfarso”, “barqoso” buzib berilgan. Natijada “barqsayr” (Buroq nazarda tutilgan) yashinning sayriga aylangan.

3. “Sayr” so‘zidagi izofa inobatga olinmagan. Endi baytning epaqadagi tarzini tiklaylik:

*Zihi buroqing izi mehru sayri barqoso,  
Bu barqsayri bila po‘yasi falakfarso”<sup>139</sup>.*

Ulug‘ shoir asarlari matnini tadqiq etishda tinish belgisi xato ko‘pincha -ki ergashtiruvchi bog‘lovchisi bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan.

Afsuski, bunday nuqsonlar shoir asarlarining 2013-yil “G‘afur G‘ulom” nashriyoti tomonidan nashr etilgan o‘n jildlik “To‘la asarlar to‘plami”da ham yuz bergan. Ayni ma’noda “To‘la asarlar to‘plami”ning “G‘aroyib us-sig‘ar” asaridan olingan ergash gapli qo‘shma gap shaklidagi baytning berilishiga e‘tiborni qarataylik:

*Navoiy firoqingdin aningdek zaif o‘ldi,  
Ki o‘rnida el boqsa degaylar magar yo‘qtur<sup>140</sup>.*

Nashrda birinchi misraning oxiriga vergul qo‘yilgan, keyingi misra esa -ki bog‘lovchisi bilan boshlangan. Aslida -ki birinchi misradagi o‘ldi so‘ziga tegishli bo‘lib, qo‘shma gap “Navoiy firoqingdan shunday zaif bo‘ldiki, agar unga el qarasa u yo‘qku deydilar” degan ma‘noni anglatadi. Matndagi -ki misra boshida kelgani bilan, uni alohida so‘z deya qaramaslik joiz: u inversiya, o‘rin almashishi holatiga ko‘ra shu yerda turibdi; u ergash gapni bosh gapga bog‘lash uchun xizmat qiladi. Shu tufayli vergul birinchi misraning oxiriga emas, -ki dan keyin qo‘yilishi kerak.

Yoki yana bir misol:

*Shahg‘a bormish bu nav‘ ovoza,  
Ki aning bazlig‘a yo‘q andoza<sup>141</sup>.*

Bu baytda ham keyingi gap ki- bilan boshlanayotgani yo‘q. U bormish so‘ziga taalluqli bo‘lib, vergul ikkinchi misradagi -ki dan so‘ng qo‘yiladi. Bu gapning qurilishi shunday: “Shohning qulog‘iga shunday ovoza etibdirki, go‘yo

<sup>139</sup> Раҳмон В. Мумтоз сўз сеҳри. – Т.: Ўзбекистон, 2015. – Б.373–374.

<sup>140</sup> Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб/Тўла асарлар тўплами. – Т.: Гафур Ғулом нашриёти, 2013. – Б. 171.

<sup>141</sup> Алишер Навоий. Сабъаи сайёр/Тўла асарлар тўплами. – Т.: Гафур Ғулом нашриёти, 2013. – Б. 500.

Mas’udning tengi yo‘q emish”. Albatta, shoir asarlari matni transliteratsiyalarida tinish belgilarning, ayniqsa vergulning o‘rni beqiyos. Zero, bir vergul noto‘g‘ri qo‘llanilsa matn ma’nosi butunlay o‘zgarib ketadi:

*Navoiy, ahli junun zumrasig‘a kirdi ilohiy,  
Chu aylading ani Majnun, o‘zingni qil anga Laylo*<sup>142</sup>.

Ushbu baytni matnshunos olim Vahob Rahmon quyidagicha matniy tahlil qilib o‘tgan: “Baytlar qiyosida “ilohi” va “ilohiy” farqli holatlari kuzatiladi, xolos, fikr o‘sha-o‘sha. Mulohaza qilaylik. Alisher Navoiy “Mukammal asarlar to‘plami” yigirma jildligini nashrga tayyorlagan, ayniqsa ikkinchi va to‘rtinchi jildlarning nashrga tayyorlovchisi, mas’ul muharriri, nashriyot muharriri va musahhihlaridan biror kishi shu bayt mazmunini mulohaza va idrok qilganmikanlar?

Agar ushbu kitoblar mutasaddilaridan biri bayt mazmunini mulohaza qilib, bitta vergulning o‘rnini o‘zgartira olganlarida edi. Bayt olami quyidagidek guliston bo‘lardi, navoiyona tus olardi.

*Navoiy ahli junun zumrasig‘a kirdi, Ilohi,  
Chu aylading ani Majnun, o‘zingni qil anga Laylo*<sup>143</sup>.

Navoiy asarlari matni nashrida sifatdosh qo‘shimchasini olgan turkiy so‘zlarning talaffuzi ham o‘zgartirilgan: qolg‘on, bo‘lg‘on olg‘on singari. Ularni qolg‘an, bo‘lg‘an, olg‘an tarzida berilgani maqsadga muvofiqdir. Holbuki, turkiy til tarixida sifatdoshning -g‘on qo‘shimchasi yo‘q. U qan, -gan, -kan, -g‘an - shakllarida bo‘lgan.

Navoiy asarlari matnini hozirgi yozuvga o‘girishda teng bog‘lovchilar bilan bog‘liq muammolar bor. Zero, shoir asarlari matni nashrida -u – forsha, va esa arab tilidan qo‘llanilgan.

Arab tilida -u , va bog‘lovchilari yozuvda farqlanmaydi, ikkovi ham “vov” harfi bilan ifodalanadi. Shoir asarlari matnlarida ular bog‘lovchi sifatida berilgan. Natijada bu tarz matnning mazmunga ham putur yetgan o‘rinlar mavjud. Masalan, bular Navoiy asarlari matnlarida “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin” shaklida uchraydi. Aslida esa ularni “Layli-vu Majnun”, “Farhod-u Shirin” tarzida berish transliteratsiya qoidasi talabidir.

Ayniqsa, omograflarning turli o‘rinlarda turlicha o‘qilishi lozimligi diqqat e’tiborida bo‘lishi lozim. Biroq shunday amofoma, omofon va omograflar ham borki, bir xil o‘qiladi va bir xil yoziladi. Ushbu masalalar tadqiqotda qator misollar vositasida tahlili qilingan.

Misol tariqasida quyida ulardan ayrimlarini keltirib o‘tamiz:

هنک *hang* I – bosiqliq, hushyorlik; bilimli:

<sup>142</sup> Алишер Навоий. Наводир уш-шабоб/Мукамал асарлар тўплами. – Т.: Фан, 1989. – Б. 8.

<sup>143</sup> Раҳмон В. Мумтоз сўз сеҳри. – Т.: Ўзбекистон, 2015. – Б.372–373.

*Shayx Sharif Balxda debdurki, bizning Abu Mansurg'a Hiriya bir o'g'ul bo'ldi. Andoq hang. Va hang lafzidurki, jame' yaxshiliklar anda darjdur [NM, 229].*

هنك *hang* II – askar, qo'shin, lashkar:

*Qirqqandin iki-uch kun o'tibon bo'lmish edi,*

*O'ylakim **hangi** pay etkaylar iki dilkash yoy [BV, 407].*

كالا//كالا *kola* // *kolo* I – mulk, qimmatli narsalar:

*[Hoja Qutbiddin Yah'yo Nishoburiy q.s.]. Va yetti qatla haj guzarlabdur. Bir kun o'z qay va kolosi boshig'a yozig'a borg'ondur [NM,409].*

كاله *kola* II – qovoq, sharob uchun qovoqdan tayyorlangan idish, sharob saqlanadigan qovoq:

*Piyola birla may og'zing'a ko'pdin quyma, ey soqiy,*

*Kim ul javharg'a go'yokim munosib kayl erur **kola** [NN, 459].*

مورچه *mo'rcha* I – chumoli, qumursqa:

*Savodi xoli aning la'li ruhparvar aro,*

*Magarki **mo'rcha** nisfi uzuldi shakkar aro [NN, 26].*

Yoki:

*Mo'rcha ming sheri jiyon qila olmag'an ishni nechuk qila olg'ay ... [G'S,15].*

مورچه *mo'rcha* II – qumursqalarcha, chumolilarcha:

*Dashti fanoni **mo'rcha** yo'q sherlarga saf,*

*Garchi maxuf yo'ldurur, et azmu lotaxaf [BV, 218].*

فسوس *fusus* I – afsus, nadomat:

*Navoiy, tiling asrag'il zinhor,*

*Olsangkim, emay dahr ishidin **Fusus** [BB, 633].*

فصوص *fusus* II – 1. uzuk qoshiga o'tkazilgan qimmatbaho tosh; 2. ilmi kalomga daxldor kitob nomi:

*La'ling nigini sharhidadur go'yiyo **fusus**,*

*Har juzvida nishonai vaqf ayladi bu fas [NSH, 198].*

Muhiddin Ibn al-A'robiyning tasavvufga doir "Fusus al-hikam" [hikmatlar toshi] nomli asari (payg'ambarlik burch-uhdalari borasida majoz va imo-ishoralarga to'la arab tilida yozilgan kitob:

*[Shayx Sadriddin Ravosiy ]. Badaxshon shohig'akim, anga murid bo'lib erdi, "Fusus" dars aytur erdi, ko'nglumni Base sayd qildi [MN,35].*

چيکين *Chekin* I – o'simlik:

*Bu **chekin** ko'yi emdi bo'ldi qiyog'*

*Ki, ko'ngulni qiyar qiyog' bikin [BV, 481].*

چيکين *Chekin* II – ipak:

*Chekilur erdi sabzai xatti,  
Ko'nglum ichraki dedim ani chekin* [BV, 491].

Shunday qilib, shoir asarlarida uchraydigan shakldosh soʻzlar ham kattagina qismni tashkil etadi va tadqiqotchi eʼtiboridan chetda qolmasligi lozim. Ularning matnlardagi shakliy-maʼnoviy xususiyatlari tilshunoslik ilmi asosida alohida belgilab olishni taqozo etadi.

Bir soʻz bilan aytganda, transliteratsiyada fonetik variantdosh soʻz va iboralarni tahlil etishda eski oʻzbek adabiy tili meʼyorlariga amal qilinishini taʼminlash uchun matnshunoslik, oʻzbek tili tarixi, shuningdek, adabiyotimizning ayrim mumtoz namoyandalari asarlarining asliyatdagi til xususiyatlari va oldingi asrlarda yaratilgan lugʻatlar eʼtiborga olinishi lozim. Zero, MATda shakldoshlik hosil qiluvchi soʻzlarni matnlararo qiyosiy tadqiq etishda asliyat va lugʻat manbalar muhim oʻrin tutadi.

### **Navoiy asarlari matnining transliteratsiyasi jarayonida soʻz tadqiqi tamoyillari**

Mumtoz adabiyotga doir qoʻlyozma asarni nashrga tayyorlash matnshunosdan uni har tomonlama tekstologik tadqiqdan oʻtkazish bilan birga, matndagi har bir soʻzning kitobxonga tushunarli boʻlishini hisobga olgan holda ish olib borishni talab qiladi. Bet ostida yoki matn soʻngida notanish soʻzlar lugʻati ilova qilib beriladi. Navoiy asarlari tili uchun maxsus izohli lugʻat yaratilgan. Shundan maʼlum boʻladiki, shoir asarlari matnini oʻrganishning muhim bir tamoyili – bu, soʻzni matn kontekstidan kelib chiqib toʻgʻri talqin qilish va sharhlab berishdir.

Turkiy manbalardagi soʻz va iboralarni toʻplash, ularni ilmiy izohlash anʼanasi XI asrda yaratilgan “Devonu lugʻotit turk”ka borib taqaladi. Lugʻat muallifi Mahmud ibn Husayn Koshgʻariy oʻz davridagi turli qabila urugʻlari tiliga mansub soʻz va iboralarni yigʻib, kelajak avlod uchun nodir xazina qoldirdi. Bu borada lugʻatshunos shunday yozadi: “Men turklar, turkmanlar, oʻgʻuzlar, chigillar, yagʻmolar, qirgʻizlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini koʻp yillar kezib chiqdim, lugʻatlarini toʻpladim, turli soʻz xususiyatlarini oʻrganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqni ham aniqlash uchun qildim. Ularni har tomonlama puxta bir asosda tartibga soldim”<sup>144</sup>.

Xorazmlik alloma Mahmud Zamaxshariy ham “Maqomot uz-Zamaxshariy”, “Atvoq uz-zahab”, “Al-Musotaqso fi amsol al-arab”, “Navobigʻ ul-kalim” kabi

---

<sup>144</sup> Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Т. I-III. – Т.: Фан, 1960–1963. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Муталлибов; Девону луғотит турк. Индекс-луғат/ Ф. А. Абдурахмонов ва С. М. Муталлибов таҳрири остида. – Т., 1967.

asarlarida arab xalq maqollari va hikmatli soʻz va iboralarini toʻplashga eʼtiborni qaratgan. Binobarin, Navoiy bunday soʻz va iboralar, aforizmlarni Zamaxshariy, Sakkokiy, Ibn Hojib, Taftazoniy kabi lugʻatshunos, soʻzshunos allomalar kabi yigʻgan. Bu borada adabiyotshunos olim Abduqodir Hayitmetov shunday deb yozadi: “Zamaxshariy asarlarining, xususan, “Mahbub ul-qulub”ning yaratilishiga muayyan taʼsiri boʻlgan boʻlishi kerak. Ammo bu haqda biz hali jiddiy oʻylab koʻrganimiz yoʻq”<sup>145</sup>.

Oʻrta asrlarda Mahmud Koshgʻariyga oʻxshash ishni Alisher Navoiy bajardi. Zotan, ulugʻ shoir asarlarida “Devonu lugʻotit turk”da uchragan koʻplab etnonimlar sof tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid atamalar bilan birga kenagas, qovchin, qoʻngʻirot, chigʻatoy, barlos, qiyot, tarxon, arlot, jaloyir, chiyut, turkman, nayman, mangʻit va boshqa turkiy urugʻ, elatlarning nomini takror-takror uchratamiz<sup>146</sup>. Shuningdek, shoir asarlarida xalq ogʻzaki ijodi namunalari, aforizmlar, hikmatli soʻzlar, arab maqollari ham tez-tez uchraydi. Demak, ularni adabiy manbashunoslik va matnshunoslik nuqtai nazaridan chuqur tadqiq etmasdan turib, boshqa matniy tahlillarga tortish maqsadga muvofiq emas. Zero, matnshunoslikning muhim bosqichlaridan biri boʻlgan matn soʻzlari tarixi, imlosi yoki maʼnosi tushunilishi qiyin soʻz va iboralarni tekshirmasdan tadqiqotchida shoir nazarda tutgan fikr-mulohazalar haqida yetarli darajada tasavvur hosil qilinmaydi. Shundagina Navoiy asarlari matnini toʻliq anglash imkoniyati vujudga keladi.

Shunday ekan, shoirning barcha asarlari matnini misrama-misra, qatorma-qator toʻgʻri oʻqish asnosida ANATILda qayd etilmagan, notanish, tushunilishi qiyin soʻz va iboralarni aniqlash, matnlararo qiyoslash tadqiqotimiz vazifasiga kiradi.

Oʻtmishda yaratilgan mumtoz asarlarning yuzaga kelishi va ilmiy-tanqidiy matnlarining yaratilishi bilan bogʻliq jarayonlar tahlili soʻz tarixiga diqqat qaratishga undaydi. Matn tarixi soʻz tadqiqi bilan bevosita bogʻliq jarayon. Har qanday holatda matnni anglab amalga oshirilgan harakatlar mahsulidir. Demak, birinchi navbatda, matn tabdilida eʼtiborni matnda ishlatilgan soʻzlarning shakli, mazmuni va mohiyatini koʻzdan kechirish lozim. Matn tabdilida soʻz tadqiqi jiddiy muammo hisoblanadi. Zero, navoiyshunos, matnshunos olim Porso Shamsiyev fikricha ham, “badiiy matndagi tushunilishi qiyin soʻzlar ustida ishlash tekstologiyada qabul qilingan maqbul tamoyillaridan biri hisoblanadi”<sup>147</sup>. Shuning uchun ham, soʻz tadqiqi tamoyili, eng avvalo, shoir asarlari matnini mumkin qadar

<sup>145</sup> Хайитметов А. Адабий меросимиз уфқлари. – Т.: Ўқитувчи, 1987. – Б.66.

<sup>146</sup> Бу haqda qarang: Умаров Э.А. Навоий давридаги Ҳирот ўзбеклари тили//Адабий мерос. – Т. , 1986. -№ 4. – Б. 39–44.

<sup>147</sup> Оʻsha asar. – Б.25.

kengroq kuzatish imkonini beradi. Ayni ma'noda, shoir asarlarini jahon matnshunosligi va adabiy manbashunosligida o'tkazilgan samarali tajribalar va erishilgan natijalar ko'lamida tadqiq qilishni zaruriy hol, deb bilamiz. Bundan ikki maqsad ko'zlangan: birinchidan, Navoiy ijodiyotining matnshunoslik nuqtaiy nazaridan kompleks o'rganilishiga erishish; ikkinchidan, bu boy empirik dalillarga ega ulkan merosni kitobxonga to'la-to'kis yetkazish va tushuntirish ko'zda tutiladi.

Matnshunoslikda matn tarixi ustuvorlik kasb etib, uni kompleks o'rganish asosida tadqiq etish lozimligi anglashiladi. Bunda, birinchi navbatda, matnni ichki omillar asosida o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, matndagi har bir so'z, har bir ibora, kiritmalarning matnlararo nazariy-amaliy tadqiqi, ma'no ko'lamini aniqlash tadqiqotning qimmatini belgilaydi. Zotan, "asar matni tarixi tushunchasi" muayyan asarning hamma masalalarini qamrab oladi. Asarga aloqador hamma masalalarni faqat to'liq o'rganishgina bizga asar matni tarixini tom ma'noda kashf etish imkonini beradi<sup>148</sup>.

Shu o'rinda yana shuni ham e'tirof etish joiz. Matnshunos olim D.S.Lixachev shunday yozadi: "rus matnshunosligida tanqidiy matn tuzish prinsiplari matnshunos A.Shletser tomonidan ham shakllantirilgan. U tanqidiy matn tuzish tamoyillarini "kichik tanqid" yoki "so'z tanqidi" deb ham atagan"<sup>149</sup>. Ta'kidlaganimizdek, Navoiy asarlari matn tarixini o'rganishning muhim tamoyili matnning kichik birligi bo'lgan so'z tadqiqi ustida izchil ish olib borishdir. Shuningdek, D.S.Lixachev o'z asarida matnshunos S.M.Bondining matn tarixi haqidagi qarashlari borasida so'z yuritib, olimning "*bizni so'zlarning o'zi qiziqtiradi*"<sup>150</sup>, degan iborasiga e'tiborni qaratishi ham bejiz emas edi. Zero, uzoq yillar Navoiy asarlari matni ustida mashaqqatli mehnat qilgan matnshunos olim Porso Shamsiyevning shoir asarlari tiliga bag'ishlab izohli lug'at tuzishi<sup>151</sup> ham fikrimizning yorqin dalilidir. Bizningcha, P.Shamsiyev, S.Ibrohimovlar mazkur lug'atlari yordamida bu muammoni hal etishga harakat qilishgan.

Ko'rinadiki, matn va so'z tadqiqi tamoyilini matnshunoslik va adabiy manbashunoslik nuqtai nazaridan talqin etishga asoslar yetarli. Eng muhimi, bizningcha, u Navoiy asarlari matn tarixi bo'yicha olib boriladigan boy empirik tadqiqotlar uchun jahon filologiya fanlarini o'rganish va amaliyotga tatbiq etish yo'lidagi tajriba sifatida metodologik ahamiyat kasb etadi.

Shoirning boy adabiy, ilmiy merosidagi so'z va iboralarni to'g'ri sharhlashda lug'at manbalarining o'rni beqiyos. Shu jihatdan, Navoiy asarlari yuzasidan

---

<sup>148</sup> Лихачев Д.С. При участие А.А. Алексеева и А.Т.Боброва. Текстология на материале русской литературы. X–XVII веков. – СПб: Алетейя, 2001. – С.34.

<sup>149</sup> Там же. – С.29.

<sup>150</sup> O'sha asar. – Б.38.

<sup>151</sup> Шамсиев П., Иброхимов С. Навоий асарлари луғати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1972. – Б.784.

o‘tmishda va hozirda ham bir qator noyob lug‘atlar yaratilgan. Masalan, “Badoye’ ul-lug‘at”, “Xamsa bo halli lug‘at”, “Abushqa”, “Sangloh”, “Lug‘ati atrokiya”, “Lug‘ati turkiy”, “Lug‘ati chig‘atoyi va turkiy-usmoniy”, “Halli lug‘ati “Xamsa”yi Navoiy”, “Halli lug‘oti chig‘atoyi “Xamsa”yi Navoiy”, “Nisobi Navoiy”, “Lug‘ati Amir Navoiy”, “Dar bayoni lug‘ati Navoiy”, “Halli lug‘oti chig‘atoyi” \* kabi qo‘lyozma hamda Porso Shamsiyev, Sobirjon Ibrohimov tomonidan tuzilgan “O‘zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug‘at” (1953) va yana shu mualliflar ishtirokida “Navoiy asarlari lug‘ati” (1972); “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati” (1983–1985), Botirbek Hasanov tomonidan tuzilgan “Navoiy asarlari uchun qisqacha lug‘at” (1993) singari lug‘atlar shular jumlasidandir. Bu lug‘atlarda Navoiy asarlarida qo‘llanilgan minglab turkiy, forsiy va arabiy so‘z va iboralar izohlangan. Ulardan hozircha nisbatan to‘liqrog‘i IV jildli “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”dir<sup>152</sup>.

Afsuski, Navoiy asarlariga shunchalik ko‘p lug‘atlar tuzilgan bo‘lsa-da, shoirning so‘z boyligini to‘la aks ettira olmaydi. Shoirning 20 jildlik “Mukammal asarlar to‘plami”dagi ayrim so‘z va iboralarni to‘rt jildlik “Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati”dan (ANATIL) qidirganimizda bunga amin bo‘ldik. Navoiy asarlari nashrlarida izohlanmagan, sharhlanmagan so‘zlarning miqdorini aniqlash maqsadida quyidagi tamoyillarga asoslanib ish yuritdik:

- ma’nosi tushunilishi qiyin so‘z va iboralarni har bir jilddan misrama-misra, qatorma-qator o‘qish, qo‘lyozmaga qiyoslash jarayonida yig‘ish;
- so‘z va iboralarning adresati, statistikasini aniq ko‘rsatish;
- nashr va lug‘atda imloviy xatolar bilan yozilgan so‘z va iboralarni qo‘lyozma asosida tuzatish;
- tadqiqotda ANATILda mavjud bo‘lgan ayrim so‘zlarning fonetik variantlarini qayd etish.

Navoiy asarlari matnidan yangi aniqlangan so‘z va iboralarni yig‘ishning nazariy va amaliy tamoyillari hamda u bilan bog‘liq masalalarning umumiy va xususiy jihatlaridan ma’lum bo‘layotirki, jahon matnshunosligi va adabiy manbashunosligida matn va so‘z tadqiqi masalasi alohida tadqiqot sifatida o‘rganilishi, ayniqsa, matn tadqiqi puxta amalga oshirilishi uchun har bir so‘z, har bir iboraning matniy asosi, shakliy-ma’noviy xususiyati ham tadqiq etilishi o‘z e’tirofini topgan bo‘lsa-da, o‘zbek manbashunosligida ayrim mumtoz asarlar matniy tadqiqi bo‘yicha amalga oshirilgan bunday tadqiqot ishlariga yetarli

---

\* Айни пайтда ушбу қўлёзма луғатлар ЎзРФА Абу Райҳон Бериуний номидаги Шарқшунослик институтининг қўлёзмалар хазинасида №7863, 9954, 6803, 3324, 5197 каби инвентар рақамлар остида сақланмоқда.

<sup>152</sup> Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, Т.1. –Т.: Фан, 1983. – Б.656; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, Т.2 –Т.: Фан, 1983. – Б.642; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, Т.3 – Т.: Фан, 1984. –Б. 24; Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, Т.4. –Т.: Фан, 1985. – Б.634.

darajada e'tibor qaratilmagan. Vaholanki, mumtoz asarning matniy xususiyatlarini to'liq, mukammal o'rganish uchun, avvalo, uning mukammal, to'liq holatdagi izohli lug'atini ham tuzish maqsadga muvofiq. Shundagina u yoki bu mumtoz asarning matn tadqiqi to'liq amalga oshirilgan deb, hisoblash mumkin. Shu jihatdan tushunilishi qiyin, notanish so'zlarni aniqlash, uning ma'noviy xususiyatlarini belgilash, matn orasidagi o'rnini his qilish kabi bir qator ilmiy vazifalar oldimizda ko'ndalang bo'ldi. Matnni tadqiq etishda so'z tadqiqi shoir asarlari matnini mumkin qadar kengroq kuzatish imkonini beradi. Bunda ikki foyda bor: birinchidan, avvalo, Navoiy ijodiyotidagi so'z boyligi miqdori haqida tasavvurni tiniqlashtiramiz; ikkinchidan, bu boy va ulkan merosdan kitobxon to'la-to'kis bahramand bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ana shu maqsad va vazifalarni bajarish uchun tadqiqot oldiga yana quyidagi talablar qo'yildi:

1. ANATILga kirmay qolgan so'z va iboralarni har bir asar, har bir janrdagi matnni matnshunoslik va adabiy manbashunoslik nuqtai nazaridan to'g'ri o'qish jarayonida yig'ish, ularni asliyatga qiyoslash, tartiblash, izohlash hamda mumtoz va joriy alifboda ifoda etish.

2. Ayrim tushunilishi qiyin so'z va iboralarni chuqur tahlil etishda nafaqat ichki manbalarga, balki tashqi manbalarga, ya'ni matnshunoslikka daxldor yondosh soha materiallariga qiyoslash, maxsus izlanishlarni tashkil etish.

3. Ishda statistik tahlil metodidan foydalanish.

Navoiy asarlari matni statistik usullarda ko'proq tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganilgan. Biroq keyinchalik umumfilologik tekshiruvlar natijasi taqozosiga ko'ra, bu usul matnshunoslikda ham joriy qilina boshlandi. Zero, matnshunoslik til va adabiyot bilimlarining o'zaro uyg'unlashuvida tarkib topgan sohadir. Negaki, mumtoz adabiyot tarixi matnlari til tarixi nuqtai nazaridan, diaxron aspektda tadqiq etish bilan bog'liq nazariy-amaliy masalalar matnshunoslikda ham o'rganiladi.

MAT dan aniqlangan 5358 ta, takrori bilan 6082 tadan ortiq bunday so'z va iboralarning ANATILga kirmay qolish sabablari quyidagilardan iborat:

- 1) sobiq Ittifoq davrida sho'ro mafkurasi tufayli Navoiy asarlari matnining to'liq va mukammal nashri bo'lmagan;

- 2) davr mafkurasiga ko'ra ayrim diniy-tasavvufiy so'z va atamalar lug'atdan maxsus tushirib qoldirilgan;

- 3) ma'nosi aniqlanmagan, tushunilishi qiyin yoki izohlash imkoni bo'lmay qolgan so'z va iboralar lug'atdan tushirib qoldirilgan;

- 4) nashrlarda noto'g'ri yozilgan so'zlar tadqiqotchiga ma'nosini izohlashga imkon bermagan;

5) soʻzlarning qoʻlyozmadagi shakli notoʻgʻri oʻqilganligi oqibatida bunday soʻz va iboralar lugʻatdan tushib qolgan.

Quyida bu holatni tasavvur qilish imkoniyatini yaratish maqsadida shoirning faqat “Badoye’ ul-bidoya” asaridan misollar bilan cheklanamiz:

### “Badoye’ ul-bidoya”dan yangi aniqlangan soʻz va iboralarning matniy asoslari

Ushbu asar yigirma jildlik Alisher Navoiy “Mukammal asarlari toʻplami” (MAT)<sup>153</sup> birinchi jildini tashkil etadi. Asar 1987-yili “Fan” nashriyoti tomonidan nashr etilgan boʻlib, devon tarkibiga lirik janrlardagi asarlar kiritilgan<sup>154</sup>. Yangi aniqlangan soʻzlar [deyarli] barcha lirik janrlarda uchraydi:

#### Debocha

Debochadan ANATILga kirmay qolgan 49 ta soʻz va ibora aniqlandi. Nashr bilan lugʻatni qiyoslash debochadagi 50 ta soʻz izohlanmasdan qolganligini koʻrsatadi. Ular quyidagilar:

عدل آئین *adloyin* – adolatli, insofli, haqiqatparvar, adolatmand:

*Adloyinekim, raiyat rioyatida insofi dehqoni madadidin Mirrix qaxtandesh savobit donalarin sipehr mazra’ida ekti* [15]<sup>155</sup>.

تركي شعار *turkiyshior* – turkiy nishonli; shoʻx feʻlli:

*Va gʻaribroq bukim, gʻaroyibi maoniy iktisobi uchun gʻarobat iqlimlarida tab’ sayyohini gʻurbatga solgʻon forsiydisor va turkiyshior yigitlar sarxayli yori aziz Suhayliy doma tavfiqahkim...* [15].

محافل *mahofil* – bazm joyi, majlis; anjuman:

*Va durarbor tiliga majolisda ba’zi abyotim mazkur va gavharnisor iligiga mahofilda ba’zi gʻazaliyotim mastur boʻlur erdi* [7];

Quyida joyni iqtisod qilish maqsadida soʻzlarning oʻzini keltiramiz:

بولماماغليق *boʻlmamogʻliq* [21]; گنج بخش *ganjbaxsh* [15], دليرليک *dalirlik* [24],

زويد زايدالحد *zoyid ul-had* [22-23], انتساب ليق *intisobliq* [13], عشوه کرليک *ishvagarlik* [22], کران سيز *karonsiz* [16], لطافت لطافت اميز *latofatomiz* [21], کشورکشاي ليق *kishvarkushoyliq* [15], لطافت شعار *latofatshior* [15], موعظت اسا *mav’izatoso* [21], موعظه پرداز *mav’izapardoz* [21], منفعت ليق *manfaatliq* [22], منفعت انکيز *manfaatangiz* [21], موعظت انکيز *mav’izatangiz* [21], معشوق شيوه *maxtut* [13], مخطوط *perosta* [17], مفتون لوغ *maftunlug* [23], مشوش ليق *mulkistonliq* [15], ملکستان ليق *mulkiston* [15], عاشق پيشه *nasihatsoz* [21], نصيحت ساز *nasihatoro* [21], نصيحت آرا *mushavvashliq* [21],

<sup>153</sup> Alisher Navoiy. “Mukammal asarlar toʻplami” keyingi oʻrinlarda MAT tarzida berildi.

<sup>154</sup> Алишер Навоий. Бадоеъ ул-бадоя /Мукаммал асарлар тўплами. I жилд. – Т.: Фан, 1987. – Б.724.

<sup>155</sup> Qavs ichidagi raqamlar esa asar sahifasini koʻrsatadi.

oshiqpesha [13], سپهراققدار sipehriqtidor [17], سته زينت xamsaziynat [22], سته زينت sittaziynat [22], لوک taharruklik [15], جانليق تيره tiyrajonliq [19], فكري fikriy [24], خرقهچاڭ xirqachoc [14], زاده خانه xonazoda [17, 19], خارنماي ليق xornamoyliq [22], خمارليق xumorliq [13], چرخ كردار charxkirdor [24], چابوك لوق chobukluq [15], قصه كذار qissaguzor [12], شاهنامه shohnoma [18], احراق ehroq [21], قيلماق قيلماليق qilmoqliq [24], الله الرحيم الرحمن bismillohir-rahmonir-rahiym [21], حقايق دسار haqoyiqdisor [24].

### G‘azallar

G‘azallardan ANATILga kirmay qolgan 152 ta, (qaytarig‘i bilan 159 ta) so‘z va ibora aniqlandi. Nashrda quyidagi so‘z va iboralar tushib qolgan:

إشربُ يا أَيُّهَا الْعَطْشَانُ *ishrabu yo ayyuhal-at-shon* – ichingiz, ey tashnalar:

*Tashnalab o‘lma, Navoiy, chun azal soqiysidin*

*Ishrabu yo ayyuhal-at-shon kelur har dam nido* [29].

زُبده *zubda* – sarvar, sara: <sup>156</sup>

*Chun koinot zudasi ojiz ko‘rib o‘zin,*

*Hamd eta olmas oncha fasohat bila sanga* [31].

وادي خرم *vodiyi xurram* – shodlik vodiysi, xursandlik vodiysi; poklik vodiysi; dilpisandlik vodiysi:

*Yo‘l emas, Yasribda yirtibdur yurin tirnog‘ila*

*Maqdaming to etmadi ul vodiya xurram aro* [33].

فلك رفتار ليغ *falakraftorlig‘* – falakdek tezyuradigan, falakdek tez aylanadigan:

*Gar quyosh zangin falakraftorlig‘ raxshingga os*

*Kim, tuzar ul zang navhang nag‘masin afg‘on aro* [41].

Ushbu so‘z va iboralar ham nashrda uchramaydi:

16-g‘azalda 1 ta so‘z: عنابكون *unnobgun* [41]; 17-g‘azalda 1 ta so‘z: نسيه *nasya//nasiya* [42]; 20-g‘azalda 1 ta so‘z: مورچه *mo‘rcha* [44]; 39-g‘azalda 1 ta so‘z: عصمت الدنيا *ismat ud-dunyo* [60]; 43-g‘azalda 1 ta so‘z: بلاسيز *balosiz* [62]; 51-g‘azalda 1 ta so‘z: برعكس *baraks* [68]; 56-g‘azalda 1 ta so‘z: شيشلاڭ *shishladi* [72]; 64-g‘azalda 1 ta so‘z: هوركوتوب *hurkutub* [78]; 65-g‘azalda 1 ta so‘z: خاصه الله *xossalillah* [78]; 66-g‘azalda 2 ta so‘z: قتل أنين *qatloyin* [79]; 67-g‘azalda 1 ta so‘z: شرع سيز *shar’siz* [79]; 68-g‘azalda 1 ta so‘z: سيز خسته *xastasiz* [81]; 72-g‘azalda 2 ta so‘z: براصل *barasl* [84]; 73-g‘azalda 1 ta so‘z: چيروب *chivurub* [85]; 90-g‘azalda 2 ta so‘z: عليه السلام *alayhassalom* [98], تاريخ *tarig‘* [101]; 94-g‘azalda 2 ta so‘z: نقدالغنج *naqd ul-g‘anj* [101]; 102-g‘azalda 1 ta so‘z: نصح *Nasuh* [106]; 105-g‘azalda 1 ta so‘z:

<sup>156</sup> Allohning sifatlaridan biri.

برقندان barqandon [109]; 107-g'azalda 1 ta so'z: زوربازو zo'rbozu [110]; 109-g'azalda 1 ta so'z: زهرآشام zahroshom [111]; 113-g'azalda 1 ta arabiy ibora:

زاهابنو vodiya-maqsad, vajadno mohuv al-maqsud [115]; 121-g'azalda 2 ta so'z: پیل نهادی pilnihodiy [120], حجاب hijor [122]; 127-g'azalda 1 ta so'z: مبرم شیوه mubrimsheva [125]; 141-g'azalda 1 ta so'z: محنت mehnatxona [135]; 145-g'azalda 1 ta so'z: یل لانماک ellanmak [138]; 168-g'azalda 1 ta so'z: سواد الوجه savod ul-vajh [153]; 195-g'azalda 1 ta so'z: خمیازه xamyoza [172]; 198-g'azalda 1 ta so'z: قبا کلکون gulgunqabo [175]; 199-g'azalda 1 ta so'z: مفتن mufattin [175]; 206-g'azalda 1 ta so'z: یوپقه yupqa [181]; 216-g'azalda 1 ta so'z: کهن پیر kuhanpir [188]; 234-g'azalda 6 ta so'z: غم سیز g'amsiz [201], نمسیز namsiz [201], ماتم سیز, مرهم سیز marhamsiz [201], همدم سیز, hamdamsiz [201], خم, xamsiz [201]; 236-g'azalda 1 ta so'z: درس darsxon [202]; 239-g'azalda 7 ta so'z: گلزارسیز gulzorsiz [204], گلرخسارسیز, gulruxsorsiz [204], زنارسیز zunnorsiz [204], دلدارسیز dildorsiz [204], آزارسیز ozorsiz [204], یارماشیب yarmashib [207]; 243-g'azalda 1 ta so'z: خارسیز xorsiz [205], خمارسیز xummorsiz [204]; 253-g'azalda 5 ta so'z: قربان سیز qurbonsiz [214], پیکان سیز paykansiz [214], افغانسیز, سلطان سیز sultonsiz [214], پایان سیز poyonsiz [214]; 255-g'azalda 1 ta so'z: طهارت سیز tahoratsiz [215]; 256-g'azalda 2 ta so'z: کونگول kungol [216]; 264-g'azalda 1 ta so'z: شهره shuhra [216]; 265-g'azalda 1 ta so'z: بیگا begor [222]; 266-g'azalda 1 ta so'z: زهرچشم zahrchashm [223]; 267-g'azalda 2 ta so'z: شحنة shahna [224], شهره shuhra [224]; 271-g'azalda 1 ta so'z: مهوس muhavvis [228]; 274-g'azalda 1 ta so'z: مهار mihor [230]; 276-g'azalda 1 ta so'z: رفقلمیش rufu qilmish [232]; 280-g'azalda 2 ta so'z: دردسر dardisar [234], سین سیز sensiz [234]; 284-g'azalda 3 ta so'z: حد سیز hadsiz [236], مورخط mo'rxat [237], تا قیلیمیش toqilmish [237]; 285-g'azalda 2 ta so'z: بلا لیق baloliq [237], آزاده لیق ozodaliq [237]; 292-g'azalda 1 ta so'z: سرخش sarxash [242]; 306-g'azalda 1 ta so'z: توزسیز tuzsiz [252]; 309-g'azalda 3 ta so'z va ibora: صندل آکن sandologin [254], شجاع shujo' [13], جوزالائنین شاء javazal-isnayni sho' [255]; 310-g'azalda 1 ta so'z: دنیالیق duniyolik [255]; 311-g'azalda 1 ta so'z: اسرع asra' [256]; 313-g'azalda 1 ta so'z: شمع جبین sham'jabin [257]; 315-g'azalda 2 ta so'z va so'z birikmasi: مظلم muzlam [259], رسول علیه السلام Rasuli alayhissalom [259]; 321-g'azalda 1 ta so'z: سین سیز sensiz [264]; 323-g'azalda 2 ta so'z: دشمن کام لیغ dushmankomlig' [265], خام لیغ xomlig' [265]; 324-g'azalda 1 ta so'z: فلک مقدار falakmiqdor [266]; 325-g'azalda 1 ta so'z: پیمان piman [266]; 326-g'azalda 2 ta so'z: آفت سیز ofatsiz [267], لوکشف lavkashaf [267]; 338-g'azalda 1 ta so'z: چلوار chillavor [276]; 339-g'azalda 1 ta

so‘z: بارغولوق borg‘uluq [277]; 247-g‘azalda 1 ta so‘z: تحكم tahakkum [282]; 369-g‘azalda 1 ta so‘z: نمناك namnok [292]; 368-g‘azalda 1 ta so‘z: قولماش qo‘lmosh [296]; 379-g‘azalda 1 ta so‘z: سيلكىنچاك silkinchak [304]; 392-g‘azalda 1 ta so‘z: زمن zaman [314]; 395-g‘azalda 1 ta so‘z: سبزه كون sabzagun [316]; 403-g‘azalda 1 ta so‘z: پرك پيوند parkpayvand [321]; 406-g‘azalda 1 ta so‘z: كهن پير kuhanpir [324]; 407-g‘azalda 1 ta so‘z: سين سيز sensiz [325]; 417-g‘azalda 1 ta so‘z: ظلوم zalum [332]; 421-g‘azalda 1 ta so‘z: ياغينسيز yog‘insiz [334]; 431-g‘azalda 1 ta so‘z: عينا aynan [341]; 440-g‘azalda 1 ta so‘z: ملامت bemalomat [347]; 442-g‘azalda 2 ta so‘z: طليع tali [348]; 459-g‘azalda 2 ta so‘z: سينليك senlik [349]; 459-g‘azalda 2 ta so‘z: جانان jononsiz [360]; 461-g‘azalda 1 ta so‘z: سيز sensiz [362]; 462-g‘azalda 1 ta so‘z: دوكولداماك dukuldamak [362]; 478-g‘azalda 1 ta so‘z: سيز كونكول ko‘ngulsiz [374]; 482-g‘azalda 1 ta so‘z: ساي سينوقتور sinuqtursa [376]; 485-g‘azalda 1 ta so‘z: اشكسيز ashksiz [385]; 498-g‘azalda 1 ta so‘z: پرخم ليق purxamliq [387]; 504-g‘azalda 1 ta so‘z: بېگانمادېم beganmadim [392]; 533-g‘azalda 1 ta so‘z: گلسيز gulsiz [412]; 540-g‘azalda 1 ta so‘z: كتون katun [417]; 544-g‘azalda 1 ta so‘z: بېگانماس beganmas [419]; 546-g‘azalda 1 ta so‘z: مونگا يدي mungaydi [421]; 561-g‘azalda 1 ta so‘z: آزادي ozodiy [431]; 568-g‘azalda 1 ta so‘z: شمع سيز sham‘siz [435]; 574-g‘azalda 1 ta so‘z: برك barak [440]; 577-g‘azalda 1 ta so‘z: يازغوچي yozg‘uchi [442]; 589-g‘azalda 1 ta so‘z: شنجرف shanjarf [451]; 593-g‘azalda 1 ta so‘z: شكسيز shaksiz [454]; 599-g‘azalda 1 ta so‘z: بېگانماي beganmay [459]; 607-g‘azalda 1 ta so‘z: بېگانماس beganmas [465]; 610-g‘azalda 1 ta arabiy ibora: لا اِلهَ اِلاَّ هُوَ la iloha illohu [467]; 619-g‘azalda 2 ta so‘z va arabiy ibora: ضو zav [473], لا اِلهَ اِلاَّ هُوَ la iloha illohu [473]; 623-g‘azalda 1 ta so‘z: فغان لىغ fig‘onlig‘ [476]; 625-g‘azalda 1 ta so‘z: ناشكرلوق noshukurlug‘ [477]; 633-g‘azalda 1 ta so‘z: مخمر muxammar [482]; 646-g‘azalda 1 ta so‘z: خولوق xo‘luq [491]; 658-g‘azalda 1 ta so‘z: جلاودار jilavdor [498]; 660-g‘azalda 2 ta so‘z: مختل muxtal [500]; 671-g‘azalda 1 ta so‘z: تولغى tulg‘i [507]; 672-g‘azalda 1 ta so‘z: يونماغلىق yo‘nmog‘liq [508]; 674-g‘azalda 1 ta arabiy birikma: في امان fi amonulloh [509]; 684-g‘azalda 1 ta so‘z: كوزنك ko‘zanak [516]; 684-g‘azalda 1 ta so‘z: قويماماق qo‘ymamoq [518]; 698-g‘azalda 1 ta so‘z: آزرده جان ozurdajon [525]; 699-g‘azalda 1 ta so‘z: افسرده دل afsurdadil [526]; 703-g‘azalda 1 ta so‘z: قيمتي qiymatliy [528]; 708-g‘azalda 1 ta so‘z: گلفومي gulfomiy [532]; 714-g‘azalda 1 ta so‘z: قصه پرداز qissapardoz [535]; 723-g‘azalda 1 ta so‘z: اويقوسيز uyqusiz [541]; 739-g‘azalda 1 ta so‘z: مقمر پيشه muqammirpesha [552]; 757-g‘azalda 1 ta so‘z: شيطان صفت shaytonsifat [564]; 758-g‘azalda 1 ta so‘z: اشام روح ruhoshom [564]; 770-g‘azalda 1 ta so‘z: مي آلود mayolud [573].

### Mustazodlar

Mustazodlardan ANATIL ga qayd etilmagan 1 ta soʻz aniqlandi: اشفاق ishfoq [581].

### Muxammaslar

Muxammaslardan lugʻatga kirmay qolgan 4 ta soʻz aniqlandi: 3-muxammasda 1 ta soʻz: مهر افروز mehrafroʻz [589]; 5-muxammasda 3 ta soʻz: دلدارسيز dildorsiz [592], گلزارسيز gulzorsiz [592], گلرخسارسيز gulruxsorsiz [592].

### Musaddaslar

Musaddaslardan ANATIL da eʼtirof etilmagan 5 ta soʻz aniqlandi. Ular quyidagilar: 1-musaddasda 2 ta soʻz va arabiy soʻz birikma: لمع الله li maalloh [595], قوپارماغليغ , گاجدم گزدم [597], ثلث suls [597], پورموق ليق [597].

### Tarjeʼbandlar

Tarjeʼbandlardan lugʻatga kirmay qolgan 12 ta soʻz aniqlandi. Ular quyidagilar: 1-tarjeʼbandning V qismida 2 ta soʻz: كاش ليك دور durdkashlik [604], پاري وار parivor [605]; VI qismida 1 ta soʻz: مي سيز maysiz [606]; IX qismida 1 ta soʻz: آسماق osmoq [608]; 2-tarjeʼbandning II qismida 2 ta soʻz: فغفور fagʻfur [611], شا ن الله shaʼnaulloh [611]; III qismida 1 ta arabiy ibora: هَذَا الْمَعَانِي fahum loyaʼrufu hozalmaoniy [612]; V qismida 1 ta soʻz: نكون قد nigunqad [614]; VIII qismida 1 ta soʻz: شعاعي shuʼoiy [617]; 3-tarjeʼbandning V qismida 1 ta soʻz: ليق شراره sharoraliq [622]; VI qismi-da 1 ta soʻz: هي hay [623]; VII qismida 1 ta soʻz: بي عنایت beinoyat [624].

### Qitʼalar

Qitʼalardan lugʻatga qayd etilmagan 10 ta soʻz va birikma aniqlandi: 12-qitʼada 1 ta soʻz: درسيز dursiz [630]; 16-qitʼada 1 ta soʻz: ضدیت ziddiyat [632]; 23-qitʼada 2 ta soʻz: فسوس fusus [633], هنگام سيز hangomsiz [633]; 28-qitʼada 1 ta soʻz: صيام sayom [635]; 40-qitʼada 2 ta soʻz: ساغليغ sogʻligʻ [637], قوزي ليق qoʻziliq [638]; 41-qitʼada 3 ta soʻz va soʻz birikmasi: نظام الملك nizom ul-mulk [638], صاحب اعظم sohibi aʼzam [638], توتقون لوق tutqunluq [638].

### Ruboiylar

Ruboiylardan ANATILdan tushib qolgan 6 ta soʻz aniqlandi: 1-ruboiyda 1 ta arabiy ibora:

اللّٰهُ خَالِقِي ذُو الْمَجْدِ اَعْلٰى سُبْحَانَ subhonallohu xoliqi zul-majdi alo [645]; 17-ruboiyda 1 ta soʻz: سبزدواج sabzdavoj [645]; 53-ruboiyda 1 ta soʻz: مایتحلل maitchall

moyatahallal [653]; 60-ruboiyda 1 ta so‘z: رؤيت ru‘yat [654]; 61-ruboiyda 2 ta so‘z: پرلا parlo [654]; 63-ruboiyda 1 ta so‘z: مهر خصال mehrxisol [655].

### Lug‘zlar

Lug‘zlardan ANATILga kirmay qolgan 5 ta so‘z aniqlandi: “Qalam” nomli 1-lug‘zda 2 ta so‘z va birikma: نوازير navozir [663]; كرام الكاتبين kirom ul-kotibin [663]; “Tanga” nomli 2-lug‘zda 1 ta so‘z: خمس المبارك xums ul-muborak [663]; “Miqroz” nomli 4-lug‘zda 2 ta so‘z: استظهار istizhor [664], وراشتمور olmashturur [664].

### Tuyuqlar

Tuyuqlardan lug‘atga kirmay qolgan 1 ta so‘z aniqlandi: منكرسيز munkirsiz [681].

### Fardlar

Fardlardan lug‘atga kirmay qolgan 2 ta so‘z aniqlandi: 7-fardda 1 ta so‘z: مزور muzavvir [685]; 13-fardda 1 ta so‘z: رنج کش ranjkash [686].

Shunday qilib, “Badoye’ ul-bidoya” asari bo‘yicha “debocha”da 49 ta, takrori bilan 50 ta, g‘azallarda 152 ta, qaytarig‘i bilan 159 ta, mustazodlarda 1 ta, muxammaslarda 4 ta, musaddaslarda 5 ta, tarje‘bandlarda 12 ta, qit‘alarda 10 ta; ruboiylarda 6 ta, lug‘zlarda 5 ta, tuyuqlarda 1 ta, fardlarda 2 ta so‘z va iboralar ANATIL ga kirmay qolgan. Navoiyning “Badoye’ ul-bidoya” asari bo‘yicha jami 246 ta, takrori bilan 253 ta so‘z va iboralar lug‘atga kirmay qolganligi aniqlandi va boshq.

Xulosa shuki, Navoiy asarlari matni so‘zlarini o‘rganish, ya’ni so‘z tadqiqi – undagi tushunilishi qiyin, yangi aniqlangan so‘z va iboralarni matnshunoslik nuqtai nazaridan izohlash adabiy manbani matniy tadqiq etishdagi asosiy tamoyillardan hisoblanadi. Navoiy asarlaridan yangi aniqlangan so‘z va iboralarni yig‘ishning nazariy va amaliy tamoyillarini belgilashda matnshunoslik va adabiy manbashunoslik, o‘zbek tili tarixi hamda mumtoz asarlar tiliga doir tadqiqotlar asos bo‘lib xizmat qiladi.

### Adabiy manbani matniy tadqiq etishda mumtoz lug‘atlarning o‘rni

Navoiy asarlari matn tarixini o‘rganishda lug‘at manbalarining o‘rni beqiyos. Zero, matnshunoslikda matn tarixini o‘rganishning turli omillari mavjud<sup>157</sup>. Shulardan biri matni ishonchli ilmiy lug‘at manbalariga tayanib o‘qish hisoblanadi. Uning to‘g‘ri o‘qilishini ta’minlashning yana bir maqbul usuli lug‘atlarga asoslanishdir. Qolaversa, matnshunoslik va adabiy manbashunoslikning

<sup>157</sup> Лихачев Д.С. При участие А.А. Алексеева и А.Т.Боброва. Текстология на материале русской литературы X–XVII веков. – СПб: Алетейя, 2001. – С.128–129.

muhim bosqichlaridan biri bo'lgan matn tarixini puxta tekshirmasdan turib, ayniqsa, undagi so'zlarning shakliy-ma'noviy xususiyatlarini farqlamasdan muallif nazarda tutgan masalalar borasida yetarlicha tasavvur hosil qilinmaydi. Bu hol muallif yaratgan asarga doir to'liq ma'lumotlar yoki asarning badiiy qimmatini to'liq anglashga mone'lik qiladi. Oqibat natijada, matn tarixi yetarlicha o'z inkishofini topmaydi.

Navoiy asarlarini o'qish jarayonida uchraydigan murakkab, tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlarning ma'nosini tushunishga harakat shoirning o'z davridayoq boshlangan bo'lib, turkiy xalqlar va qo'shni davlat turkiy hukmdorlari farmoyishi bilan shoir asarlarining sharhi sifatida bir qancha lug'atlar yaratilgan. Bugungi kunda ham Navoiy asarlarini mutolaa qilishda, albatta, lug'atlarga murojaat qilinadi. Mutafakkir asarlariga maxsus lug'atlarning tuzilishi Navoiyning o'z zamonida ham ko'pchilik uchun og'irlik qilganini bildiradi. Hiraviyning "Badoye' ul-lug'at", "Abushqa" (XV asr), Muhammad Yaqub Chingining "Kelurnoma", Mirzo Mehdixonning "Sangloh", "Mabone' ul-lug'ot" (XVIII asr), Fath Alixonning "Lug'ati atrokiya" (XIX asr), Shayx Sulaymon Buxoriyning "Lug'oti chig'atoyi va turkiy usmoniy" (XIX) lug'ati va yana bir qancha so'zlik – lug'atlar Navoiy asarlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Shoir asarlari tiliga bag'ishlangan mazkur lug'atlarning har biri o'ziga xos uslubda, ma'lum maqsadlarga qaratilgan holda tartib berilgan<sup>158</sup>. Keyingi asrlarda bu an'ana Navoiy muxlislari tomonidan ham davom ettirilgan. Sovet davrida ham o'zbek tilining yangilanib borishi tufayli zamonaviy lug'atlarga ehtiyoj tug'ilgan. Navoiy asarlariga bag'ishlangan lug'atlarning matn tabdilini yaratishdagi ahamiyatini hisobga olib, ularni ikki qismga bo'lib ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir:

1. Sharq mumtoz qomusiy lug'atlarining Navoiy asarlarini tushunishdagi o'rni va ahamiyati.

2. Sobiq Ittifoq davridagi Navoiy asarlariga bag'ishlab yaratilgan lug'atlarning ahamiyati va saviyasi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Navoiy asarlariga lug'atlar tuzish shoirning o'z zamonasidan boshlangan. Jumladan, bizning kunimizgacha yetib kelgan lug'atlarning mashhurlari sifatida "Badoye' ul-lug'at", "Xamsa bo halli lug'at", "Abushqa", "Sangloh", "Lug'ati atrokiya", "Lug'ati turkiy", "Lug'ati chig'atoyi va

---

<sup>158</sup> Боровков А.К. "Бадаи ал-лугат" словарь Тали Имами Гератского сочинением Алишера Навои. – М., 1961; Умаров З.А. Грамматика староузбекского языка. "Мабани ал-лугат" Мирзы Мехдихана. АКД. – Т., 1967; Мухитдинов К. "Санглах" Мирзы мухаммеда Мехдихана. АКД. – Т., 1971; Щербак А.М. Словарь Файзулла – хана. Грамматика староузбекского языка. – М. –Л., 1962; Ромаскевич А.А. Новый чигатайско – персидский словарь. – В сб. Мир Али – Шер. Л., 1928; Хафизова А. "Келурнаме" Мухамеда Якуба Чинги. – "Советская туркология". Баку, 1973. № 3; Мухаммедов З.Б. Предварительные замечания о словаре "Халли лугати чигатаи". – В сб. Тюркская лексикология и лексикография. – М., 1971; Турсунов У., Ўринбаев Б., Алиев М. Ўзбек адабий тили тарихи. – Т., 1995; Ҳасанов Б. Жавоҳир хазиналари. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1989.

turkiy-usmoniy”, “Halli lug‘ati “Xamsa”yi Navoiy”, “Halli lug‘oti chig‘atoyi “Xamsa”yi Navoiy”, “Nisobi Navoiy”, “Lug‘ati Amir Navoiy”, “Dar bayoni lug‘ati Navoiy”, “Halli lug‘oti chig‘atoy” kabi qo‘lyozma lug‘at manbalarni sanab o‘tish mumkin<sup>159</sup>.

Lug‘atshunos S.I.Bayevskiyning ma‘lumot<sup>160</sup> berishicha, XV–XVII asrlarda “Lug‘ati Qori Hisoriy”, “Lug‘ati Rustami Mavlaviy”, “Lug‘oti Shohidiy”, “Tuhfat ul-ushshoq”, “Sahhoi Ajamiy”, “Lug‘ati Xaliliy”, “Lahjat ul-lug‘ot”, “Sangloh”, “Mabone’ ul-lug‘at”, “Lug‘oti atrokiya”, “Lug‘ati Navoiy”, “Farhangi hazrati Mir Alisher mulaqqab al-Navoiy”, “Xamsa bo halli lug‘ot”, “Lug‘oti chig‘atoyi va turki usmoniy”, “Lug‘ati Amir Navoiy”, “Dar bayoni lug‘ati Navoiy”, “Halli lug‘oti “Xamsa”yi Navoiy”, “Xulosayi Abbosiy”, “Abushqa”, “Badoye’ al-lug‘at” kabi ko‘plab turkiy-forsiy, forsiy-turkiy lug‘atlar yaratilgan bo‘lib, ularning aksariyati shoir asarlari matnini o‘rganishga qaratilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur lug‘atlar qiyosan kuzatilsa, ularning aksariyati shoir asarlaridagi so‘zning matniy ma‘nolarini ochish, so‘zning leksik-semantik va botiniy tarkibiga chuqur nazar tashlashga imkon beradi va shuning uchun ham matnshunoslik uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etishi tabiiydir.

Navoiy asarlari matnini o‘rganish bilan bog‘liq qo‘lyozma lug‘atlarning ahamiyati haqida yirik turkolog olim A.K.Borovkov shunday yozadi: “Chig‘atoy tili Sharqiy Turkiston tillari lug‘atlari nihoyatda boy va qiziqarli manba sifatida tarixiy-madaniy yodgorligi bilan muhimdir. Ayniqsa, ushbu lug‘atlar, eng muhimi, Navoiy badiiy mahoratini ochishga xizmat qildi. Bundan tashqari mazkur lug‘atlar G‘arbiy Yevropa lug‘atlari qatoridan ham o‘rin egallaydi”<sup>161</sup>.

XV asr eski o‘zbek tili lug‘atchiligining to‘liq ma‘lumotlari, undagi so‘zlar izohi, matn sharhi, etimologik kuzatishlarini Navoiy asarlari misolida ko‘ramiz. So‘z sharhi, uning o‘zak va qo‘shimchalar tahlili, shuningdek omonim qatorlar, ya‘ni shakldoshlik va ma‘nodoshlik ko‘rinishlarining ilmiy tavsifini “Muhokamat ul-lug‘atayn” asari bilan qiyoslab bilish mumkin.

Tadqiqotchilar tomonidan kuzatilishicha, uzoq o‘tmishimizda yaratilgan lug‘atlarning xil va turlari ko‘p bo‘lib, ularning muayyan tiplari guruhlashtirilgan<sup>162</sup>.

<sup>159</sup> Айни пайтда ушбу қўлёзма лугатлар ЎзР ФА Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институтининг қўлёзмалар хазинасида № 7863, 9954, 6803, 3324, 5197 каби инвентар рақамлар остида сақланмоқда.

<sup>160</sup> Баевский С.И. Описание персидских и таджикских рукописей института народов Азии. Вып. 5. – М.: Издательство “Наука” главная редакция восточной литературы, 1968. – С.66–71.

<sup>161</sup> Боровков А.К. Лексикографическая традиция в словарях чагатайского языка. В кн. Лексикографический сборник. Вып. 4. – М., 1960. – С.151.

<sup>162</sup> Ўзбек тилининг лексикологияси. – Т.: Фан, 1981. – Б.289.

Lugʻatlar dastlab oʻz mohiyati eʼtibori bilan ikki tipga – ensiklopedik va lingvistik lugʻatlarga boʻlinadi. Lingvistik lugʻatlarning har biri turli maqsadlarda tuzilgan. Bu esa, qadimdan anʼana sifatida davom etib kelmoqda. Masalan, “Badoye’ ul-lugʻat” yozuv qoidasiga sharh berish va talaffuz normalarini belgilashga bagʻishlangan boʻlsa, “Abushqa”da qadimgi turkiy soʻzlarga izoh berilishi amalga oshirilgan. “Sangloh” va “Muntaxab ul-lugʻot”larda saylanma, yaʼni matndagi tushunilishi qiyin, notanish soʻzlar sharhlangan. Albatta, mazkur lugʻatlarning yaratilish tarixi, tuzilishi prinsiplari lugʻatshunos, matnshunos olimlar tomonidan atroflicha oʻrganilgan<sup>163</sup>.

Koʻrinadiki, XV–XIX asrda shoir asarlariga bagʻishlangan koʻplab qoʻlyozma lugʻat manbalari yaratilgan. Mazkur lugʻatlarning hammasi shoir asarlari matn tarixini oʻrganishda, asar matnini tahrir qilishda muhim vosita boʻlib xizmat qiladi. Bu masalaga yanada aniqlik kiritish maqsadida matnshunos olim Porso Shamsiyevning “Xamsa” dostonlarining ilmiy-tanqidiy matnlari va ularni tuzish tamoyillari boʻyicha olib borgan ilmiy kuzatuvlaridan bir namuna keltiramiz. Bu qatorda Abdujamil, صیت soʻzini yozaman deb adashib سیت yozgan. Bu xato “A” tekstida lugʻat yordamida toʻgʻrilangan. انطا – yoʻqolish, انطا (oʻchish). LXXVI bobi “b” qatorining oxiridagi 161-baytda Abdujamil انطا soʻzini yozadi. Lekin boshqa qoʻlyozmalarda bu soʻz انطا shaklida yozilgan. Maʼno jihatdan bu ikki soʻzdagi baʼzi umumiylikka qaramasdan, har holda koʻproq انطا toʻgʻri keladi, chunki soʻz quyosh nurining oʻchishi haqida bormoqda:

تایب چون قویاش سو یوزیدین خفا  
ولی پر توی تا پما بین انطا

Xatolik, kotibning aytilishi jihatidan shu ikki oʻxshash soʻzning farqini bila olmaganidan chiqqan boʻlishi mumkin<sup>164</sup>.

Maʼlum boʻlayotirki, XV asrlardayoq Navoiy asarlari matn tarixi chuqur tahlil etishda bu lugʻatlarning oʻrni beqiyos boʻlgan. Demak, bu jarayon shoir hayotlik chogʻidayoq boshlab yuborilgan.

Shoʻrolar tuzumi davrida Navoiy asarlariga bagʻishlab lugʻatlar haqida toʻxtaladigan boʻlsak, bu borada yetuk matnshunos olim Porso Shamsiyevning xizmatlari katta boʻldi. Zero, olim Navoiy qoʻlyozma asarlari matn tarixini puxta oʻrganish, ilmiy-tanqidiy matnlarni matnshunoslik va adabiy manbashunoslik jihatidan talab darajasida tayyorlash boʻyicha oʻz davrining zabardast matnshunosi va ana shu ishlarning sifat, saviyasiga mutasaddi olim sifatida shoir asarlari

<sup>163</sup> Боровков А.К. “Бадаи ал-лугат” словарь Тали Имани Гератского к сочинениям Алишера Навои. – М., 1961; Мухитдинов К. “Санглах” Мирзы Мухаммада Мехдихана (исследование, комментарии, перевода и транскрипция). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1971. – С. 17; Фаттохов Х. Мухаммад Риза Хаксоф и его “Мунтахаб ул-лугат”: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1974. – С. 24; Ҳасанов Б. Жавоҳир ҳазиналари. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1986. – Б.100 ва бошқ.

<sup>164</sup> Шамсиев П. Ўзбек матншунослигига оид тадқиқотлар. – Т.: Фан, 1986. – Б.38.

matnini to‘g‘ri o‘qish jarayonida lug‘at tuzishni matnshunoslikning asosiy bosqichlaridan biri deb bildi. Zotan, matnni mazmunan chuqur anglamagan tadqiqotchi matn tarixini yetarli darajada o‘zlashtira olmaydi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, Porso Shamsiyevning noyob iste‘dodi va chuqur bilimga ega ekanligi ana shu vaqtlarda – Navoiy asarlari matn tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan lug‘atlar tuzish jarayonida juda yorqin namoyon bo‘ldi. Shuningdek, olimning shoir qo‘lyozma asarlarining o‘ziga xos matniy xususiyatlarini teran anglashi, turkiy, fors, arab tillaridan boxabar ekanligi lug‘at tuzish ishiga qo‘l keldi. Natijada matnshunos olim shoir asarlari matn tarixi tadqiqi yuzasidan “O‘zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug‘at”<sup>165</sup>, “Navoiy asarlari lug‘ati”<sup>166</sup> kabi qomuslar yaratdi. Keyinchalik ANATILni tuzishda ham ulardan keng foydalanildi. Bizningcha, endilikda ham shoir madaniy-ilmiy merosini tanqidiy o‘rganish, ya‘ni matnshunoslik sohasidagi amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ilmiy ishlar ham ana shu talab nuqtai nazaridan bo‘lmog‘i lozim.

Sobiq Ittifoq davrida yaratilgan lug‘atlardan hozircha nisbatan to‘larog‘i ANATIL hisoblanadi.

Ta‘kidlaganimizdek, 60-yillarning oxirlarida ko‘pchilik tilshunos va adabiyotshunos olimlar ishtirokida O‘zR FA Til va adabiyot institutida tarixiy etimologik lug‘atlar bo‘limi ochilib, izohli lug‘atni tuzish ishlari boshlab yuboriladi. Keng jamoatchiligimizga yaxshi tanish bo‘lgan, arab, fors, turkiy tillar bilimdoni Qutbiddin Muhiddinov<sup>167</sup> ham lug‘atni tuzishda faol ishtirok etadi. Domla lug‘atni tuzishda qatnashgan barcha olimlarga qadimgi turkiy hamda forsiy lug‘atlarni o‘rganish, Navoiy asarlari tilining asl ham ko‘chma, majoziy ma‘nolarini anglash borasida o‘z qimmatli o‘git va maslahatlarini beradi. Keyinchalik lug‘at Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining leksikologiya va leksikografiya bo‘limida (1983–85) tayyorlanib, nashr etiladi. Uning nashr qilinishi o‘z davrida matnshunos tadqiqotchilar uchun ham boy faktik materiallar beradi. Izohli lug‘atdan faqat Navoiy asarlari matni yoki o‘zbek mumtoz asarlari tilinigina emas, balki qariyb barcha turkiy xalqlarning adabiy va tarixiy qo‘lyozma manbalarini o‘rganishda ham foydalaniladi. Ammo shoir asarlari matnini o‘rganish, uning yangi-yangi qirralarini o‘rganish davom etaveradi. Zero, Navoiy asarlari mangulikka daxldor so‘z maxzani hamdir.

Mamlakatimiz istiqbolga erishgach, diniy qadriyatlarga, ota-bobolarimizning merosiga munosabat o‘zgardi. Ilgari mumtoz asarlarda “xudo”, “payg‘ambar” so‘zlari, g‘azallarda hamd, na‘tlar tushirib qoldirilgan bo‘lsa, mustaqillikdan so‘ng ularni yozish, o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ldik. Bu esa, shoir asarlari matn tarixini

<sup>165</sup> Шамсиев П., Иброхимов С. Ўзбек классик адабиёти асарлари учун қисқача луғат. –Т.: Фан, 1953. – Б.452.

<sup>166</sup> Шамсиев П., Иброхимов С. Навоий асарлари луғати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1972. – Б.784.

<sup>167</sup> Қаранг: Кутбиддинов А. Кутбитдин домла қисмати//Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Т., 2006. № 44.

to'laroq anglashga, tushunishga yordam beradi. Shu jihatdan, istiqlol yillarida ham bu ish ma'lum ma'noda davom etdi. Filologiyha fanlari doktorlari B.Hasanov tomonidan "Alisher Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at"<sup>168</sup> singari shoir asarlari matn tarixini o'rganishga bag'ishlangan lug'atlar yaratildi. Mazkur lug'atlardan matnshunos olimlar va keng jamoatchilik foydalanib keldi. Afsuski, bu lug'atlardagi deyarli barcha so'zlar ANATILda e'tirof etilgan edi. Shuningdek, B.Hasanov tuzgan lug'atda ilyustrativ misollar berilmaganligi uchun bu lug'atni ommabop lug'atlar sirasiga kiritish mumkin.

Navoiy asarlaridagi so'zlarning ma'lum bir qismini antroponim, toponim, jug'rofiy istilohlar yoki shunday ma'nolarni ifodalagan so'zlar tashkil etadi. Ma'lumki, ensiklopedik lug'atlar bilan lingvistik lug'atlarning o'zaro farqli xususiyatlari bor. Zero, qomusiy lug'atlar so'zligidan, asosan, ot turkumidagi so'zlar o'rin oladi. Shuningdek, tarixiy shaxs nom-kunyalari, atoqli otlar, jug'rofiy joy nomlari, tog', daryo va ular bilan bog'liq bo'lgan tushunchalarni ifodalovchi so'zlar ham bunday lug'atlardan joy olgan bo'ladi. Lingvistik lug'atlarda esa, barcha turkumdagi so'zlar lug'at maqolasiga kiritiladi, biroq atoqli otlar umuman olinmaydi. Ammo, ulardagi bu farqli xususiyatlar ayrim hollarda mumtoz asarlar leksikasini alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganishga mone'lik qilishi ham mumkin. Chunonchi, bunday so'zlar mumtoz asarlarda doimo faqat bir shaxs yoki kishi ismi ma'nosida kelavermaydi. Aksincha, bu toifa so'zlar ko'p ma'noлик hodisasiga uchrashi ham mumkin\*. Masalan Alisher Navoiy asarlarida نجاشي *Najoshiy* [FK, B.112] – imon keltiruvchi; tarixiy shaxs nomi, podshoh, نصوح *Nasuh* [BB, B.106; NN, B.91; HA, B.264] – chin ko'ngildan qilingan tavba; tarixiy shaxs nomi, طفيل *Tufayl* [NN, B. 332] – chaqirilmagan mehmon, o'zi chaqirilmagan bo'lsa ham, chaqirilgan kishilar qatorida, ularga ergashib, to'y-ma'rakalarga boruvchi; sabab, bois, bahona, vaj-korson, vosita; Umayya avlodidan bo'lgan shaxs – u juda kambag'al, faqir bo'lganligi tufayli birovlarinikiga mehmondorchilikka bora olmagan, جسرت خان *Jasratxon* [SS, B.142] – jasoratli, xon laqabi singari ko'plab ma'nolarni ifodalagan. Shu tufayli ham, o'tmishdagi leksikograf olimlar o'z lug'atlarida bu borada aniq bir lisoniy chegara qo'yishmagan<sup>169</sup>. Biz MAT tilidagi ayrim so'zlarni ensiklopedik izohladik.

Quyidagi baytdagi ابوحنيفة *Abu Hanifa* ismi quyidagicha izohlandi:

*Har nuktani ko'rguzub vuzuhin,*

*Shod aylab Abu Hanifa ruhin* [LM, 42].

<sup>168</sup> Ҳасанов Б. Навоий асарлари учун қисқача луғат. – Т.: Фан, 1993. – Б.324.

\* Ushbu bobning boshqa bo'limida bunday so'zlarning ma'nosi borasida batafsil to'xtalib o'tamiz.

<sup>169</sup> Вахидов А. Структурно-семантическая характеристика лексики в Фиёс ул-луғат: автореф. дисс... канд. филол. наук. – Душанбе, 1975. – С.33.

Imom A'zam No'amon ibn Sobit (699 – 767) – mashhur imom, Hanafiya mazhabining asoschisi, Kufada tavallud topgan. U hadis, fiqh ilmlari bilan shug'ullangan.

“Hayrat ul-abror” asarida احمد مرسل *Ahmadi mursal* so'z birikmasi faqat bir o'rinda uchraydi:

*Ulki kamol ahlidin akmal durur,*

*Shohi rusul Ahmadi mursal durur* [HA, 239].

U quyidagicha izohlandi: Muhammad alayhissalom, Muhammad Payg'ambar.

Va **Mazdaki** lain Qubod zamonida paydo bo'lub, nubuvvat da'vosi oshkor qildi va elni bir-birining moli va ayolig'a shariklikka ruxsat berdi [TMA, 240].

Yuqorida keltirilgan illyustrativ misolda مزدك *Mazdak* so'zi ism, tarixiy shaxs (mazdakiylik ta'limotining asoschisi, zardushtlik evolyutsiyasi jarayonidagi bosqichlardan biri) nomi ma'nosini ifodalagan. Shu bilan birga, bu so'z shoir asarlarida o'rni bilan o't, olov kabi ma'nolarni ham ifodalagan: ... va day shohi shabixunidin o't **zardushtining** xayli manqal qo'rg'onida historiy va bahman cherigi chopqunidin sharora **Mazdaking** sipohi tosh birla temur qal'asida mutavoriy [Munsh, 140].

حجر الأسود *Hajar ul-asvad* birikmasi qomusiy izohlash usuliga ko'ra quyidagicha izohlandi: qora tosh musulmonlar tavof qiladigan Ka'ba uyidagi muqaddas qora tosh:

*Shayx Musoni tavofda ko'rdim, aning keynicha borur erdim. Ko'rdumki, Hajar ul-asvad taqbili qildi va Fotihadin tilovat bunyod qildi* [NM, 400].

Bu مغيلان *mug'aylon* so'zi:

*Haq subhonahu va taolo barcha yirog'liq mug'aylonlari aro sargardonlarni yaqinlik ka'basi tavofig'a musharraf qilg'ay, omin!* [Munsh, 148].

“Munshaot” asarida Arabiston cho'llarida o'sadigan bir daraxt nomi ma'nosini ifodalagan.

Qomusiy izohlangan, etnonim, etnotoponim, jug'rofiy nomlar quyidagi guruhlariga ajratib, izohlash mumkin:

### 1. Qomusiy izohlangan tarixiy shaxs nomlari:

بلال *Bilol* – Bilol Habashiy, islomda birinchi azon aytuvchi, muazzin, (mushriklarning har qanday qiynoqlariga bardosh berib, Muhammad (s.a.v.)ning shafolatlariga sazovor bo'lgan qora tanli qul):

*Ko'zlarining birla labing andog'ki urdi din yo'lin,*

*Ne balolardin Bilol o'tkay, ne sahbodin Suhayb* [G'S, 64].

مزدك *Mazdak* – 1. mazdakiylik ta'limotining asoschisi, u Eron shohi Qubod I (488–531) zamonida yashab o'tgan:

va **Mazdaki** lain *Qubod* zamonida paydo bo‘lub, nubuvvat da‘vosi oshkor qildi va elni bir-birining moli va ayolig‘a shariklikka ruxsat berdi [TAH, 240].

2. o‘t, olov:

va *day shohi shabixunidin o‘t zardushtining xayli manqal qo‘rg‘onida* historiy va bahman cherigi chopqunidin sharora mazdakining sipohi tosh birla temur qal‘asida mutavoriy [Munsh, 140].

## 2. Qomusiy izohlangan kishi ismi va laqablari:

القضات عين *Ayn ul-quzot* – tasavvuf Shayxlaridan birining laqabi, bu laqab Shayxning soliklikda ko‘p irodat ko‘rgizib, haqparast, to‘g‘ri so‘z bo‘lganligi uchun berilgan:

*Ayn ul-quzot til sharafidin Masih guftor bo‘lgan va Husayn Mansur til sur‘atidin dorg‘a sazovor* [MQ, 94].

فخفور *Fag‘fur* – qadimgi Chin (Xitoy) podshohlaridan birining laqabi:

*Ko‘rar ondin futur ar bo‘lsa fag‘fur,*

*Topar ondin qusur ar bo‘lsa Qaysar* [BB, 611].

كدود *Kadud* – XV asrda Xurosonda yashab ijod etgan olim, forsig‘o‘y shoir Xoja Avhad Mustavfiy laqabi:

*Xoja Avhad Mustavfiy – aning laqabi Kadud ham derlar* [MN, 32].

*Kadud* so‘zi Alisher Navoiy asarlarida o‘z lug‘aviy ma‘nosida ham qo‘llanilgan:

كدود *Kadud* – bigiz:

*Va “yoyiy” misol uch harakatdin ortuq topilmas: biyizki sort kadud der va bizki “mo” va “nahnu” ma‘nisi biladur va biyizki “dirafsh” derlar* [ML, 19].

## 3. Qomusiy izohlangan joy nomlari:

اسكندريه *Iskandariya* – farang sarhadidagi daryo qirg‘og‘iga yaqin joyda Iskandar qurdirgan shahar nomi:

*Mundoq naql qilibdurki, Shayx Najmuddin Kubro Hamadong‘a borib, Hadis ijozati hosil qildi va eshittiki, Iskandariyada muhaddise borki, oliy sanadi bor* [NM, 289].

بيت المقدس *Bayt ul-muqaddas* – Quddusi Sharif (Falastin) shahri va undagi yahudiylarning ziyoratgohi:

*Chun “Injil” Iso a.s. g‘a nozil bo‘ldi, uchovda Bayt ul-muqaddasqa kelib, Iso a.s. amri ilohi bila xalqni tengri taolo amrig‘a dalolat qildi* [TAH, 176].

باغ نو *Bog‘i nav* – Hirot atrofidagi go‘zlal bog‘lardan biri:

*Tuzub suhbat “Bihishti soniy” ichra,*

*May ichsa **Bog'i nav** ayvoni ichra [FSH, 58].*

Xulosa qilib aytganda, Navoiy asarlari matnini tadqiq etish tamoyillari ikki tamoyilga asoslanadi: a) orfografik va punktuatsion, fonetik xususiyatlarni hisobga olish tamoyili; b) soʻz tadqiqi tamoyili. Bunda oʻtmishda yaratilgan tarixiy, adabiy manbalarni oʻgirishda, avvalo, u yoki bu yozuvning imkoniyatlari hisobga olinadi. Bunda yozuvning asosiy xususiyatlaridan biri uning grafik belgisi boʻlib xizmat qila olishidir. Yozuv maʼlum bir ehtiyoj zaruriyat asosida fikrni keyingi avlodlarga qoldirish talabi bilan yaratilgan. Qoʻlyozma matn nashrini amalga oshirishda yozuv muhim oʻrin egallaydi.

Navoiy asarlariga bagʻishlangan lugʻatlardan shoir hayotlik davridayoq matn tarixini oʻrganishda keng foydalanilgan. Shoir qoʻlyozma asarlarining savodxonlik sifatini yanada oshirish va ularni mazkur qoʻlyozmalararo qiyoslashda mazkur lugʻatlar asos vazifasini oʻtagan.

## UMUMIY XULOSALAR

Dunyo matnshunosligida matnni zamonaviy usullar vositasida tadqiq etish o'z e'tirofini topgan bo'lsa-da, o'zbek matnshunosligida ulardan samarali foydalanilganicha yo'q. Xususan, mumtoz matnni, ayniqsa, yangicha *gloss* va *konyektura* usullari vositasida tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Ayni shu ma'noda, Navoiy asarlari matni ilk bora *gloss* va *konyektura* usullari yordamida tadqiq etildi. Bundan tashqari, shoir asarlari matnlaridagi bunday xususiyatlarlar izoh-sharhlar bilan to'liq ta'minlandi. Bu usullar Navoiy asarlaridan boshqa mumtoz asarlar uchun ham joriy qilinishi muhim ilmiy ahamiyatga egadir. Bu bilan mumtoz asarlar taraqqiyotining o'ziga xos yo'lini aniqlashga harakat qilinadi.

Germenevtik talqin ulug' shoir asarlari matnining badiiy, ilmiy, tarixiy mavzudagi barcha asarlari uchun ham joriy qilinishi maqsadga muvofiqdir. Germenevtik tahlil matnshunoslik tadrijiy taraqqiyoti uchun ikki yo'nalishda xizmat qiladi: a) Navoiy asarlarining mukammal ilmiy-tanqidiy matnini yaratish; b) to'liq izoh-sharhlar bilan ta'minlangan shoir asarlari ilmiy va ilmiy-ommabop nashrlarini amalga oshirish.

Navoiy asarlari matnini tadqiq etishda statistik usullardan keng va unumli foydalanish muhim ahamiyatga ega. Navoiy asarlari matni ko'p marotaba matniy tadqiqot obyekti bo'lishiga qaramasdan, statistik usullar asosida tadqiqotlar olib borilmadi va buni bugungi kungacha ilmiy sharh va izohlar bilan to'liq ta'minlangan Navoiy asarlari to'plami yoki ANATILning takomillashtirilgan varianti yo'qligida ham ko'ramiz. Statistik tadqiq etish usuli natijasida Alisher Navoiyning 29 ta asarida ANATILga kirmay qolgan 5358 ta, qaytarig'i bilan 6082 ta so'z va iboralar aniqlanib, sharhlandi va eski o'zbek tilida mavjud unli va undoshlar tizimiga muvofiqlik darajasi aniqlandi.

